

**D.B.NORQO‘ZIYEV, F.B.BAYJONOV,
M.B.ONGAROV**

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALFRAGANUS UNIVERSITETI**

D.B.NORQO‘ZIYEV, F.B.BAYJONOV, M.B.ONGAROV

**PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI
(I-qism Pedagogika nazariyasi) pedagogika ta‘lim
sohasi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi uchun o‘quv
qo‘llanma**

TOSHKENT – 2024

UDK:

BbK:

D.B.Norqo‘ziyev, F.B.Bayjonov, M.B.Ongarov.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI (I-qism Pedagogika nazariyasi): O‘quv qo‘llanma / D.B.Norqo‘ziyev, F.B.Bayjonov, M.B.Ongarov. – Toshkent.: _____ nashriyoti 2024.

Mazkur o‘quv qo‘llanma pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriyat talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, bakalavriyat ta‘lim standartlariga kiritilgan “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fani sohasiga oid bilimlar mazmuni qamrab olgan.

Pedagogika fanining nazariy asoslari, uning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, asosiy kategoriyalari va tamoyillari, didaktika jarayon, ta‘lim mazmuni va metodlari, tarbiya metodlari, pedagogik faoliyat kabi masalalari yoritilgan. Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy ta‘lim muassasalari, professional ta‘lim muassasalari hamda maktab o‘qituvchilari, talabalari, shuningdek, mazkur fan bilan qiziquvchi kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

O‘quv qo‘llanma pedagogika ta‘lim sohasining bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishi DTS, o‘quv reja va o‘quv dasturlari asosida yozilgan.

Taqrizchilar: p.f.f.d., PhD: D.X. Yulchiyeva

p.f.f.d., PhD M.Abdullayeva

Ushbu o‘quv qo‘llanma Alfraganus Universiteti kengashining 2024-yil ___ martdagi ___ sonli yig‘ilishida muhokama etilgan va chop etishga tavsiya etilgan.

© D.B.Norqo‘ziyev, Bayjonov F.B, M.B.Ongarov.

© “ _____ ” nashriyoti

KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini belgilanishi, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi qabul qilinishi ta'lim sohasida muhim qilingan ishlar hisoblanadi.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarida ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik ko'p bilim egallasa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desak, o'ylaymizki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Mazkur o'quv qo'llanmada pedagogika fanining obykti, predmeti, maqsad va vazifalari, pedagogikaning asosiy kategoriyalari, pedagogik fanlarning tuzilishi, ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif, shaxs tushunchasi, shaxs rivojlanishi, shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, shaxs rivojlanishining yosh davrlari, yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi, yaxlit pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari, tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchasi, tarbiya metodlari tasnifi, tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari, ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari, faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish, didaktikaning obykti, predmeti va funksiyalari, didaktikaning asosiy kategoriyalari, ta'lim jarayoni mohiyati, o'rganish bilish faolligi shakli sifatida, o'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi yoritib berilgan.

I BO'LIM. PEDAGOGIKA NAZARIYASI

I BOB. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI.

Tayanch iboralar: Ta'lim, tarbiya, ta'lim sifati, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Professional ta'lim.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatda tub islohotlar amalga oshirilib, davlat boshqaruvini tubdan yangilash, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash borasida keng ko'lamli yangilanish va tashabbuslar boshlandi. Ularni hayotga to'liq joriy etish ijtimoiy taraqqiyot mas'uliyatini o'z zimmasiga oladigan vatanparvar, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan iqtidorli va istiqbolli, malakali va raqobatbardosh professional kadrlarga juda katta ehtiyojni vujudga keltirdi. Bu ehtiyoj, birinchi navbatda, jamiyatning ma'rifiy sohasida tub islohotlar boshlanishiga turtki bo'ldi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvar kuni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni imzolandi. Mazkur Farmon bilan "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida ishlab chiqilgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Farmon loyihasi bo'yicha 16,7 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan. Ularni har tomonlama ko'rib chiqish yakuniga ko'ra, hujjatga qariyb 100 ta konseptual hamda 200 dan ortiq aniqlashtiruvchi tahririy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Farmonda O'zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 100 ta maqsadlarga erishishga qaratilgan va 2022-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan 398 ta chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyati takomillashtirish to'g'risida" PQ-3304-sonli Qarori asosida Xalq ta'limi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari belgilandi. Xususan, o'rta ta'lim maktablari va

oʻrta maxsus, kasb- hunar taʼlimi muassasalari oʻrtasida oʻzaro integratsiyani taʼminlash orqali 11 yillik oʻrta taʼlim joriy etildi (0 sinf bilan – 12 yillik taʼlim).

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi **“Professional taʼlim tizimini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”** PF-5812-sonli Farmoniga koʻra professional taʼlim dasturlarini YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Taʼlimning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uygʻunlashtirish, oʻquv jarayoniga Oʻzbekiston Milliy kvalifikatsiya tizimini toʻlaqonli joriy etish orqali tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib oʻrin egallashlarini taʼminlash maqsadida 2020-2021-oʻquv yilidan boshlab yangi *boshlangʻich* (340 ta kasb-hunar maktabi), *oʻrta* (147 ta kollej) va *oʻrta maxsus* (143 ta texnikum) professional taʼlim tizimini oʻz ichiga qamrab olgan professional taʼlim muassasalari tarmogʻi tashkil etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi **“Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”** PQ-2909-sonli Qaroriga muvofiq yangilangan oliy taʼlim tizimini kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari belgilandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi **“Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”** PF-4958-sonli Farmoni ijrosini taʼminlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi **“Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”** Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim institutida taʼlim quyidagi shakllarda tashkil etiladi: tayanch doktorantura; doktorantura; mustaqil izlanuvchilik.

Tayanch doktorantura - Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur oʻrganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMLarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari boʻyicha oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim shakli.

Doktorantura - Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur oʻrganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish boʻyicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMLarida tashkil etiladigan oliy

malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisos-liklari bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

Mustaqil izlanuvchilik - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadr-lar bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-fevraldagi 103-son Qarori bilan qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimiga o'zgarishlar kiritildi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda nafaqat ma'rifiy, balki boshqa sohalarda ham amalga oshirilayotgan tub islohotlar, yangilanishlar aynan o'qituvchi shaxsi, uning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liqdir.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni

Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashdan iborat.

Qonunning asosiy vazifalari:

- ta'lim tizimining ishlashi va rivojlanishi uchun huquqiy kafolatlar va mexanizmlarni yaratish;

- ta'lim olish jarayonida ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish va shaffoflikni ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari darajasigacha takomillashtirish;

- ta'lim sohasida davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlarini belgilash va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;

- ta'lim sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini hamda ularning o'zaro munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb tan olinadi.

2017-yildan keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar, ya'ni Yangi O'zbekistonning tamal toshi qo'yilib, ta'lim tizimida ham yangi islohotlar boshlandi.

Bu zaruriyat tufayli **“Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning yangi – uchinchi tahriri** (O‘RQ-637, 23.09.2020) imzolandi. Natijada 1997-yildan buyon amal qilib kelayotgan eskirgan “Ta’lim to’g’risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi qonunlar o‘z kuchini yo‘qotdi.

Yangi tahrirdagi Qonun 11 bob va 74 moddadan iborat bo‘ldi.

Yangi tahrirdagi Qonunning eskisidan asosiy farqlari quyidagilarda o‘z ifodasini topdi:

1. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagicha belgilandi:

- ta’lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
- ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;
- ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;
- ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

3. Ta’lim tizimi va turlari.

Ta’lim tizimi quyidagilarni qamrab oldi:

- davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini;
- davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini;
- ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;
- ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqiy ishlarni bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;
- ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi.

Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarining zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual

qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

4. Professional ta'lim mazmuni.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;
- o'rta professional ta'lim;
- o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim), o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ikki shaklda olib boriladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli *davlat ta'lim talablari* bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarning ehtiyojlarini qandirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
 - dual ta'lim;
 - oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;

- katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;
- inklyuziv ta’lim;
- eksternat tartibidagi ta’lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Ta’lim tizimini boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining, ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining *ta’lim sohasidagi vakolatlari* doirasida amalga oshiriladi.

Ta’lim tashkilotini boshqarishni tegishlicha quyidagilar amalga oshiradi:

- pedagogik kengash;
- kuzatuv (vasiylik) kengashi;
- oliy ta’lim tashkilotining kengashi;
- ta’lim tashkilotining rahbari.

Ta’lim tashkilotlarida jamoatchilik boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar **pedagogik faoliyat** bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga **qayta tayyorlash** kurslaridan o‘tganidan keyin ta’lim tashkilotlarida (bundan oliy ta’lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi.

Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

- o‘z sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘cini himoya qilish;
- o‘quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o‘qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek tegishli o‘quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko‘rsatish;
- zamonaviy pedagogik shakllarni, o‘qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish;
- kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;
- o‘quv, ilmiy va uslubiy yo‘nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

- davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejaları va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish;
- ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;
- kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a'zosi bo'lish, xodimlarining vakillari bo'lish, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatida qatnashish;
- o'z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga birlashish;
- o'z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalani;
- davlat sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish (davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari uchun);
- ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan har qanday boshqa ishga jalb qilish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlarning majburiyatlari:

- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;
- o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;
- ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi;
- voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;
- ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi;
- o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;
- tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.

Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi. Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

Ta'lim oluvchilar quyidagi huquqlarga ega:

- bepul asosda umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olish;
- yashash joyidagi (mikrohududdagi) davlat umumiy o'rta ta'lim muassasasiga qabul qilinish;
- ta'lim olish shakllarini erkin tanlash;
- davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq sifatli ta'lim olish;
- ta'lim olish uchun o'zining ruhiy xususiyatlari va fiziologik rivojlanishi inobatga olingan holda zarur shart-sharoitlarga ega bo'lish, shuningdek bepul psixologik-tibbiy xizmatlardan foydalanish;
- davlat ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq, professional ta'lim va oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari talablariga binoan ishlab chiqilgan, o'zi oladigan ta'limning mazmunini shakllantirishda ishtirok etish;
- pedagog xodimlar va ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari tomonidan hayoti va sog'lig'iga qilinadigan har qanday jismoniy hamda ruhiy zo'ravonlikdan, shaxsi haqoratlanishidan himoyalalanish;
- ta'lim olish davrida dam olish va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar uchun ta'tillar olish;
- akademik ta'tillar va stipendiyalar olish, o'qishni tiklash va o'qishini boshqa ta'lim tashkilotlariga, bir ta'lim shaklidan, kasbdan, ta'lim yo'nalishidan, mutaxassisligidan boshqasiga ko'chirish;
- ta'lim tashkilotini boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;
- ta'lim olish jarayonida ta'lim tashkilotining o'quv, uslubiy, ilmiy-ishlab chiqarish, madaniy, sport va maishiy obyektlari xizmatlaridan bepul foydalanish;
- ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, ilmiy-texnikaviy, eksperimental va innovatsion faoliyatida ishtirok etish.

Ta'lim oluvchilar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarni ta'lim olish bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

Ta'lim oluvchilarning majburiyatlari:

- o'quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, mashg'ulotlarga qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko'rishi, pedagog xodimlarning topshiriqlarini bajarishi;

- ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlik ishlatmasligi va ularning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilmasligi;

- ustav (ta'sis hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta'lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etishi;

- axloqiy, ma'naviy va jismoniy kamol topishga hamda o'z dunyoqarashini kengaytirishga intilishi;

- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

- ta'lim tashkilotining mol-mulkini, moddiy va madaniy boyliklarini asrashi shart.

Shuningdek, mazkur qonunda ta'lim tashkilotlardagi ta'lim-tarbiya mazmuni va uni tashkil etishning barcha jihatlari o'z aksini to'liq topgan.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi yo'nalishining mazmuni nimadan iborat?

2. "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi mazmuni nimadan iborat.

3. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning maqsad va vazifasi?

4. Uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini yoritib.

5. Uzluksiz ta'lim turlari va maqsadi.

6. Ta'lim shakllari va mohiyatini tushuntirib bering.

7. Professional ta'limni maqsad va vazifasi.

8. Professional ta'lim bosqichlari.

MAVZU: PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI.

Tayanch iboralar: pedagogika, maqsad, vazifa, obyekt, predmet, kategoriya, pedagogikaning sohalari, pedagogika fani metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot metodlari.

1. Pedagogika fan sifatida.

Shaxsning umummadaniy va hayotiy g'oyaviy, o'qituvchi uchun kasbiy jihatdan o'zini o'zi belgilashi uning insoniyat madaniyatining pedagogikaga tegishli bo'lgan eng chuqur qatlamlariga tegishlilikini nazarda tutadi. U insoniyat tarixidan ajralmas uzoq tarixga ega.

Pedagogika yunoncha "paydagogos" (payd — bola, gogos — yetaklamoq) soʻzidan olingan boʻlib, "bola yetaklamoq" degan maʼnoni anglatadi.

Qadimgi Yunonistonda bu vazifa toʻgʻridan-toʻgʻri amalga oshirilgan. Dastlab xoʻjayinining bolalarini maktabga kuzatib boradigan qullarni pedagoglar deb atashgan. Keyinchalik, bolalarni boshqarish, tarbiyalash va oʻqitish bilan shugʻullanadigan erkin yollangan odamlar pedagoglar deb atalgan.

Shuni taʼkidlash kerakki, har bir inson tajriba orqali maʼlum pedagogik bilimlarni egallaydi, turli xil pedagogik hodisalar oʻrtasida baʼzi bogʻliqliklarni oʻrnatadi.

Shu tariqa ibtidoiy odamlar urf-odatlar, anʼanalar, oʻyinlar va kundalik qoidalar shaklida avloddan avlodga oʻtib kelgan bolalarni tarbiyalash boʻyicha bilimlarga ega edilar. Bu bilimlar xalq pedagogikasining mazmunini tashkil yetuvchi maqol va matallarda, afsona va rivoyatlarda, ertak va latifalarda oʻz aksini topgan.

Bu manbalar jamiyat hayotida ham, alohida oilada hamda har bir bir shaxs uchun ham juda muhimdir. Ular oʻzgalar bilan oʻzaro harakatga kirishish, muloqot qilish, oʻz oʻzini takomillashtirish va ota-onalik vazifalarini bajarishga yordam beradi.

Xalq pedagogikasi mehnat faoliyatining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan tarbiyaga boʻlgan obʼektiv ijtimoiy ehtiyojga javob sifatida paydo boʻlgan, va u albatta, kitoblar, maktablar, oʻqituvchilar va fanning oʻrnini bosa olmaydi. Ammo u pedagogik fanlar va taʼlimga nisbatan ijtimoiy institut sifatida qadimiy va dastlab ulardan mustaqil ravishda mavjud boʻlgan.

Biroq, pedagogika fani taʼlim va tarbiya sohasidagi kundalik bilimlardan farqli oʻlaroq, turli faktlarni umumlashtiradi, hodisalar oʻrtasidagi sababiy munosabatlarni oʻrnatadi. U nafaqat taʼriflaydi, balki taʼlim va tarbiya taʼsiri ostida inson taraqqiyotida nima uchun va qanday oʻzgarishlar yuz berishi haqidagi savollarga javob beradi va tushuntiradi.

Shu bilan birga, kundalik pedagogik tajriba, mavjudligining ogʻzaki shakliga qaramay, yoʻqolmadi, balki asrdan asrga oʻtdi, sinovlarga dosh berdi, qarashlar va qadriyatlarni oʻzgartirdi, lekin umuman xalqlarning pedagogik madaniyati va mentalligi shaklida saqlanib qoldi va bugungi kunda ilmiy pedagogik bilimlar asosini tashkil etadi.

Pedagogikani fan sifatida oʻrganish uchun uning fan sohasi chegaralarini belgilash yoki u nimani oʻrganadi degan savolga javob berish muhimdir. Oʻz navbatida, bu savolga javob uning obʼekti va predmeti haqida fikrlashni nazarda tutadi.

Pedagogikaning obʼekti, predmeti va vazifalari.

Olimlarning pedagogika haqidagi qarashlarida o'tgan zamonda ham, hozirgi kunda ham uchta yondashuv (konsepsiya) mavjud.

Ulardan birinchisining vakillari pedagogikani inson bilimlarining fanlararo sohasi deb hisoblashadi. Biroq, bu yondashuv aslida pedagogikani mustaqil nazariy fan sifatida ya'ni, pedagogik hodisalarni aks yettirish sohasi sifatida inkor yetadi. Pedagogikada bu holda voqelikning turli xil murakkab ob'ektlari (koinot, siyosat, ijtimoiylashuv, rivojlanish va b.) ifodalanadi.

Boshqa olimlar pedagogikaga amaliy fan sifatida qaraydilar, uning vazifasi boshqa fanlardan olingan bilimlardan (psixologiya, tabiiy fanlar, sotsiologiya va b.) bilvosita foydalanishdan iborat va ta'lim yoki tarbiya sohasida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga moslashtirilgan, deb hisoblaydilar.

Shunday qilib, bir qarashda, ilmiy pedagogikaning ob'ekti o'quvchi, tarbiyalanuvchi va umuman o'qitiladigan va tarbiyalanadigan har qanday shaxsdir. Biroq, bu holda, pedagogika ham, psixologiya ham psixik voqelikni (inson psixikasini) o'rganadi, zero pedagogika psixologiyaning amaliy qismi, ya'ni uning "amaliy ilovasi" xolos, degan fikrga kelinadi. Bu yondashuv pedagogikani psixologik pedagogika bilan almashtirishga urinishlarni tushuntiradi.

Ikkinchi konsepsiya tarafdorlari, birinchisi kabi, pedagogikaning predmetlik huquqini va shu tariqa nazariy bilimlarini butkul inkor yetadilar, uni boshqa fanlardan olingan qoidalar to'plami bilan almashtiradilar. Bu holat pedagogik amaliyotga salbiy ta'sir qiladi.

Pedagogika bilan bog'liq fanlarning hech biri pedagogik voqelikni yaxlit va maxsus o'rganmaydi. Ushbu yondashuv bilan pedagogik amaliyotni shakllantirish va o'zgartirish uchun yaxlit fundamental asosni ishlab chiqish mumkin emas. Bunday pedagogikaning mazmuni pedagogik hodisalarning ayrim jihatlari haqidagi bo'lak - bo'lak g'oyalar to'plamiga aylanadi.

V.V.Kraevskiyning fikriga ko'ra, faqat uchinchi konsepsiya fan va amaliyot uchun samarali bo'lib, unga ko'ra pedagogika o'z ob'ekti va o'rganish predmetiga ega bo'lgan nisbatan mustaqil fan hisoblanadi.

Pedagogika obyekti

Pedagogikaning ob'ekti-bu jamiyatning maqsadli faoliyati jarayonida inson shaxsining rivojlanishini belgilaydigan voqelik hodisalari bo'lib, bu hodisalar ta'lim deb nomlangan. Aynan shu pedagogika o'rganadigan ob'ektiv dunyoning bir qismidir.

Pedagogikaning predmeti. Ta'lim nafaqat pedagogika tomonidan o'rganiladi. U falsafa, sotsiologiya, psixologiya, iqtisod va boshqa fanlar tomonidan o'rganiladi. Masalan, iqtisodchi ta'lim tizimi tomonidan ishlab chiqarilgan "mehnat resurslari" ning haqiqiy imkoniyatlari darajasini o'rganib, ularni o'qitish xarajatlarini

aniqlashga harakat qiladi. Sotsiolog ta'lim tizimi ijtimoiy muhitga moslasha oladigan, ilmiy-texnik taraqqiyot va ijtimoiy o'zgarishlarni targ'ib qila oladigan odamlarni tayyorlaydimi yoki yo'qligini bilmoqchi bo'ladi.

Faylasuf, o'z navbatida, kengroq yondashuvni qo'llagan holda, ta'limning maqsadlari va umumiy mohiyati — ular bugungi kunda qanday va zamonaviy dunyoda qanday bo'lishi kerakligi haqida so'raydi. Psixolog ta'limning psixologik jihatlarini pedagogik jarayon sifatida o'rganadi. Siyosatshunos jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichida davlat ta'lim siyosatining samaradorligini aniqlashga intiladi va hokazo.

Ko'plab fanlarning ta'limni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganishga qo'shgan hissasi, shubhasiz, qimmatli va zarurdir, ammo bu fanlar insonning o'sishi va rivojlanishining kundalik jarayonlari, o'qituvchilar va talabalarning ushbu rivojlanish jarayonidagi o'zaro ta'siri va tegishli institutsional tuzilma bilan bog'liq ta'limning muhim jihatlariga, mohiyatan qirralariga ta'sir qilmaydi. Va bu juda haqqoniydir, chunki ushbu jihatlarini o'rganish ob'ektning (ta'limning) maxsus fan - pedagogika fani tomonidan o'rganilishi kerak bo'lgan qismini belgilaydi.

Pedagogikaning predmeti bu - ixtisoslashtirilgan ijtimoiy muassasalarda (oila, ta'lim va madaniy- tarbiyaviy muassasalarda) maqsadli ravishda tashkil etilgan haqiqiy yaxlit pedagogik jarayon sifatida ta'limdir. Bu holda pedagogika - bu pedagogik jarayon (ta'lim)ning mohiyati, qonuniyatlari, tendensiyalari va rivojlanish istiqbollari inson hayoti davomida rivojlanish omili va vositasi sifatida o'rganadigan fan.

Pedagogika fani ma'rifat, ya'ni ta'lim va tarbiya vositasida har tomonlama rivojlangan *barkamol shaxs – komil insonni* shakllantirish jarayoni va uning samarali shart-sharoitlarini o'rganadi. *Pedagogikaning obyekt*i – ijtimoiy voqelikda odam hayoti va faoliyati tufayli vujudga kelgan *ma'rifat (ta'lim, tarbiya)* sohasi, *predmeti* – odamning umri davomida uning kamol topishini ta'minlaydigan *pedagogik jarayonlar* (ta'lim, tarbiya, mustaqil o'qish, o'zini-o'zi tarbiyalash va shakllantirish) hisoblanadi.

Shu asosda pedagogika uni tashkil etish nazariyasi va texnologiyasini, o'qituvchi faoliyatini (pedagogik faoliyat) va o'quvchilar faoliyatining har xil turlarini takomillashtirish shakllari va usullarini, shuningdek ularning o'zaro ta'sir qilish strategiyasi va usullarini ishlab chiqadi.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogikaning fan sifatidagi vazifalari uning predmeti bilan belgilanadi. Bu organik birlikda amalga oshiriladigan nazariy va texnologik funksiyalardir.

Pedagogikaning nazariy funksiyasi uchta darajada amalga oshiriladi: tavsiflovchi yoki tushuntiruvchi, - ilg'or va innovatsion pedagogik tajribani o'rganish;

diagnostik (tashxislovchi) -pedagogik hodisalarning holatini, pedagog va o'quvchining muvaffaqiyati yoki samaradorligini, ularni ta'minlaydigan sharoit va sabablarni aniqlash;

Prognostik (bashoratlovchi) -pedagogik voqelikni aniqlovchi bashoratli-eksperimental tadqiqotlar o'tkazish va ularga asoslangan holda ushbu voqelikni o'zgartirish modellarini qurish.

Nazariy funksiyaning prognostik (bashoratlash) darajasi pedagogik hodisalarning mohiyatini ochish, pedagogik jarayonda chuqur hodisalarni topish va taklif etilayotgan o'zgarishlarni ilmiy asoslash bilan bog'liq. Bu tariqa ta'lim va tarbiya nazariyalari, ta'lim amaliyotini tezkor rivojlantiruvchi pedagogik tizimlar modellari yaratilmoqda.

Pedagogikaning texnologik funksiyasi, shuningdek, amalga oshirishning uchta darajasini taklif yetadi:

loyihaviy-nazariy tushunchalarni o'zida mujassam yetgan va pedagogik faoliyatning "me'yoriy yoki regulyativ" (V.V. Kraevskiy) rejasini belgilaydigan tegishli uslubiy materiallarni (o'quv rejalari, dasturlari, darsliklari va o'quv qo'llanmalari, pedagogik tavsiyalar) ishlab chiqish, uning mazmuni va xarakteri bilan bog'liq daraja;

- transformatsion, pedagogika fanining yutuqlarini uni takomillashtirish va qayta qurish maqsadida o'quv amaliyotiga joriy yetishga qaratilgan;

- reflektiv, ilmiy tadqiqot natijalarining o'qitish va tarbiyalash amaliyotiga ta'sirini baholashni va ilmiy nazariya va amaliy faoliyatning o'zaro ta'sirida keyingi tuzatishlarni nazarda tutadi.

Pedagogikaning vazifalari:

1) ma'rifat, ta'lim, tarbiya, shaxs kamoloti va bu jarayonlarni boshqarish qonuniyatlarini ochish;

2) pedagogik faoliyat amaliyoti hamda bu boradagi innovatsion tajribalarni o'rganish, umumlashtirish;

3) ta'lim va tarbiya tizimlarini, boshqacha aytganda, ma'rifiy tuzilmalarning yangi metodlari, vositalari va shakllarini ishlab chiqish;

4) ma'rifiy, ta'limiy va tarbiyaviy tizimlarning kelgusi taraqqiyotini bashorat qilish;

5) ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o'tkazish va ularning natijalarini amaliyotga joriy etish.

Pedagogika – ta’lim, tarbiya va shaxs kamoloti haqidagi fan. Boshqacha aytganda, *pedagogika fani* ta’limiy va tarbiyaviy tartibotlar vositasida yosh avlodni va katta yoshli odamlarni shaxsiy va kasbiy kamolotining barcha davrlarida tarbiyalash, ilm-ma’rifatli qilish masalalari bilan shug‘ullanadi. Ayni paytda, ta’lim va tarbiya metodikasining nazariy asosi hisoblanadi Pedagogikani bir avlod tajribasini boshqa avlod tajribasiga aylantiradigan fan sifatida ham ta’riflash mumkin.

Pedagogika fani mohiyatan uchta **asosiy nazariyani**, ya’ni *ta’lim nazariyasi* (didaktika), *tarbiya nazariyasi* va *pedagogik menejment* (boshqarish) nazariyasini o‘z ichiga qamrab oladi.



1-jadval

2. Pedagogika fanining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.

“Pedagogika” termini (yunoncha “paydos” - bola, “ago” - yetaklash) “bola yetaklovchi” ma’nosini bildiradi. Qadimgi Yunonistonda o‘z xo‘jayini bolalarini maktabga olib boradigan qullarni “paydagogos” - “bola yetaklovchi” deb atashgan. Keyinchalik bu termin “pedagog” sifatida ta’lim-tarbiya ishlari bilan shug‘ullanadigan barcha odamlarga nisbatan qo‘llanila boshlangan.

Dastlabki pedagogik g‘oyalar Qadimgi Xitoyda Konfutsiy, Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Platon, Arastu kabi mutafakkirlar tomonidan shakllantirilgan. Ular tomonidan “Notiqlik” g‘oyasi rivojlantirilgan.

Pedagogika XVII asr o‘rtalarida mustaqil fan sifatida shakllana boshlagan. Pedagogika nazariyasining asoschisi buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy


(1592-1670) hisoblanadi. U o‘zining “Buyuk didaktika” asarida barcha bolalar ta’lim-tarbiya olishi lozimligini e’lon qilib, ta’lim mazmuni va tamoyillarini, o‘quv mashg‘ulotlarini sinf-dars shaklida tashkil etish zarurligini, ta’lim metodlari hamda o‘quvchilarning o‘quv, pedagoglarning o‘qitish faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni asoslab bergan.

Keyinchalik D. Lokk (1632-1704), D.Didro (1713-1784), K. Gelvesiy (1715-1771), P. Golbax (1723-789), J.J. Russo (1712-1778) I.G. Pestalossi (1746-1827). I.F. Gerbart (1776-1841), F.A.Disterveg (1790-1886), K.D. Ushinskiy (1824-1871) D. Dyui (1859-1952), E. Torndayk (1874-1949), S.T.Shaskiy (1878-1934) P.P. Blonskiy (1884-1941), A.S. Makarenko (1888-1939), V.A. Suxomlinskiy (1918-1970) kabi xorijiy pedagoglar tomonidan turli jamiyatlarda ta’lim, tarbiya va inson kamoloti muammolarining turli jihatlarini o‘rganilgan, pedagogika nazariyasi va amaliyoti jadal rivojlangan. Germaniyada pedagoglar tayyorlaydigan dastlabki maxsus o‘quv yurtlarining paydo bo‘lishi, pedagogikaning fan sifatida o‘qitila boshlashi muhim ahamiyat kasb etgan.

Pedagogikaning rivojlanish manbalari:

- 1) ta’lim-tarbiya borasidagi ko‘p asrlik amaliy tajribalar;
- 2) falsafiy, pedagogik va psixologik asarlar (to‘plamlar);
- 3) G‘arb va Sharqdagi zamonaviy ta’lim-tarbiya amaliyoti;
- 4) pedagogik ilmiy tadqiqotlar ma’lumotlari;
- 5) yangicha ishlaydigan pedagoglar ish tajribasi.

PEDAGOGIKANING RIVOJLANISH MANBALARI



2-jadval

O‘zbekiston hududida pedagogik fikrlar va ta’lim-tarbiya amaliyotining rivoji

ilg'or pedagogik g'oyalar ta'sirida o'ziga xos tarzda kechgan. Bu tarixni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

I bosqich – eng qadimgi davrdan XVI asrgacha bo'lgan davr (o'zbek xalq pedagogikasi, turkiy xalqlarning eng qadimiy yozma yodgorliklari, Avesto, Islom va tasavvuf ta'limoti, Xorazm “Ma'mun akademiyasi”, Sharq uyg'onish davri (Movarounnahr mutaffakirlari) va O'rta Osiyoda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti). Bu davrda Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning pedagogik qarashlari shakllangan.

II bosqich – XVII asrdan XX asr boshlarigacha bo'lgan davr (Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklaridagi ta'lim-tarbiya muassasalari va pedagogik fikrlar rivoji, Turkiston maktablari va jadidchilik harakati). Bu davrda Maxmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Saidaxmad Siddiqiy, Abduqodir Shakuriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlarning pedagogik fikrlari shakllangan.

III bosqich – 1917-yildan 1991-yilgacha bo'lgan davr (sobiq sho'ro tuzumida kommunistik tarbiya g'oyasi, ta'lim-tarbiya va pedagogika fanlari rivoji). Bu davrda S.Rajabov, E.Qodirov, A.Boboxanov, I.Xusanxo'jayev, Z.Mirtursunov, M.Ochilov, K.Hoshimov kabi o'zbek olimlari pedagogikaning dolzarb muammolarini ishlab chiqish va hayotga tadbiq etishda faollik ko'rsatganlar.

IV bosqich – 1991-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr (mustaqil O'zbekistonda yangilangan ta'lim-tarbiya g'oyalari, pedagogika fanlari va ta'lim tizimi taraqqiyoti (Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi).

O'zbekistonda pedagogik fikrlar va tarbiya amaliyoti taraqqiyoti Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvarlarining pedagogik asarlari hamda turli bosqichlarda jamiyatda hukmron bo'lgan tabaqalar va davlat boshqaruvi organlari tomonidan ilgari surilgan ta'lim-tarbiya mazmuni va tartibotlari, komil inson va barkamol avlod tarbiyasi kabi g'oyalar ta'sirida turli tashkiliy shakllarda amalga oshgan.

O'zbekistonda pedagogik fikrlar va ta'lim-tarbiya amaliyoti rivojining IV bosqichi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi bilan bog'langan bo'lib, mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirish bilan tavsiflanadi.

3.Pedagogik fanlar tizimi.

Pedagogika fanlari tizimi

Istalgan fan rivojlanish jarayonida o'z nazariyasini boyitib boradi va uning ichida eng muhim tadqiqiy yo'nalishlar ilmiy tabaqalashadi. Bu pedagogika faniga

ham taalluqlidir. Hozirgi vaqtda “pedagogika” tushunchasi yaxlit pedagogika fanlari tizimini aks ettiradi.

1. **Umumiy pedagogika** – ta’lim va tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini tadqiq etuvchi, barcha turdagi ma’rifiy muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy asoslarini ishlab chiquvchi tayanch ilmiy fan. U quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi:

1) *pedagogik faoliyatga kirish* (kasbiy pedagogik faoliyat mohiyatini o‘rganadi);

2) *pedagogikaning umumiy asoslari* (pedagogikaning kategoriyalari va tushunchalarini, pedagogik qonunlar va asosiy qonuniyatlar, qoidalar va tamoyillarni o‘rganadi);

3) *tarbiya nazariyasi* (maxsus tashkil etilgan yaxlit tarbiya jarayoni va tarbiyaviy ishlar (aqliy, axloqiy, ekologik, estetik, jismoniy tarbiya, h.k.) yo‘nalishlarini o‘rganadi);

4) *didaktika* (ta’lim qonuniyatlari, xususan, o‘qitish va bilimlarni egallash, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek turli xil o‘quv mashg‘ulotlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘rganadi);

5) *pedagogik menejment - ta’lim-tarbiya tizimlarini boshqarish nazariyasi* (o‘quv-tarbiya muassasalari va ularning tizimini umumiy tashkil etish muammolarini o‘rganadi);

6) *pedagogika metodologiyasi* (pedagogik tadqiqot metodlari, metodikasi va texnikasini o‘rganadi);

7) *pedagogika va ta’lim-tarbiya tarixi* (turli tarixiy davrlarda pedagogik g‘oyalar va ta’lim-tarbiyaning rivojlanishini o‘rganadi).

2. **Yosh pedagogikasi** – insonni turli yosh davrlarida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Yosh xususiyatlariga bog‘liq ravishda yosh pedagogikasining quyidagi turlari farqlanadi:

1) *maktabgacha ta’lim pedagogikasi* (maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining rivojlanish va shakllanish qonuniyatlarini o‘rganadi);

2) *umumiy o‘rta ta’lim pedagogikasi* (maktab yoshidagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslari, tamoyillari, metodlari, shakllari va vositalarini ishlab chiqadi. Umumiy o‘rta ta’lim pedagogikasida kichik maktab yoshi pedagogikasi, o‘rta maktab yoshi pedagogikasi, katta maktab yoshi pedagogikasi farqlanadi);

3) *o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi pedagogikasi* (yuqori malakali bo‘lg‘usi kichik mutaxassislarni kasbga tayyorlash nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqadi);

4) *oliy ta’lim pedagogikasi* (yuqori malakali bo‘lg‘usi oliy ma’lumotli kadrlarni o‘qitish, tarbiyalash va kamol toptirish qonuniyatlarini o‘rganadi);

5) *androgogika* (katta yoshli kishilarni o‘qitish, tarbiyalash va kamol toptirish qonuniyatlarini o‘rganadi).

3. ***Maxsus pedagogika*** – jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan kishilarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy asoslari, tamoyillari, metodlari, shakllari va vositalarini ishlab chiqadi. Maxsus pedagogika “defektologiya”, “korreksion pedagogika” deb ham yuritiladi. Uning tarkibiga quyidagi qismlar kiradi:

1) *surdopedagogika* (kar-soqov (gungalak) va kar bolalar hamda katta yoshli odamlarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganadi);

2) *tiflopedagogika* (ko‘rlar va zaif ko‘radigan kishilarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganadi);

3) *oligofrenopedagogika* (aqli zaif kishilarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganadi);

4) *logopediya* (nutqi buzilgan kishilarni o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi, nutq kamchiliklarining namoyon bo‘lishi va tabiatini, nutq rivojlanishidagi og‘ishlar (chetga chiqishlar) sabablari va mexanizmlarini tadqiq etadi, ularni bartaraf etish tamoyillari va metodlarini ishlab chiqadi).

4. ***Kasb-hunar pedagogikasi*** – insonni aniq kasbiy faoliyat sohasi bo‘yicha o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlari, tamoyillari va texnologiyalarini o‘rganadi va ishlab chiqadi. Kasbiy sohaga bog‘liq holda uning quyidagi qismlari ajratib ko‘rsatiladi:

1) *ishlab chiqarish pedagogikasi* (ishlayotgan xodimlarni o‘qitish, malakasini oshirish, ularni ishlab chiqarishning yangi vositalariga qayta moslashtirish, yangi kasblarga qaytadan o‘qitish qonuniyatlarini o‘rganadi);

2) *harbiy pedagogika* (harbiy o‘quv muassasalari va harbiy mutaxassisliklar o‘rganiladigan qurolli kuchlar qismlarida harbiy xizmatchilarni o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlari, nazariy asoslari, tamoyillari, metodlari va shakllarini ishlab chiqadi. Harbiy pedagogika qoidalarini o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim tizimida ham uchraydi);

3) *tibbiy pedagogika* (sog‘liqni saqlash muassasalarida tibbiyot xodimlarini o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini ochadi, tamoyillari, metodlari va shakllarini ishlab chiqadi);

Shuningdek, kasb-hunar pedagogikasida “muhandislik pedagogikasi”, “sport pedagogikasi”, “badiiy pedagogika” kabi qismlar ham ajratilib ko‘rsatiladi.

5. ***Ijtimoiy pedagogika*** – bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida ijtimoiy tarbiyalash va ijtimoiy ta’lim berish qonuniyatlarini, katta yoshli kishilar va bolalarga maktabdan tashqari ta’lim berish va tarbiyalashning nazariy va tatbiqiy masalalarini o‘rganadi.

6. *Davolash pedagogikasi* – pedagoglarning zaif va kasal o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiyaviy faoliyati tizimini ishlab chiqadi.

7. *Etnopedagogika* – o‘rganish predmeti xalq pedagogikasi – an’anaviy milliy tarbiya amaliyoti bo‘lgan fan hisoblanadi.

8. *Oila pedagogikasi* - bolalarga oilada ta’lim berish va tarbiyalash qonuniyatlarini ishlab chiqadi.

9. *Qiyosiy pedagogika* – qiyoslash hamda o‘xshashlik va farqli jihatlarini topish yo‘li bilan turli mamlakatlar ta’lim-tarbiya tizimlari faoliyati va rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

10. *Axloq tuzatish pedagogikasi* – qamoqda bo‘lgan kishilarni mehnat bilan qayta tarbiyalash masalarini o‘rganadi.

11. *O‘qitish metodikasi* – ayrim o‘quv fanlari didaktika bo‘lib, muayyan fan ta’limining o‘ziga xos xususiy qonuniyatlarini o‘rganadi, uning texnologik majmuini ishlab chiqadi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi va uning tuzilishi.

Pedagogikaning gumanitar fanlar tizimidagi o‘rnini uning boshqa fanlar bilan aloqalarini ko‘rib chiqish jarayonida aniqlash mumkin. Uning mavjud bo‘lgan butun davri davomida u ko‘plab fanlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu munosabatlarning ba’zilari uzoq vaqt oldin, hatto pedagogikani fan sifatida ajratish va ro‘yxatdan o‘tkazish bosqichlarida ham paydo bo‘lgan, boshqalari esa so‘nggi paytlarda shakllandi.

Pedagogikaning falsafa va psixologiya bilan aloqalari birinchilardan bo‘lib shakllangan, ular hozir ham pedagogik nazariya va amaliyotni rivojlantirish uchun zarur sharoitdir.

Pedagogikaning falsafa bilan aloqasi eng uzoq va samarali hisoblanadi, chunki falsafiy g‘oyalari pedagogik tushunchalar va nazariyalarni yaratdi, pedagogik izlanish istiqbollari belgilab berdi va uning metodologik asosi bo‘lib xizmat qildi.

Falsafa va pedagogika o‘rtasidagi aloqalarning talqinlari juda qattiq oppozitsion xarakterga ega edi. Bir tomondan, pedagogika falsafiy g‘oyalarni qo‘llash va sinovdan o‘tkazish uchun "sinov maydonchasi" hisoblanardi.

Bunday holda, u amaliy falsafa sifatida qaraldi. Boshqa tomondan, pedagogikada falsafadan voz kechishga bir necha bor urinishlar qilingan.

Bugungi kunda falsafaning pedagogikaga nisbatan metodologik funksiyasi umuman tan olingan bo‘lib, u juda qonuniydir va falsafiy bilimlarning mohiyati, g‘oyaviy tabiati va insonning dunyodagi o‘rnini tushunish, uning dunyo bilan munosabatlarini aniqlash uchun hal qilinadigan vazifalar bilan belgilanadi. Pedagogik izlanish yo‘nalishi, o‘quv jarayonining muhim, maqsadli va texnologik

xususiyatlarini aniqlash pedagogika tadqiqotchilarining falsafiy qarashlari tizimiga bog'liqdir.

Bundan tashqari, falsafaning har qanday fanga, shu jumladan pedagogikaga nisbatan metodologik funksiyasi uning ilmiy bilishning umumiy tamoyillari va usullari tizimini ishlab chiqishida namoyon bo'ladi. Pedagogik bilimlarni egallash jarayoni falsafa tomonidan o'rganilgan ilmiy bilimlarning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Pedagogikaning psixologiya bilan aloqasi eng an'anaviy hisoblanadi. Pedagogika haqiqiy fanga aylanishi va o'qituvchi faoliyatiga samarali rahbarlik qilishi uchun insonning o'ziga xos va aniq rivojlanishida mavjud bo'lgan haqiqatni hisobga olishi kerak. Buni uch asrdan ko'proq vaqt oldin pedagogika asoschisi Ya. A. Komenskiy ta'kidlagan.

Dastlab, pedagogika va psixologiya o'rtasidagi munosabatlar ko'pchilikka juda oddiy bo'lib tuyuldi. Agar psixologiya "ruhiyat mexanizmlarini" ochib bersa, undan bevosita bolaning ruhiyatini ta'lim maqsadiga muvofiq qanday shakllantirish kerakligini aniqlash mumkin. Bu pedagogika o'zining ilmiy mazmunini yetarlicha to'plamagunga qadar, psixologiyani pedagogik amaliyot uchun nazariy asos sifatida ishlatganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, o'tmishning eng ko'zga ko'ringan o'qituvchilari birinchi navbatda faylasuflar va psixanalistlar edi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqalari falsafa va psixologiya bilan chegaralanib qolmaydi, zero ularning umumiy nuqtasi insonni shaxs sifatida o'rganish edi. Pedagogika uni shaxs sifatida o'rganadigan boshqa fanlar bilan ham chambarchas bog'liq. Bular biologiya (inson anatomiyasi va fiziologiyasi), antropologiya va tibbiyot kabi fanlardir.

Ta'lim ijtimoiylashuvning maqsadli tartibga solinadigan jarayoni sifatida inson va uning rivojlanishi tabiiy omillar ta'siriga bog'liqligini e'tiborsiz qoldirishni anglatmaydi. Ularning ta'siri kamroq seziladi, chunki u ijtimoiy tartibga solish mexanizmlari vositachiligida ko'rinadi. Inson rivojlanishining tabiiy va ijtimoiy omillarining o'zaro bog'liqligi muammosi pedagogika uchun eng muhim muammolardan biridir. Shuningdek, u insonning individual rivojlanishini o'rganadigan biologiya fani uchun ham eng muhimdir.

Pedagogikaning tibbiyot bilan aloqasi korreksion pedagogikaning pedagogik bilimlarning maxsus sohasi sifatida paydo bo'lishiga olib keldi, uning predmeti orttirilgan yoki tug'ma rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashdir. U tibbiyot bilan birgalikda terapevtik ta'sirga erishiladigan va ijtimoiylashuv jarayonlarini osonlashtiradigan, mavjud nuqsonlarni qoplaydigan yoki ularning zo'ravonligini kamaytiradigan pozitsiyalar, rollar, qadriyatlar o'zlashtiriladigan vositalar tizimini rivojlantiradi.

Pedagogikaning rivojlanishi insonni jamiyatda, uning ijtimoiy aloqalar va munosabatlar tizimida o'rganadigan fanlar bilan ham bog'liqdir. Shuning uchun pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, iqtisod, siyosatshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlar o'rtasida ancha barqaror o'zaro ta'sirlar o'rnatila boshlangani bejiz emas.

Pedagogika va iqtisodiyot o'rtasidagi munosabatlar murakkab va turlicha. Iqtisodiy siyosat har doim jamiyatda bilimlilikni rivojlantirishning zaruriy sharti bo'lib kelgan. Ushbu bilim sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni iqtisodiy rag'batlantirish pedagogika fanining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Pedagogikaning sotsiologiya bilan aloqalari ham an'anaviy aloqalardan biridir, chunki birinchisi ham, ikkinchisi ham ta'limni rejalashtirish, aholining ayrim guruhlari yoki qatlamlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini, turli ijtimoiy muassasalarda ijtimoiylashuv va shaxsiy ta'lim shakllarini aniqlash bilan bog'liq.

Pedagogika va siyosatshunoslik o'rtasidagi bog'liqlik ta'lim siyosati har doim davlat partiyalari va sinflari mafkurasining aksi bo'lib, uni konseptual sxemalar va nazariyalarda takrorlaganligi bilan izohlanadi. Pedagogika insonning siyosiy ong subyekti sifatida shakllanish shartlari va mexanizmlarini, siyosiy g'oyalarni, munosabatlarni va siyosiy dunyoqarashni o'zlashtirish imkoniyatlarini aniqlashga intiladi.

Pedagogika va boshqa fanlar o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi pedagogikaning yangi tarmoqlari – chegaraviy ilmiy fanlarning bo'linishiga olib keladi. Bugungi kunda pedagogika pedagogik fanlarning murakkab tizimidir. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ta'limning asosiy qonunlarini o'rganadigan umumiy pedagogika; yosh pedagogikasi maktabgacha, maktab pedagogikasi, ta'lim va tarbiyaning yoshga bog'liq jihatlarini o'rganadigan kattalar pedagogikasi;

- korreksion (tuzatish) pedagogikasi;

- surdopedagogika – imo-ishora tili pedagogikasi (kar va eshitish qobiliyati pastlarni o'qitish va ovqatlantirish);

- tiflopedagogika (ko'zi ojiz va ko'zi ojizlarni o'qitish va tarbiyalash);

- oligofrenopedagogika (aqli zaif va aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash);

- logopediya nutq terapiyasi (nutqi buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash);

- shaxsiy o'quv fanlarini o'qitishda umumiy ta'lim qonuniyatlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan xususiy usullar (fan didaktikasi) ;

- turli davrlarda pedagogik g'oyalar va ta'lim amaliyotining rivojlanishini o'rganadigan pedagogika va ta'lim tarixi;

- sohalar bo'yicha pedagogika (umumiy, harbiy, sport, oliy ta'lim, sanoat va boshqalar).

Pedagogika fanida tabaqalashtirish jarayoni davom etmoqda. So‘nggi yillarda uning ta’lim falsafasi, kreativ pedagogika, badiiy pedagogika, tibbiyot pedagogikasi va boshqa ko‘plab tarmoqlari mavjud.

4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi

Pedagogika muammolarini tadqiq qilish fanlararo yondashuvni va inson haqidagi boshqa fanlar ma’lumotlaridan keng foydalanishni talab qiladi. Pedagogikaning paydo bo‘lishi va shakllanishiga falsafa, psixologiya, biologiya, antropologiya, tibbiyot, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi fanlar katta ta’sir ko‘rsatgan va ular pedagogika bilan o‘zaro mustahkam bog‘langan.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan to‘rt xil shaklda aloqadorligini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) pedagogikaning boshqa fanlar g‘oyalari, nazariyalari va umumlashgan xulosalaridan foydalanishi;
- 2) pedagogikaning boshqa fanlar tadqiqot metodlarini ijodiy o‘zlashtirishi;
- 3) pedagogikaning boshqa fanlar tadqiqotlari natijalaridan foydalanishi;
- 4) insonni majmuiy tadqiq etishda pedagogikaning ishtirok etishi.

Pedagogikaning *falsafa* bilan o‘zaro aloqadorligi hammadan ko‘p uzoq vaqt davom etgan va mahsuldor hisoblanadi. Zero, falsafiy g‘oyalar pedagogik konsepsiyalar va nazariyalarning yaratilishiga metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan va odamning bu olamda tutgan o‘rnini tushunishga imkon bergan. Pedagogik ishlanishlar yo‘nalishlari pedagog tadqiqotchilar tayanadigan falsafiy qarashlar tizimiga bog‘liqdir.

Pedagogikaning *psixologiya* bilan aloqadorligi an’anaviy hisoblanadi. Barcha mashhur pedagoglar inson tabiatining xususiyatlarini, uning tabiiy ehtiyojlari va imkoniyatlarini tushunish hamda ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etishda shaxs ruhiy (psixik) faoliyati va rivojlanishi qonunlarni inobatga olish lozim, deb hisoblaganlar.

Insonning kamol topishida tabiiy va ijtimoiy omillarning o‘zaro aloqadorligi va nisbati pedagogikaning markaziy muammolaridan biri sanaladi. U odamning tabiiy, o‘ziga xos rivojlanishini o‘rganuvchi *biologiya* uchun ham g‘oyat muhimdir.

Shuningdek, pedagogika biologiyaning muhim tarmog‘i hisoblangan *fiziologiya* bilan mustahkam bog‘langan. Ta’lim oluvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini boshqarish mexanizmlarini tushunish uchun odam organizmi, uning ayrim a’zolari va tizimlarining hayot faoliyati qonuniyatlarini bilish talab etiladi. Oliy asab faoliyati qonuniyatlarini bilish shaxsni eng maqbul kamol toptirishga ko‘mak beruvchi rivojlantiruvchi va o‘rgatuvchi ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Pedagogika odamni tabiiy-biologik va ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida qarab chiqar ekan, inson haqidagi bilimlarni umumlashtiruvchi *antropologiya* fani imkoniyatlariga tayanadi.

Pedagogikaning *tibbiyot* bilan aloqasi natijasida rivojlanishida tug‘ma va orttirilgan og‘ishlar (nuqsonlar) bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish masalalarini o‘rganadigan korreksion pedagogika paydo bo‘lgan.

Pedagogikaning *sotsiologiya* bilan aloqadorligi ta’lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda, aholining u yoki bu guruhlari yoki qatlamlari rivojining asosiy yo‘nalishlari hamda shaxsni turli xil ijtimoiy institutlarga ijtimoiylashtirish va tarbiyalash qonuniyatlarini aniqlashda namoyon bo‘ladi.

Pedagogikaning *siyosatshunoslik* bilan aloqadorligi shu bilan shartlanganki, ta’lim-tarbiya siyosati hamisha jamiyatda hukmron bo‘lgan mafkuraning ifodasi hisoblanadi.

Pedagogika bilan *iqtisodiy fanlar* o‘rtasidagi munosabat birmuncha murakkab. Iqtisodiy siyosat hamisha jamiyatning o‘qimishlilik darajasini yuksaltirish sharti hisoblangan. Pedagogikaning rivojlanishida bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni iqtisodiy rag‘batlantirish muhim omil sanaladi. Bu fanlarning o‘zaro aloqadorligi ta’lim va tarbiya sohasida iqtisodiy qonunlar qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadigan ta’lim-tarbiya iqtisodiyoti kabi bilim sohasining ajralib chiqishiga olib kelgan.

Pedagogika bilan *matematika* va *kibernetika* o‘rtasidagi aloqadorlik (ehtimollar nazariyasi, matematik statistika, avtomatlashtirish nazariyasi) zamonaviy pedagogik muammolarni mazkur fanlar tushuntirishidan foydalanib hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi (ta’lim jarayonini modellashtirish, dasturlashtirilgan ta’lim va h.k.).

5. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish.

Pedagogika sohasidagi tadqiqotlar deganda ta’lim qonuniyatlari, uning tuzilishi va tashkil etilishi, mazmuni, tamoyillari va texnologiyalari to‘g‘risida yangi bilimlarni olishga qaratilgan ilmiy faoliyat jarayoni va natijasi tushuniladi. Pedagogik tadqiqotlar fakt va hodisalarni tushuntiradi va bashorat qiladi

Yo‘nalishiga ko‘ra pedagogik tadqiqotlarni fundamental, amaliy va ishlanmalarga bo‘lish mumkin. Fundamental tadqiqotlar o‘z natijalariga ko‘ra pedagogikaning nazariy va amaliy yutuqlarini umumlashtiradigan yoki pedagogik tizimlarni bashoratli asosda rivojlantirish modellarini taklif qiladigan umumlashgan konsepsiyaga ega. Amaliy tadqiqotlar- bu pedagogik jarayonning individual tomonlarini chuqur o‘rganishga, ko‘p qirrali pedagogik amaliyot qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan ishdir.

Ishlanmalar allaqachon ma'lum bo'lgan nazariy qoidalarni hisobga olgan holda aniq ilmiy va amaliy tavsiyalarni asoslashga qaratilgan. Har qanday pedagogik tadqiqot umumiy qabul qilingan metodologik parametrlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Bularga muammo, mavzu, o'rganish ob'ekti va mavzusi, maqsadi, vazifalari, gipotezasi va izlanayotgan pozitsiyalari kiradi. Pedagogik tadqiqotlar sifatining asosiy mezonlari dolzarblik, yangilik, nazariy va amaliy ahamiyatga ega mezonlardir.

Tadqiqot dasturi, qoida tariqasida, ikkita bo'limdan iborat – uslubiy va protsedurali. Birinchisi, mavzuning dolzarbligini asoslash, muammoni shakllantirish, obyekt va mavzuni aniqlash, tadqiqotning maqsad va vazifalari, konseptual tushunchalarni shakllantirish (kategorial apparat), tadqiqot ob'ektini dastlabki har tomonlama tahlil qilish va ishchi gipoteza (faraz)ni ko'rsatish. Ikkinchi bo'limda kuzatuvning strategik rejasi, shuningdek, dastlabki ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishning rejasi va asosiy protseduralari (tartiboti) ochib berilgan.

Tadqiqot mavzusini aniqlashda eng ishonarli asos bu shoshilinch yechimlarni talab qiladigan, yeng keskin, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni aks yettiruvchi ijtimoiy buyurtmadir. Ammo bu yetarli yemas, bu ijtimoiy buyurtmadan ma'lum bir mavzuni asoslashga mantiqiy o'tishni, nima uchun mazkur tadqiqot uchun aynan shu muammo olinganligini tushuntirishni talab qiladi. Bu odatda fanda muammoning ishlab chiqilganlik darajasini tahlil qilishdir.

Agar ijtimoiy buyurtma pedagogik amaliyotni tahlil qilishdan kelib chiqsa, unda ilmiy muammoning o'zi boshqa mazmunda bo'ladi. U ilm-fan yordamida hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy qarama-qarshilikni ifodalaydi. Ilmiy muammoni belgilash-bu maxsus qarash, maxsus bilim, tajriba va ilmiy malakani talab qiladigan ijodiy harakatdir.

Muammoni shakllantirish o'rganish ob'ektini tanlashni talab qiladi, bu pedagogik jarayon yoki pedagogik voqelik sohasi yoki qarama-qarshilikni o'z ichiga olgan har qanday pedagogik munosabat bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ob'ekt aniq yoki bilvosita qarama-qarshilikni o'z ichiga olgan va muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan har qanday narsa bo'lishi mumkin.

Tadqiqotning yangiligi ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Tadqiqotning nazariy ahamiyati konsepsiyani yaratish, farazlar, qonuniyatlar, usullar, modellar, yondashuvlarni yoritish, muammo, tendensiya, yo'nalishlarni aniqlash va tizimni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning amaliy ahamiyati takliflar, tavsiyalar va boshqalarni tayyorlashdan iborat.

Yangilik, nazariy va amaliy ahamiyat mezonlari tadqiqot turiga qarab o'zgaradi, ular yangi bilimlarni olish vaqtiga ham bog'liq.

6. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish.

Pedagogik voqelikdagi hodisalar va jarayonlarni o‘rganish, pedagogik qonun va qonuniyatlarni aniqlash zaruriyati *ilmiy pedagogik tadqiqotlar* o‘tkazish ehtiyojini yuzaga keltiradi. *Ilmiy pedagogik tadqiqot* – yangi pedagogik bilimlarni shakllantirish jarayoni; ta’lim, tarbiya va shaxs kamoloti-ning ob’ektiv qonuniyatlarini ochishga yo‘naltirilgan bilish faoliyatining bir turi. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarda qo‘yilgan maqsadlarga muvofiq fundamental, amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar farqlanadi.

Fundamental (muhim) tadqiqotlar - ma’rifiy (ta’lim, tarbiya va sh.k.) jarayonlarning qonuniyatlarini ochib beradigan, ilmiy bilimlarni chuqurlashtirishga, fan metodologiyasini rivojlantirishga, uning yangi sohalarini ochishga yo‘naltirilgan va bevosita amaliy maqsadlarni ko‘zlamaydigan tadqiqotlardir.

Amaliy tadqiqotlar – ta’lim va tarbiya mazmunini shakllantirish hamda pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq ayrim nazariy va amaliy muammolarni hal qiladigan tadqiqotlardir. Amaliy tadqiqotlar fan va amaliyotni, fundamental tadqiqotlar va ishlanmalarni bir-biriga bog‘laydi.

Ishlanmalar – ta’lim va tarbiya, o‘quvchilar va o‘qituvchilar faoliyatini tashkil etish shakllari va metodlari, shuningdek ma’rifiy tizimlarni boshqarish bo‘yicha dasturlar, darsliklar, qo‘llanmalar, o‘quv-metodik tavsiyalar yaratishga qaratilgan tadqiqotlardir.

Pedagogik jarayonlarning kechishi o‘ziga xosligi va noaniqligi bilan ajralib turadi – har bir pedagogik jarayon takrorlanganda avvalgisidan mut-laqo farq qiladi – shuning uchun pedagogikada aniq ilmiy-tajriba o‘tkazish deyarli mumkin emas va olingan xulosalar har doim yetarli darajada shartli va nisbiy xususiyatga ega bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotning asosiy tarkibiy qismlari:

1) tadqiqot mavzusi – o‘rganilayotgan sohaning qisqa va aniq cheklangan jihati. Mavzu dolzarb bo‘lishi, ya’ni uni shakllantirish davrning obyektiv talablari bilan belgilanishi va o‘rganilayotgan masala bo‘yicha fan oldin ishlab chiqilgan javobga ega bo‘lmasligi kerak;

2) tadqiqot obyekti - izlanish doirasi (sohasi). Bu ob’ektlar pedagogik tizimlar, hodisalar, jarayonlar (ma’rifat, ta’lim, tarbiya, shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, kamol topishi va sh.k.) bo‘lishi mumkin;

3) tadqiqot predmeti – obyekt ichidagi izlanish sohasining cheklangan jihati; o‘rganilayotgan hodisalar, tarkibiy qismlar, aloqalar va munosabatlar majmuining kechishi yoki amalga oshishi jarayonlari; obyektning yechim talab qilayotgan muammosi sohasidagi tarkibiy qismlar va munosabatlar majmui hisoblanadi;

4) tadqiqot muammosi – javob berilishi kerak bo‘lgan savol (masala); o‘rganilayotgan hodisada noma’lum bo‘lgan narsani aniq ifoda qilish (ta’riflash);

5) tadqiqotning maqsadi – tadqiqotning asosiy g‘oyasi (rejasi, mo‘ljali); tadqiqot yakunida olinishi kerak bo‘lgan ilmiy natija. Sabab-oqibat bog‘lanishlari va qonuniyatlarni ochish, nazariyalar va metodikalar yaratish;

6) tadqiqotning vazifalari – tadqiqotning oldindan mo‘ljallangan, cheklangan natijasi (o‘rganish, aniqlash, ochish, umumlashtirish, tajriba-sinov ishida tekshirish va baholash kabilar).

Pedagogik tadqiqotning bir necha darajasi farqlanadi.

1) empirik (amaliy) darajasi – unda yangi ilmiy dalillar topiladi va empirik qonuniyatlar paydo bo‘ladi; amaliy o‘rganish jarayonida olingan pedagogik dalillarni to‘plash, tanlash, taqqoslash, fikran tahlil va sintez qilish, miqdoriy va sifatiiy qayta ishlash kabilar amalga oshiriladi;

2) nazariy darajasi – unda ilgari topilgan dalillarni tushuntirish-ga, bo‘lg‘usi voqealar va dalillarni oldindan bilish va aytishga imkon beruvchi asosiy, umumiy pedagogik qonuniyatlar ilgari suriladi va shakllantiriladi;

3) metodologik darajasi – empirik va nazariy tadqiqotlar asosida pedagogik hodisalarni o‘rganish va nazariyalar yaratishning umumiy tamoyillari va metodlari shakllantiriladi. Ushbu darajadagi tadqiqotlar fundamental tadqiqotlar deb ataladi. Ular tadqiqot sohasiga katta ilmiy hissa qo‘shadi.

Ilmiy pedagogik tadqiqotlar tuzilmasi va mantig‘i:

1 bosqich. Tadqiqot muammosi bilan umumiy tanishish asosida uning dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi asoslanadi; tadqiqot mavzusi, obyekti va predmeti aniqlanadi; tadqiqotning umumiy va oraliq maqsadlari, ular bilan bog‘liq vazifalar shakllantiriladi.

2 bosqich. Tadqiqotning ilk ilmiy konsepsiyasi (metodologiyasi), uning borishini belgilovchi tayanch nazariy qoidalar va ko‘zda tutilgan natijalar (mo‘ljallar) hamda tadqiqiy yondashuvlar tanlanadi.

3 bosqich. Tadqiqotning nazariy tuzilishi va chinligini isbotlashi lozim bo‘lgan amaliy faraz ilgari suriladi.

4 bosqich. Tadqiqot metodlari tanlanadi; tadqiqot predmetining dastlabki holatini aniqlash maqsadida ta’kidlovchi ilmiy-tajriba o‘tkaziladi.

5 bosqich. Shakllantiruvchi ilmiy-tajriba tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

6 bosqich. Tadqiqot natijalari tahlil qilinadi, izohlanadi va rasmiylashtiriladi.

7 bosqich. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Pedagogik tadqiqotlar o‘ziga xos metodlardan foydalangan holda amal-ga oshiriladi. **Tadqiqot metodi** – bu qo‘yilgan maqsadga erishish yoki obyektiv voqelikni bilish usulidir. Tadqiqotchi metodlardan foydalanib, o‘rganilayotgan predmet haqida axborot (ma’lumot) oladi. Har bir fan o‘rganilayotgan hodisalarning

xususiyatlarini aks ettiruvchi o'z metodlaridan foydalanadi. **Pedagogik tadqiqot metodlari quyidagi xususiyatlar** bilan shartlanadi:

1) ta'lim va tarbiya natijalari juda ko'p sabab va sharoitlarning bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatishiga bog'liq bo'ladi. Pedagogik jarayonlarning bir ma'noga ega bo'lmagan, ya'ni har xil tabiati fanga ma'lum bo'lgan metodlarni qo'llash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli pedagogik tadqiqotlarda metodlar majmuidan foydalaniladi;

2) pedagogik jarayonlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Pedagog-tadqiqotchida "toza" tajriba-sinov ishlarini o'tkazish imkoniyati yo'q. Qayta, ikkinchi bor tadqiqot o'tkazilganda oldingi shart-sharoit va "material"ni asliday qaytarish, ya'ni qanday bo'lsa, xuddi shunday tiklash hech qachon mumkin bo'lmaydi;

3) pedagogik tadqiqotda asosiy tendensiya e'tiborga olinadi, xulosalar umumlashtirilgan shaklda tuziladi;

4) pedagogik tadqiqotlar bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligiga, ularni o'qitish va tarbiyalash jarayoniga zarar yetkazmasdan amalga oshirilishi kerak.

Pedagogik tadqiqot metodlari – ta'lim, tarbiya va shaxs kamolotining obyektiv qonuniyatlarini bilish, chin, ishonchli bilimlar olish va aniq ilmiy natijalarga erishish usullaridir.

Pedagogik tadqiqot metodikasi – pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va boshqarish usullari, ularni qo'llash tartibi va muayyan ilmiy maqsadga erishishda olingan natijalarni sharhlashning tartibga solingan majmui.

Pedagogik tadqiqot metodlari bir necha guruhlariga bo'linadi: ilmiy axborotlar bilan ishlash metodlari, umumilmiy metodlar va xususiy-ilmiy metodlar guruhi.

I. Ilmiy axborotlar bilan ishlash metodlari guruhiga axborotlarni izlash (ma'lumotlarni olish) metodlari, olingan axborotlarni (ma'lumotlarni) qayta ishlash metodlari, ilmiy axborotlarni (ma'lumotlarni) tizimlashirish va saqlash metodlari kiradi.

1. Axborotlarni izlash metodlari ilmiy ma'lumotlarni qidirish, ya'ni ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ilmiy ma'lumotlarni izlab topishga yo'naltiriladi. Nashr etib tarqatiladigan monografiyalar, sharhlar (umumlashtirilgan qisqacha ma'lumot), maqolalar, ma'ruzalar, taqrizlar, ocherklar, avtoreferatlar, referatlar, ma'ruzalar va xabarlar tezislari kabilar *ilmiy asarning* asosiy shakllari hisoblanadi.

Asosiy ilmiy matnlarning qisqa tavsifini ko'rib chiqamiz:

1) **monografiya** – bu bitta yoki bir necha mualliflarning yagona nuqtai nazariga asoslangan ilmiy ishi bo'lib, unda muayyan muammo yoki mavzu to'liq o'rganiladi. Monografiyada muayyan masala bo'yicha adabiyotlar umumlashtirilib,

tahlil qilinadi va fan rivojiga hissa qo'shadigan yangi farazlar va yechimlar taklif qilinadi. Monografiyada odatda keng qamrovli bibliografik ro'yxat mavjud bo'ladi;

2) **risola** – kichik hajmdagi nodavriy bosma nashr (xalqaro amaliyotda kamida 5 va ko'pi bilan 48 betlik) bo'lib, odatda ilmiy-ommabop xususiyatga ega bo'ladi;

3) **ilmiy ishlar to'plami** – ilmiy muassasalar, jamiyatlar va o'quv yurtlarining tadqiqot materiallarini o'z ichiga olgan to'plam;

4) **maqola** - kichik o'lchamli ilmiy ish (asar) bo'lib, unda muammoning dolzarbligi, nazariy va amaliy ahamiyati o'tkazilgan tadqiqot metodikasi va natijalari bilan birga tavsiflangan holda qarab chiqiladi. Maqolalar asosan jurnallarda chop etiladi;

5) **tezislar** – ilmiy ma'ruza mazmunining qisqa bayoni;

6) **o'quv qo'llanma** – o'quv dasturlarida nazarda tutilgan va darsliklarda bayon etilgan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va yaxshiroq o'zlashtirishga mo'ljallangan o'quv kitobi; darslikni to'ldiradi yoki uning o'rnini qisman yoki to'liq bosadi.

Kerakli adabiyotlarni izlash uzoq vaqt talab qiladigan ish. Uning ahamiyati juda katta, chunki o'quv-tadqiqiy ishlarning sifati nashr qilingan materialning to'liq o'rganilishiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha umumiy ma'lumotlarni olgandan so'ng kutubxona kataloglariga kirish mumkin.

Kutubxona katalogi – kutubxona yoki axborot markazi fondining tarkibi va mazmunini ochib beruvchi hujjatlarga bibliografik yozuvlarning muayyan qoidalarga muvofiq joylashtirilgan to'plami. Kutubxona katalogi kartochkalar yoki kompyuterda o'qiladigan shaklda ishlashi mumkin.

Kataloglarning quyidagi turlari farqlanadi: alifboli, mavzuli, tizimli va yangi adabiyotlar katalogi.

Alifbo tartibidagi katalogga kerakli manbaning nomi va muallifining ismi-sharifi ma'lum bo'lsa, murojaat etiladi.

Mavzuli katalog – mavzu sarlavhalari alifbo tartibida joylashtirilgan bibliografik yozuvli kutubxona katalogi.

Tizimli katalogda kitoblar nomi bo'limlar sarlavhasi va kichik sarlavhalari bo'yicha guruhlanadi, biroq sarlavhaning o'zi, mavzuiy katalogdan farqli o'laroq, alifbo tartibida emas, balki fanlar tizimi bo'yicha joylashtiriladi.

Kutubxonada kataloglarni diqqat bilan o'rganish kerak bo'ladi. Qisqa va aniq katalog kartochkalarida ko'p ma'lumotlar bo'ladi: muallifning familiyasi, kitobning nomi, qo'shimcha sarlavha, nashrni tayyorlagan ilmiy muassasa, nashriyot nomi, kitob chop etilgan yil va sahifalar soni. Kerakli manbalar bo'yicha kartochkalardan nusxa ko'chiriladi. Shu asosda *bibliografik ro'yxat* tuziladi.

Bibliografik tavsifni tuzishning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- 1) bir muallifli kitobning bibliografik tavsifi;
- 2) ikki yoki undan ortiq muallifli kitobning bibliografik tavsifi;
- 3) jurnal yoki gazeta maqolalarining bibliografik tavsifi;
- 4) ilmiy ishlar to'plamlarining bibliografik tavsifi;
- 5) dissertatsiya avtoreferatlarining bibliografik tavsifi.

2. Ilmiy adabiyotlarni o'qish. O'quv va ilmiy adabiyotlar bilan muvaffaqiyatli ishlash uchun *o'qish madaniyatini* egallash kerak bo'ladi. O'qish madaniyati quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'qishning muntazamligi, o'qish tezligi, o'qish turlari, axborot-qidiruv tizimlari va kutubxona kataloglari bilan ishlash ko'nikmasi, o'qishning maqsadga muvofiqligi, yozuvlarning har xil turlarini yuritish ko'nikmasi.

Tadqiqotchi uchun *o'qish maqsadlarini* aniqlash ko'nikmasi hamda har xil *o'qish turlarini* egallash juda muhim hisoblanadi.

Quyidagi o'qish maqsadlari farqlanadi:

- 1) *axborot izlash maqsadi* – kerakli ma'lumotlarni topish;
- 2) *axborotni o'zlashtirish maqsadi* - topilgan ma'lumot va fikrlar mantig'ini tushunish, anglash;
- 3) *tahliliy-tanqidiy maqsad* – matnni tushunish va unga o'zining munosabatini aniqlash;
- 4) *ijodiy maqsad* – ma'lumotni tushunish, anglash asosida uni to'ldirish va rivojlantirish.

Mutaxassislar ko'pincha o'qishning uchta *asosiy turi* haqida gapirishadi:

- 1) *tanishish (ko'rib chiqish) uchun o'qishi* – kitob, maqola bilan oldindan tanishish uchun foydalaniladi. Asosiy vazifasi – kitobda zarur ma'lumotlar mavjudligini (bor-yo'qligini) aniqlash;
- 2) *oralatib (tanlab) o'qish* – agar biron bir ma'lumotni batafsil aniqlash zaruriyati paydo bo'lsa, ikkinchi bor o'qish uchun qo'llaniladi. Bunday holda kitobning (matnning) faqat kerak bo'lgan qismiga e'tibor qaratiladi;
- 3) *chuqur o'qish* – uning asosiy vazifasi o'qilgan matnni tushunish va eslab qolishdir. Bunda tafsilotlarga e'tibor qaratiladi, ma'lumotlar tahlil etiladi va baholanadi. Bu puxta o'ylashni talab qiladigan o'qishning jiddiy turidir.

Samarali o'qish uchun matnni qarab chiqish, tahlil qilish, faol o'qish va undagi fikrni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. *O'qish samaradorligi* materialni o'zlashtirish darajasi va unga sarflangan vaqt miqdori bilan belgilanadi. Tez o'qish – tadqiqotchi uchun muhim ko'nikma. O'qishning o'rtacha tezligi minutiga 200-250 so'zni tashkil etadi. Biroq minutiga 1000-1200 so'zni o'qiy

oladigan odamlar ham bor. O‘qish tezligini oshirish uchun quyidagilarga e‘tibor qaratish kerak:

1) talaffuz qilmasdan o‘qish – ichki nutq o‘qish tezligini sezilarli darajada kamaytiradi;

2) satr bo‘ylab emas, balki sahifaning o‘rtasiga ko‘zlar bilan sirg‘anib, yuqoridan pastga qarab o‘qish;

3) so‘zlar bilan emas, balki ko‘rish maydonini kengaytirib, butun satrlar bilan o‘qish;

4) o‘qilgan so‘zlar, iboralarga takror qaytmasdan o‘qish;

5) diqqat va qiziqish bilan o‘qish.

3. Olingan ma‘lumotlarni qayd etish metodlari. Axborot (ma‘lumot) muayyan doiradagi vazifalarni hal qilish uchun ishlatilsa, vaqt va makonda tarqalishi mumkin bo‘lsa, resurs - manbaga aylanadi. Boshqacha aytganda, axborot uni tashuvchida (qog‘oz, elektron) qayd etilgan vaqtdan boshlab, resursga (manbaga) aylanadi.

Axborot – ma‘lumotlarni birlamchi qayd etish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin: kitobda so‘zlarning tagini qizil qalam bilan chizib qo‘yish, kitob xoshiyalariga qalam bilan belgilar qo‘yish.

Kitob xoshiyalariga qalam bilan belgi qo‘yishda quyidagi belgilardan foydalanish mumkin:

! - juda muhim;

? - shubhali, aniq emas;

v – asosiy, e‘tibor qaratish;

= - xulosa, yakun, natija;

k – ko‘chirib olish va sh.k.

Axborot – ma‘lumotlarni yozuvlar: rejalar, tezislar, matnlar ko‘rinishida ham qayd etish mumkin.

Reja – qandaydir bayonning (ifodaning) qisqacha dasturi; siqilgan shaklda qisqacha bayon qilingan fikr-sarlavhalar to‘plami matnning ma‘noli tuzilmasini anglatadi. Reja – matnning “skeleti” bo‘lib, u materialni taqdim etish ketma-ketligini ixcham aks ettiradi. Reja shaklidagi yozuvlar o‘qilgan mazmuni xotirada tiklash uchun juda muhimdir.

Reja tuzishdagi hatti-harakatlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1) matnni ko‘rib chiqish va uni tugallangan ma‘noli qismlarga ajratish. Bunda matn paragraflari mo‘ljall bo‘lib xizmat qilishi mumkin, ammo ma‘noli qismlar chegaralari har doim ham ular bo‘ylab o‘tmaydi;

2) kalit so‘zlar va iboralarga tayangan holda har bir ma‘noli qismdagi asosiy fikrni aniqlash va uni shakllantirish;

3) ifoda qilingan iborani (ta'rifni, izohni) aniqlash va ularni ketma-ket yozish. Agar har bir ma'noli qismga savollar qo'yilib yozilsa, savolli reja paydo bo'ladi.

Tezislar – qandaydir g'oyani yoki kitobdagi asosiy fikrlardan birini qamrab oluvchi qoidalar. Tezislar tasdiqlash yoki rad etish shaklida ifodalanishi mumkin. Tezislar mazmunni ochib berish, eslash yoki aytish lozim bo'lgan narsalarga mo'ljallanish imkonini beradi.

Tezislar yozishdagi hatti-harakatlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) matnning har bir paragrafida ma'noga ega bo'lgan asosiy jummalarni ajratib ko'rsatish;

2) tanlangan jumlar asosida paragrafdagi asosiy g'oyani umumiy jumla bilan ifodalash;

3) asosiy g'oyalarni tasniflash va shakllantirish.

Ko'chirmalar – matnning parchasi bo'lib, kitob yoki jurnaldan biron bir kerakli, muhim joyini ko'chirib (yozib) olish. Turli manbalardan materiallar to'plash zaruriyati tug'ilganda asosan ko'chirmadan foydalaniladi. Ko'chirmalar matn to'liq o'qilgandan va tushunarli bo'lgandan keyin olinadi. Ko'chirmalar so'zma-so'z yoki erkin shaklda yozilishi mumkin.

Matn tuzish (yozish) – ma'ruza, kitob yoki maqola mazmunining qisqa izchil bayoni. Uning asosini reja, tesis va ko'chirmalar tashkil etadi. Matn, tezislardan farqli o'laroq, nafaqat asl fikrlarni, balki ular orasidagi bog'liqlikni ham aks ettiradi. Matnlashtirishning har xil turlari va usullari mavjud. Kitob yoki maqola matnini ketma-ket yozib olish eng keng tarqalgan usullardan biridir. Bunday matnda axborot mantig'i va hajmi to'liq bo'ladi. Matnlar rejali yozilishi ham mumkin.

Matnlashtirishning har qanday turida quyidagilarni unutmaslik kerak:

1) yozuvlar zich, mayda bo'lishi, sahifada iloji boricha ko'proq matn joylashtirilishi kerak, bu uni tahlil qilishda qulaylik tug'diradi;

2) yozuvlarni qo'shimcha (kichik) sarlavhalarga, xat (satr) boshiga, oraliq qatorlarga bo'lish foydali bo'lib, ular yozuvni tashkil qiladi;

3) bezatish vositalaridan foydalanish kerak (matndagi so'zlar ostiga chizib qo'yish, daftar xoshiyasiga belgilar qo'yish, qonunlar, qonuniyatlar va asosiy tushunchalarni doira ichiga olish, yozayotganda har xil ranglardan foydalanish, turli shriftlarda yozish);

4) matn uchun mo'ljallangan daftarning betlarini raqamlash va mundarijasini qilish mumkin. Bunday holda zarur ma'lumotlarni tez topish mumkin bo'ladi.

4. Axborotni tizimlashtirish va saqlash. Manbalar bilan ishlashda to'plangan zarur materiallarni tanlash va saqlash kerak bo'ladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari ma'lumotlarni tizimlashtirish va saqlashda katta imkoniyatlarga ega.

Kompyuterda qoidalardan foydalanib, tadqiqot ishining axborot makonini tashkil etish mumkin.

II. Umumilmiy metodlar guruhi quyidagi metodlarni o‘z ichiga oladi (2.14-rasm):

- 1) *umumnazariy metodlar* - tahlil qilish, sintez qilish, induksiyalash, deduksiyalash, taqqoslash, mavhumlashtirish metodlari;
- 2) *sotsiologik metodlar* - so‘rovnoma, intervyu, reyting metodlari;
- 3) *ijtimoiy-psixologik metodlar* - sotsiometrik, trening metodlari;
- 4) *matematik-statistik metodlar* - qayd etish, bo‘ysiralash, shkalalash, taqqoslash metodlari.

III. Xususiy-ilmiy metodlar guruhi quyidagi metodlarni o‘z ichiga oladi (2.14-rasm):

- 1) *nazariy metodlar* - adabiyotlar va hujjatlarni o‘rganish, tushuncha-terminologiya tizimini tahlil qilish, amaliy faraz tuzish, ilmiy-tajribani fikran shakllantirish, modellashtirish metodlari;
- 2) *empirik metodlar* - kuzatish, tajribani o‘rganish, suhbat, o‘quvchilar ijodi mahsulini o‘rganish, pedagogik test sinovi, pedagogik konsilium, ilmiy-pedagogik safar, pedagogik ilmiy-tajriba metodlari.

Quyida ayrim *metodlar* tavsifi keltiriladi:

1) *kuzatish* – qandaydir pedagogik hodisani aniq bir maqsadni ko‘zda tutgan holda idrok qilish, o‘zlashtirish. *Kuzatish bosqichlari*: maqsadi va vazifalarini aniqlash (nima uchun kuzatish kerakligi); obyektini, predmetni va vaziyatni tanlash (nimani kuzatish kerakligi); kuzatish usulini tanlash (qanday kuzatish kerakligi); kuzatish natijalarini qayd etish usullarini tanlash (qanday yozib borish kerakligi); olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va izohlash (qanday natija olinganligi);

2) *tajribani o‘rganish* – o‘quv-tarbiya tizimlaridagi umumiy, barqaror xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish, tarixiy bog‘lanishlar o‘rnatishga yo‘naltirilgan tashkiliy bilish faoliyati; ijodiy ishlayotgan pedagogik jamoa va ayrim o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish;

3) *o‘quvchilar ijodi mahsulini o‘rganish* (barcha o‘quv fanlari bo‘yicha uy va sinf ishlari, insholar, referatlar). O‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, moyillik va qiziqishlari, o‘qishga, ishga va o‘z burchiga munosabatlari, faoliyat motivlari va boshqa sifatlari o‘quvchilar ijodi mahsulini o‘rganish orqali aniqlanadi;

4) suhbat – pedagogik tadqiqotlarning an’anaviy metodi bo‘lib, u orqali shaxsning munosabati, his-tuyg‘usi, o‘y-maqsadi, fikr-bahosi va nuqtai nazari aniqlanadi. Suhbat tadqiqot metodi sifatida tadqiqotchining suhbatdoshi ichki dunyosiga aniq bir maqsad yo‘lida kirishga, uning qandaydir hatti-harakatlari sabablarini aniqlashga urinishini ifodaydi;

5) intervyu – suhbatning bir ko‘rinishi bo‘lib, tadqiqotchi oldindan tayyorlangan savollarga tayanib ish tutadi, savollar muayyan ketma-ketlikda berilib, intervyu olinadi;

6) test – o‘rganiladigan pedagogik jarayonning tavsifini obyektiv o‘lchashga imkon beruvchi, qattiq nazorat sharoitida o‘tkaziladigan, aniq bir maqsadni ko‘zda tutuvchi, barcha sinaluvchilar uchun bir xil bo‘lgan tekshirish. Test tekshirishning boshqa usullaridan aniqligi, soddaligi, hammabopligi, avtomatlashtirish imkoniyati borligi bilan farq qiladi;

7) so‘rovnoma - tadqiqot materialini maxsus ishlab chiqilgan savolnoma yordamida yalpi yig‘ish metodi. Pedagogik tadqiqotlarda so‘rov varaqasining quyidagi turlari keng qo‘llaniladi: a) mustaqil ravishda javob beriladigan ochiq so‘rovnoma; b) tayyor javoblardan bittasi tanlanadigan yopiq so‘rovnoma; v) nomi yozilgan (kimgadir mo‘ljallangan) va noma’lum (umumiy) so‘rovnoma; kirish va nazorat qilish so‘rovnomasi;

8) adabiyotlar va hujjatlarni o‘rganish – kitob va boshqa nashrlarning tizimli ilmiy tavsifini tuzish, referat yozish, matn tuzish, asarning qisqa mazmunini yozish, matndan parcha olish.

Pedagogik tadqiqotlarda miqdoriy metodlardan ham samarali foydalaniladi. Sifat – xususiyat, xossalar majmuini ifodalasa, miqdor – kattalik, miqyos, ko‘lamni belgilaydi.

Quyida ayrim miqdoriy metodlar tavsifi keltiriladi:

1) qayd etish – guruhning har bir a‘zosida muayyan sifatning mavjudligini aniqlash va kimda mazkur sifat borligi va yo‘qligini umumiy hisoblab chiqish (masalan, mashg‘ulotda faol yoki sust ishtirok etayotgan o‘quvchilar soni);

2) bo‘ysiralash (darajali baholash) – yig‘ilgan ma‘lumotlarni muayyan ketma-ketlikda joylashtirish (qaysidir ko‘rsatkichning o‘sishi va kamayishi tartibida) va shunga muvofiq har bir sinaluvchining bu qatordagi o‘rnini aniqlash (masalan, eng yaxshi deb hisoblangan sinfdoshlar ro‘yhatini tuzish);

3) shkalalash (o‘sib yoki kamayib boruvchi raqamlash) – pedagogik hodisalarning ayrim jihatlarini baholashda raqamli ko‘rsatkichlarni kiritish, tadqiq etilayotgan tavsiflarga ballar yoki boshqa raqamli ko‘rsatkichlarni berish. O‘lchov shkalalarining quyidagi turlari farqlanadi: nomli shkala; tartibli (darajali) shkala; oraliq shkala; munosabatlar shkalasi;

4) modellashtirish – hayolda tug‘ilib tavsiya etilgan yoki moddiy amalga oshgan tizimning ilmiy andazasi (modeli) bo‘lib, tadqiqot predmetini aynan bir xil aks ettiradi. Modelni o‘rganish bu obyekt haqida yangi ma‘lumotlar olishga imkon beradi. Modellashtirish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda qo‘llaniladi:

bilish faoliyati va o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish; ta'lim jarayonini tashxislash, bashoratlash va loyihalash.

Ilmiy-tajriba metodi ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari orasida alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy-tajriba – qandaydir ish metodi va uslubini, uning pedagogik samaradorligini aniqlash uchun maxsus tashkil etilgan tekshirish yoki sinovdan o'tkazish. Ilmiy-tajribada amaliy faraz – qandaydir yangidan kiritilgan tartib-qoidaning mumkin bo'lgan samaradorligi haqidagi taxmin tekshiriladi. Ilmiy-tajriba davomida bir qator metodlar majmuidan foydalaniladi.

Ilmiy-tajriba bosqichlari:

1) nazariy bosqich – muammo qo'yiladi, tadqiqotning maqsadi, obyekti va predmeti, vazifalari va amaliy farazi aniqlanadi;

2) metodik bosqich – tadqiqot metodikasi va uning rejasi, dasturi, olingan natijalarni ishlash metodlari ishlab chiqiladi;

3) haqiqiy ilmiy-tajriba bosqichi – bir qator tajribalar o'tkaziladi (tajribaviy vaziyat yaratish, kuzatish, tajribani boshqarish va sinaluvchida yaqqol ko'zga tashlanadigan o'zgarishlarni o'lchash).

4) tahliliy bosqich – olingan dalillarni miqdoriy va sifatiy tahlil qilish, izohlash, xulosalar va amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

Ilmiy-tajribada ko'zlangan maqsadlarga muvofiq uning bir necha turlari farqlanadi:

1) ta'kidlovchi (qayd etuvchi) ilmiy-tajriba – mavjud pedagogik hodisa o'rganiladi;

2) tekshiruvchi (aniqlovchi) ilmiy-tajriba – muammoni tushunib yetish jarayonida yaratilgan amaliy faraz tekshiriladi;

3) shakllantiruvchi (qayta o'zgartiruvchi) ilmiy-tajriba – yangi pedagogik hodisa loyihalanadi.

O'tkazilish o'rniga ko'ra tabiiy va laboratoriya ilmiy-tajribasi farqlanadi. Tabiiy ilmiy-tajriba maktab yoki sinfdagi ta'lim va tarbiyaning tabiiy sharoitida o'tkaziladi, laboratoriya ilmiy-tajribasida o'quvchilar maxsus guruhlarga (sinflarga) ajratiladi.

Demak, pedagog olimlar va amaliyotchi-pedagoglar o'rtasidagi mustahkam hamkorlik – pedagogika fanini ilmiy tadqiqotlar orqali muvaffaqiyatli rivojlantirishning muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Pedagogika fani o'z ichiga nimalarni qamrab oladi?
2. Pedagogika fanining obyekti va predmeti haqida fikrlaringizni izohlang.
3. Pedagogika fanining asosiy vazifalariga izohlang.
4. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kirishini aniqlang?

5. Pedagogikaning qaysi fanlar bilan aloqadorligini tushintirib bering.
6. Pedagogik fanlar tizimini shartli ravishda asosiy, yordamchi va mustaqil fan sohasi yo‘nalishlariga ajrating.
7. Pedagogika fani metodologiyasi tushunchasiga ta’rif bering.

MAVZU: SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI.

Tayanch iboralar: individ, shaxs, individuallik, rivojlanish, o‘shish, irsiyat, ijtimoiylashuv, tarbiya, muhit, pedagogik antropologiya, yosh davrlari.

1. “Individ” va “shaxs” tushunchasi.

Rivojlanish tabiat, jamiyat va insonning universal umumiy mulkidir. Rivojlanish odamlarga ham xosdir: shunga ko‘ra filogeniya (yunoncha “Filo”-qabila, jins, tur) - bu insonning tarixiy rivojlanishi va ontogenez (shaxsning tug‘ilishidan o‘limigacha rivojlanish) deb ataladi. Falsafa, psixologiya va pedagogikada ushbu tushunchaning turli xil ta’riflari berilgan. Falsafada rivojlanish-bu harakatning eng yuqori turi, materiya va ongdagi o‘zgarishlar; bir holatdan ikkinchisiga, eskidan yangisiga o‘tishdir.

Psixologiyada “rivojlanish” atamasi har qanday o‘zgarish – progressiv (strukturaning murakkablashishi) yoki regressiv (tuzilishni soddalashtirish) haqida gap ketganda qo‘llaniladi. Masalan: xotira, diqqat, hissiy sohani rivojlantirish va boshqalar. Pedagogikada rivojlanish deganda shaxsning bir yosh bosqichidan ikkinchisiga miqdoriy va sifatiy o‘zgarishlari tushuniladi.

Rivojlanish – bu tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarib bo‘lmaydigan omillar ta’siri tufayli inson tanasida, psixikasida, intellektual va ma’naviy sohada miqdoriy va sifatiy o‘zgarishlar jarayoni. Inson hayotida biologik va ijtimoiy rivojlanish sodir bo‘ladi.

Morfologik, fiziologik, psixik, ya’ni biologik o‘zgarish bo‘lsa “rivojlanish” atamasi, agar axloqiy, ma’naviy, ijtimoiy o‘zgarish bo‘lsa – “shakllanish” atamasi ishlatiladi. Inson deyarli biologik mavjudot sifatida tug‘ilib, rivojlanish jarayonida ijtimoiy mavjudotga, shaxsga aylanadi. Shakllanish-bu irsiyat, atrof-muhit, maqsadli tarbiya va shaxs faolligining ob’ektiv ta’siri natijasida insonning shaxsga aylanish jarayonidir.

Inson taraqqiyoti va uning shaxs sifatida shakllanishi haqida uchta tushuncha (nazariya) mavjud:

1. Biologik konsepsiya shaxsni tabiiy mavjudot deb hisoblaydi, insonning barcha xatti-harakatlarini tug'ilishdan boshlab unga xos bo'lgan ehtiyojlar, qiziqishlar va instinktlar harakati bilan izohlaydi (Z. Freyd va boshq.).

Ularning qarashlari: inson ijtimoiy tabiiy mavjudot; shaxsning ma'naviy xususiyatlari biologik asosga ega; xulq-atvordagi rivojlanish tug'ma ehtiyojlar, instinktlar, shuningdek, inson moslashishga majbur bo'lgan tashqi tomondan belgilangan talablar bilan belgilanadi; tarbiya faqat tabiiy rivojlanish jarayonini tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi.

2. Sotsiologik konsepsiya quyidagilarni ko'rib chiqadi: inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, lekin hayoti jarayonida u asta-sekin atrof-muhit, birinchi navbatda u bilan muloqot qiladigan, uning yaqin atrofini tashkil etadigan ijtimoiy guruhlar ta'siri ostida ijtimoiylashadi; atrof-muhit shaxsni shakllantirishning hal qiluvchi omili hisoblanadi; tarbiya atrof-muhit ta'sirini to'g'rilaydi; shaxsning rivojlanish darajasi qanchalik past bo'lsa, uning biologik xususiyatlari yanada aniq va keskin namoyon bo'ladi, birinchi navbatda, egalik qilish, yo'q qilish, jinsiy va hokazo instinktlar.

3. Biosotsial tushuncha: inson ham biologik, ham ijtimoiy mavjudotdir; psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash va boshqalar.) biologik xususiyatga ega; shaxsning yo'nalishi, qiziqishlari, qobiliyatlari atrof-muhit ta'siri natijasida ijtimoiy hodisalar sifatida shakllanadi.

Rus pedagogika fani shaxsiyatdagi biologik va ijtimoiylik xususiyatlarini ajralmas bo'lgan bir butunlik sifatida ko'rib chiqadi. So'nggi paytlarda pedagogikada shaxsning rivojlanishi, shaxsni shakllantirish tushunchalaridan tashqari, shaxsni ijtimoiylashuvi tushunchasi keng tarqaldi.

Ijtimoiylashtirish- bu shaxsning jamiyat bilan o'zaro ta'siri bo'lib, uning jarayonida shaxsning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, unga moslashishi (moslashishi) sodir bo'ladi. Ijtimoiylashuv (shaxsning) - bu shaxs tomonidan ma'lum bir jamiyat, ijtimoiy hamjamiyat, guruhlariga tegishli bo'lgan, ijtimoiy aloqalar va ijtimoiy tajribani takror ishlab chiqarishga xos bo'lgan qadriyatlar, me'yorlar, munosabatlar, xulq-atvor namunalarini o'zlashtirishdir.

Ijtimoiylashuv – bu butun umr davom yetadigan uzluksiz jarayon. Ijtimoiylashuvning quyidagi bosqichlari ajratiladi:

1. Ishdan oldingi (ish boshlanishidan oldingi hayotning butun davri); u ikkita mustaqil davrga bo'linadi: erta sotsializatsiya – tug'ilishdan maktabga qabul qilishgacha va yoshlar sotsializatsiyasi - maktabda, litseyda, kollejda, universitetda ta'lim va boshqalar.

2. Mehnat bosqichi – inson kamolotining butun davri, mehnat faoliyatining butun davri kiradi.

3. Ishdan keyingi bosqich – keksalik yoshi bilan bog‘liq ish faoliyatini to‘xtatish. Ijtimoiylashuv hayot mobaynida davom yetadi va insonning atrof-muhit bilan o‘z-o‘zidan o‘zaro ta’siri sharoitida sodir bo‘ladi. Tarbiya (oilaviy, diniy) - ijtimoiylashuv jarayonlarini boshqarish mexanizmi bo‘lib, ijtimoiy nazorat ostida va maqsadga muvofiq ijtimoiylashuv jarayoni hisoblanadi.

Dastlabki odamlar tabiiy muhit (landshaft) qurshovida yashagan, o‘zini tabiat bilan birga his qilgan, tirikchilik yo‘lida ovchilik va o‘simlik mevalarini yig‘ish bilan shug‘ullangan, vaqtinchalik kichik manzilgohlar qurib, oziq moddalarga boy hududlarga doimo ko‘chib yurishgan. Odamda mehnat qilish, ish qurollarini yaratish va tafakkur qobiliyatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi uning turmush tarzini o‘zgartira boshlagan. Aql (ong) - odamlarga oziq-ovqat resurslari yetishmovchiligini bartaraf qilish imkonini bergan: qishloq xo‘jaligi (bundan 10 ming yil oldin) vujudga kelgan, sanoat inqilobi boshlangan (bundan 200 yil oldin). Odam buyuk yaratuvchi sifatida o‘zi uchun qulay yashash muhiti - madaniy landshaftlar, qishloq va shahar tizimlarini vujudga keltirgan. Shu tariqa inson butun borliqning ko‘rkiga, eng yetuk, ongli vujudga, ijtimoiy-madaniy voqelikka aylangan.

Demak, odamning hayot faoliyati tabiiy-biologik va ijtimoiy-madaniy omillardan ibort yaxlit shart-sharoitlar majmuida kechadi. U bu sharoitlarga nafaqat biologik, balki ijtimoiy-madaniy moslashishi ham zarur. Odamning biologik moslashishi hayvonlardan keskin farq qiladi va u ijtimoiy-madaniy omillar, ijtimoiylashish jarayoni bilan shartlangan bo‘ladi. Shu sababli odam hayvonot saltanatida murakkab ijtimoiy-madaniy tuzilmaga va mehnat faoliyatiga ega bo‘lgan betakror tur sanaladi.

Odam individ (insoniy qiyofasi va shaxsi e’tiborga olinmagan yakka odam zoti) sifatida ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimiga kirgach, unda jamiyatga va o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlar vujudga kela boshlaydi. Inson shaxsi o‘zining genetik dasturi, tabiiy muhit omillari va o‘zi yashayotgan jamiyatga xos qadriyatlar, meyorlar, yo‘l-yo‘riqlar va xulq-atvor namunalarini o‘zlashtirishi hamda o‘z shaxsiy tajribasi asosida yaxlit ijtimoiy madaniy mavjudot sifatida shakllanadi.

Odam tabiiy-genetik, ijtimoiy-tarixiy va ma’rifiy-madaniy jarayonlar va hodisalar subyekti va obyekt bo‘lib, ular tabiat va jamiyat tomonidan yaratilgan va odamni shaxs sifatida shakllantiradigan hayotiy muhit hisoblanadi. Odamning ijtimoiylashuvi, o‘ziga xos turmush tarzi va avlodlarning uzluksiz yangilanishi mazkur muhitda ro‘y beradi. Bu muhit moddiy va ma’naviy qadriyatlar iste’molchisi, tashuvchisi, ijodkori va yaratuvchilik faoliyatiga tayyor bo‘lgan barkamol (komil) inson shaxsini vujudga keltiradi. Har qanday odam boshqa insonlarsiz, ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy-madaniy muhit ta’sirisiz “tirik murda” -

individ holatida qoladi, o'zligini anglamaydi. Demak, shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulqatvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Har qanday yetuk shaxsga quyidagi xususiyatlar (tavsif) xos bo'ladi: aql farosat; mas'uliyat-javobgarlik; erk-erkinlik; qadr-qimmat; individuallik o'ziga xoslik.

Barcha odamlar insoniyat (jamiyat, sotsium) deb ataluvchi populyatsiya tizimini hosil qiladi. Odam bu tizimda o'ziga xos ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy xislatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, biosfera qonuniyatlari doi-rasidan tashqariga chiqa olmaydi. Odamning jismoniy tanasi, anatomik-fiziologik tuzilishi va xususiyatlari uning biologik jihatini; o'rganish va bilishga qobilligi, o'zgalar bilan o'zaro muloqotga kirishishi va munosabatlar o'rnatishi, ruhiy-ma'naviy barkamollikka erishish istagi esa ijtimoiy-madaniy jihatini anglatadi. Odamda bu jihatlarning o'zaro mutanosib rivojlanishi yaxlit inson shaxsi shakllanishini ta'minlaydi. Zero, inson – o'z aqli va ruhi sohibi; o'z shaxsi, madaniyat va taraqqiyot bunyodkori. Inson – eng oliy qadriyat, uning baxt-saodati esa eng oliy maqsad hisoblanadi.

2.Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi.

odam ontogenezi (odamning jismoniy-biologik rivojlanish yo'li) va *shaxs ontogenezi* (shaxsning ruhiy, ma'naviy-madaniy shakllanish yo'li) – o'zaro shartlangan, uyg'unlashgan jarayon bo'lib, *inson barkamolligini* ta'minlaydi va o'ziga xos tushunchalar orqali tavsiflanadi.

Har qanday odam zotida (individda) tug'ilganidan boshlab, o'zaro bog'liq ikkita chiziq – *biologik* va *ijtimoiy* rivojlanish kuzatiladi. Bola *biologik mavjudot* sifatida tug'iladi, ammo *shaxs* tug'ildi deb aytilmaydi. Odamda skelet, muskullar, shuningdek ichki a'zolar va tizimlar rivojlanadi. Odamning biologik rivojlanish jarayoni uni ijtimoiy mavjudot sifatida tavsiflovchi *ijtimoiy xususiyatlar va sifatlar* egallanishi bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, bola bir yarim oylikidan boshlab yaqinlarini ko'rganda kula boshlaydi, keyin nutqi chiqadi, tik yurish qobiliyatiga ega bo'ladi, nar-salar bilan muloqot qilish odatlari va ko'nikmalarini o'rganadi, shuningdek oilada va ko'chada o'zini tuta oladi, muayyan vazifalarni bajarishga kirishadi va sh.k.

Bola keyingi rivojlanish davrlarida bilimlarini boyitadi, ahloqiy meyor va qoidalarni o'zlashtiradi, kiyinishni o'rganadi, u yoki bu ishni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatlariga ega bo'ladi va sh.k.


Shunday qilib, biologik mavjudot bo'lgan odam o'z hayoti jarayonida ko'plab ijtimoiy xususiyatlar va fazilatlarini o'zida shakllantiradi va rivojlantiradi. Shuning uchun odam fanda *bioijtimoiy mavjudot* sifatida qarab chiqiladi. Binobarin, odam

tushunchasi o'zida biologik va ijtimoiy xususiyat hamda fazilatlarni o'zida uyg'unlashtiradi (birlashtiradi).

Shaxs tushunchasi odamning nutq, ong, turli odatlar kabi ijtimoiy xususiyatlari va fazilatlarini o'z ichiga oladi va bular uni ijtimoiy mavjudotga aylantiradi. Odamning biologik xususiyatlari (tavsifi) shaxs tushunchasi mazmuniga kiritilmaydi. Shuning uchun shaxs mohiyatini uning soch-soqoli, qoni, mavhum jismoniy tabiati emas, balki ijtimoiy sifati belgilaydi. Shaxs bo'lish xususiyati odamning jismoniy hayoti bilan emas, balki ijtimoiy xususiyatlari bilan bog'liq. Bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi: shaxs tushunchasi odamning ijtimoiy mohiyatini tavsiflaydi va uning hayoti davomida o'zida shakllantiradigan ijtimoiy xususiyatlari va fa-zilatlari majmuini anglatadi.

Shaxsiy sifatlar odamning hayoti davomida shakllanganligi sababli ayrim odamlarda *aniqroq*, ba'zilarida *zaiфроq* namoyon bo'lishi mumkin. Savol tug'iladi: odamning shaxsiy rivojlanish (kamol topish) darajasini qaysi me-zonlar bo'yicha aniqlash mumkin?

Mashhur psixolog olim S.I. Rubinshteyn shaxs o'z hatti-harakati va faoliyatini ongli ravishda boshqarishga imkon beruvchi *psixik rivojlanish da*



1-rasm. Shaxs kamolotining asosiy jihatlari va komillik (barkamollik)

rajasi bilan ajralib turadi, deb ta'kidlagan. Shu sababli o'z hatti harakatlari haqida o'ylash va ular uchun javobgar bo'lish qobiliyati shaxsning ajralmas belgisidir.

Mashhur faylasuf V.P. Tugarinov esa shaxsga xos eng muhim xususiyat-larga quyidagilarni kiritgan:

- 1) oqillik;
- 2) mas'ullik;
- 3) erkinlik;
- 4) shaxsiy qadr-qimmat;
- 5) individuallik (shaxsiyat).

Aksariyat psixologlar shaxs tushunchasini odamning *yoshi* va *psixik (ruhiy) yetukligi* bilan ham bog'laydilar. Shu nuqtai nazardan ma'lum bir psixik rivojlanish darajasiga etmagan *go'dak*, shuningdek hatti-harakatlarida onglilikni namoyon qila olmaydigan *ruhiy xasta kishi* shaxs bo'la olmaydi.

Shaxs qanchalik *kuchli* bo'lsa, unda ijtimoiy xususiyatlar va fazilatlar yorqinroq va aniqroq namoyon bo'ladi, uning faoliyati qay bir darajada *ijodiy* bo'ladi. Shu ma'noda odam va shaxs tushunchalarining tavsifi *individuallik (shaxsiyat)* tushunchasi bilan to'ldiriladi.

Individuallik (shaxsiyat) bir kishi yoki shaxsning o'zgalarga o'xshamasligi va ulardan ajralib turishi bilan tavsiflanadi. Individuallik (shaxsiyat) odam yoki shaxs tabiati va mijozining o'ziga xosligi (masalan, irodasi muvozanatlashgan va sobitqadam kishi), ijodiy faoliyat va qobiliyatlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadiki.

Shunday qilib, *rivojlanish (kamol topish)* deganda odamning anatomik-fiziologik yetilishida, asab tizimi va ruhiyatining takomillashuvida, shuningdek uning bilish va ijodiy faoliyatida, dunyoqarashi, axloqi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va e'tiqodlari boyishida yuz beradigan o'zaro bog'liq miqdor va sifat o'zgarishlari jarayoni tushunilishi kerak. Bu jarayon tufayli hayotiy muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatlari darajasining oshishi ta'minlanadi. Rivojlanish, ya'ni kamol topishning integral natijasi va ko'rsatkichi – shaxslar, guruhlar yoki jamoalarning *kamol topganlik (barkamollik)* darajasi hisoblanadi.

Kamol topganlik (barkamollik) – odamning aqliy, ijodiy, jismoniy va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan (masalan, pedagogik, texnik, huquqiy, musiqiy va sh.k.) bardoshli fazilatlarini, xususiyatlarini, umumiy va alohida qobiliyatlarining mukammallik va samaradorlik darajasi. Kamol topganlik (barkamollik) *tarbiyalanganlik* ko'rsatkichlaridan odamning shaxs kabi ijtimoiy yo'nalganligi bilan emas, balki uning hayotda, ishda ahamiyatga ega bo'lgan, shuningdek uning o'qimishliligi, ta'lim olganligi va tarbiyalanganligida gapiriladigan funksional xususiyatlariga bog'liqligi bilan farqlanadi.

Shakllanish shaxs rivojlanishi (kamol topishi) natijasi sifatida namoyon bo‘ladi va uning qaror topishini, barqaror xususiyat va fazilatlar majmuini egallab olishini anglatadi. Boshqacha aytganda, *shakllanish* – ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, psixologik va pedagogik omillar ta’sirida odamning ijtimoiy mavjudot sifatida qaror topish jarayonidir.

Demak, shaxs kamoloti deganda odamning anatomik-fiziologik balog‘atga yetishida, uning asab tizimi va psixikasi, shuningdek bilish va ijodiy faoliyati mukammallashuvida, dunyoqarashi, axloqi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va e’tiqodlari kengayishida sodir bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zaro bog‘liq jarayoni tushuniladi. Bu jarayon shaxs va insoniyat jamiyatining hayotiy muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyati darajalarini oshirishga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, *shaxsning shakllanishi* shaxs kamolotining natijasi sifatida namoyon bo‘ladi va uning barqaror xususiyat va fazilatlar majmuiga ega bo‘lishini ifodalaydi.

3. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o‘rni.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta’riflanadi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi.

Odamning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun sog‘lom irsiyat, yashash muhiti va ma’rifiy shart-sharoitlar kerak bo‘ladi. Mana shu omillar ta’sirida odam zoti (individ) shaxsga aylanadi.

Demak, shaxs kamoloti jarayoni va natijasi irsiyat, muhit va ma’rifat kabi omillarning o‘zaro uzviy birligida vujudga keladi va aniqlanadi. Quyida shaxs kamolotini harakatga keltiruvchi asosiy omillar haqida fikr yuritiladi:

1. Irsiyat – ota onadan bolaga muayyan sifatlar va xususiyatlarning o‘tishini ifodalaydi. Ular sirasiga quyidagilar mansubdir:

1) biologik tur sifatida odam belgilarini aks ettiruvchi anatomik fiziologik tuzilmalar (nutq, to‘g‘ri yurish, tafakkur va mehnat faoliyatiga oid iste’dod nishonalari);

2) tabiiy o‘ziga xos xususiyatlar (tashqi irqiy belgilar, teri va sochning rangi, ko‘zning rangi va qorachiqda nurning sinishi, yuz tuzilishi, qaddi-qomat, inson tabiatini yuzaga keltiruvchi asab tizimining tuzilishi);

3) fiziologik o‘ziga xos xususiyatlar (qon guruhi, rezusfaktor, moddalar almashinuvi shakli);

4) organizm rivojlanishidagi meyordan chetga chiqishlar;

5) ayrim irsiy kasalliklarga moyilliklar.

Shaxsning o'ziga xos psixologik xususiyati, ya'ni iste'dod nishonalari - qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ichki imkoniyatlar nasldan-naslga o'tadi. Talant – qaysidir sohadagi iste'dodning eng yuqori darajasi, ya'ni misli yo'q qobiliyat hisoblanadi. Shuningdek, faoliyatning muayyan turlari bo'yicha maxsus qobiliyatlar ham (musiqiy, badiiy, matematik, pedagogik qobiliyat va h.k.) farqlanadi.

Quyida iste'dod nishonalari va qobiliyatlarning bosqichma-bosqich bir-biriga bo'ysunishi keltirilgan:

- 1) genetik tuzilmadagi iste'dod nishonalari – nasldan naslga o'tadi;
- 2) shu asosda umumiy qobiliyatlar – odamning umumiy aqliy kamoloti darajasi (o'qimishlilik, diqqati, xotirasi, nutqi, ish qobiliyati va h.k.) shakllanadi;
- 3) umumiy qobiliyatlar asosida maxsus qobiliyatlar (musiqiy, badiiy, matematik, pedagogik qobiliyat va h.k.) vujudga keladi;
- 4) iste'dod nishonalari, umumiy va maxsus qobiliyatlar negizida guruhlangan qobiliyatlar paydo bo'ladi;
- 5) guruhlangan qobiliyatlar kasbiy qobiliyatlar shakllanishiga olib keladi.

Inson kamoloti qonuniyatlarini o'rganishning pedagogik jihati uchta asosiy muammo – aqliy, maxsus va axloqiy sifatlar irsiylanishini (nasldan naslga o'tishini) o'rganishni taqozo qiladi. Jumladan, aqliy sifatlar irsiylanishida bolalar ota-onasidan nimani, ya'ni aqliy faoliyatning qandaydir ma'lum turiga tayyor qobiliyatlarni yoki faqat iste'dod nishonalari me-ros qilib olishi masalasini o'rganish muhimdir.

Odamning o'z qobiliyatlarini rivojlantirishi muhit va turmush shart-sharoitlariga, jamiyat ehtiyojlari, shuningdek insonning u yoki bu faoliyat mahsuliga bo'lgan talab ehtiyojlarga bog'liqdir.

Zamonaviy pedagogika har bir insonda mavjud bo'lgan iste'dod nishonalari rivojlantirish uchun bir xil shart-sharoitlar yaratilishiga urg'u beradi. Biroq, ma'naviy (axloqiy) sifatning irsiylanishi haqidagi masala hamon ochiqlicha qolmoqda.

Odam ijtimoiylashuv (boshqa odamlar bilan o'zaro muloqot, munosabatga kirishishi) jarayonida shaxsga aylanadi. Jamiyatdan tashqarida shaxsning ma'naviy, ijtimoiy va ruhiy kamoloti sodir bo'lmaydi ("maugli" bolalar bunga misol bo'lishi mumkin).

Bixeviorizm namoyandalari ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tadi, ular insonga tabiatan berilgan, deb hisoblaydi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndayk hisoblanadi. Pragmatizm oqimi vakillari (D.Dyui, A.Kombe) ham shaxs kamolotini irsiyat nuqtai nazardan asoslaydilar.

2. Muhit – shaxs kamoloti kechadigan va unga ta'sir ko'rsatuvchi real voqelik shart-sharoitlari (obyektlar, jarayonlar, voqea-hodisalar va h.k.) majmui. Muhit deganda odam yashaydigan joydagi barcha tashqi ta'sirlar majmui tushuniladi. Shu

nuqtai nazardan muhit bolani o‘zi yashaydigan joydagi tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashtiradi, degan xulosa kelib chiqadi.

Odamning atrofdagi muhit bilan o‘zaro bog‘liqlik jadalligiga ko‘ra: yaqin (uy, mahalla, mahalliy ekologik sharoit) va uzoq muhit (ijtimoiy tuzum, hayotning moddiy shartsharoitlari, ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlar oqimining tabiati va h.k.) farqlanadi.

Inson kamolotida, ayniqsa bolalikda uy va mahalla muhitining ta’siri katta bo‘ladi. Bola o‘zi o‘sayotgan va kamol topayotgan oila muhitini o‘zida yetarlicha aniq aks ettiradi. Zero, Qadim qadimdan “bola - oila (mahalla) ko‘zgu” hisoblangan. Bolaning qiziqishlari, qarashlari, qadriyatli mo‘ljallari ko‘pincha oilada shakllanadi. Oila bolaga moddiy va tabiiy iqtidorini rivojlantirish shart-sharoitlarini taqdim etadi. Shaxsning axloqiy va ijtimoiy sifatlariga ham oilada asos solinadi. Farzandlar oilani mustah-kamlovchi rishtaga aylanadi.

Insonning kamol topishiga nima ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi: irsiyatmi yoki muhit? Bu murakkab masala bo‘lib, mutaxassislar fikriga ko‘ra, har bir inson kamolotida bu omillarning tutgan o‘rni va salmog‘i turlichadir. Har bir odam o‘zicha kamol topadi, unga irsiyat va muhitning ta’sir ko‘rsatish “hissasi” turlicha bo‘ladi. Bu ko‘plab tasodifiy omillarga ham bog‘liq bo‘lib, ularning ta’sirini aniq hisobga olish yoki aniq o‘lchash mumkin emas.

3. Ma’rifat (ta’lim va tarbiya vositasida madaniyatni shakllantirish) - irsiyat va muhitning shaxs kamolotiga ko‘rsatadigan ta’siri ma’rifat vositasida tartibga solinadi va u jamiyatga yetuk shaxslarni yetkazib berishga qodir bo‘lgan asosiy kuch hisoblanadi. Ma’rifiy ishlar samaradorligi uning to‘g‘ri tashkil etilishi va boshqarilishiga bog‘liq bo‘ladi. Shaxs kamolotida ma’rifatning tutgan o‘rni turlicha baholanadi: ma’rifat noqulay (buzilgan) irsiyat va yomon (salbiy) muhit ta’siri oldida o‘z ojizligini namoyon qilsa, boshqa hollarda, inson tabiatini o‘zgartiruvchi yagona vosita sifatida e’tirof etiladi. “Tarbiya - hamma narsaga qodir” shiori o‘zini to‘la oqlamadi. Ma’rifat orqali juda ko‘p ijobiy natijalarga erishish mumkin, biroq u insonni to‘liq, har jihatdan qayta o‘zgartirishga qodir emas.

Ma’rifat muayyan maqsad yo‘lida inson kamolotini o‘ziga bo‘ysundira oladi. Ma’rifat – inson kamoloti irsiy dasturidagi “bo‘sh joylar”ni to‘ldirish deganidir. To‘g‘ri tashkil etilgan ma’rifatning muhim vazifalaridan biri odamning qiziqishlari va iste’dodini aniqlash, uning o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyati va ichki imkoniyatlariga muvofiq barkamol shaxsning kamol topishini ta’minlashdan iboratdir.

Ma’rifat shaxs kamolotiga ta’sir ko‘rsatar ekan, ayni paytda uning o‘zi ham shaxs kamolotiga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni u hamisha shaxs kamolotida erishilgan darajaga tayanib ish ko‘radi.

Ma'rifat samaradorligi odamning irsiyat va muhit bilan shartlangan ma'rifiy (pedagogik) ta'sirlarni o'zlashtirib olishga tayyorgarlik darajasi bilan aniqlanadi. Odamlar ma'rifatga turlicha beriladi, kishilarning o'zaro munosabati va ijtimoiy hayotdagi aniq holatlar (vaziyatlar) ma'rifiy jarayonda hal qiluvchi o'rin tutadi. Ma'rifatning ta'sir kuchi muayyan shartsharoitlar va holatlarga bog'liq bo'ladi.

Shaxs kamoloti - ma'rifiy jarayonning ichki mazmunidir. Pedagogika fani - shaxs kamolotini boshqarish haqidagi nazariyani yaratadi. Shu sababli bola shaxsining rivojlanishi ma'rifiy jarayonning mazmunini tashkil etadi. Zero, insonni shakllantirish uning ichki imkoniyatlari, tabiiy iste'dodi va iqtidoriga muvofiq amalga oshirilishi zarur. Ammo tabiiy iste'dod, iqtidor bo'lsada, shaxs tegishli faoliyat turlariga jalb etilmasa, hech narsaga erishilmaydi.

Shaxs kamolotida shartli ravishda jismoniy va ma'naviy kamolot qonuniyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Shaxsning jismoniy kamoloti qonuniyatlari:

1) odamning jismoniy kamoloti yoshlik davrida tez va jadal kechadi, yoshi o'tgan sayin kamolot sur'ati sekinlashadi;

2) bola jismoniy jihatdan notekis, ya'ni ayrim davrlarda tez, ayrim davrlarda sekin rivojlanadi.

Shaxsning ma'naviy kamoloti qonuniyatlari:

1) odamning yoshi bilan ma'naviy kamolot sur'ati o'rtasida teskari mutanosib bog'lanish mavjud bo'ladi: yosh qancha kichik bo'lsa, ma'naviy kamolot sur'ati shuncha yuqori bo'ladi;

2) odamning yoshi o'tishi bilan ma'naviy kamolot sur'ati sekinlashadi;

3) odamning ma'naviy kamoloti notekis kechadi: ruhiy faoliyatning ayrim turlari yuzaga kelishi va rivojlanishi uchun qulay davrlar (muddatlar) mavjud bo'lib, ma'naviy fazilatlarning vujudga kelishi, yuksalishi ular bilan shartlangan holda sodir bo'ladi;

4) odamning ruhiyati va ma'naviy fazilatlari rivojlangan sari barqarorlik kasb etadi.

Demak, shaxsning jismoniy kamoloti odam organizmidagi anatomik-fiziologik o'zgarishlarni anglatadi, uning ijtimoiy-ma'naviy kamoloti ruhiy, ma'naviy va aqliy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

4. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

Shaxs kamolotida *yoshga bog'liq* va *o'ziga xos tafovutlar* mavjud. Bular ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshga bog'liq o'ziga xos xususiyatlar – bir xil yoshdagi ko'pchilik kishilarga xos bo'lgan jismoniy, aqliy (bilish), mavzuiy va hissiy xususiyatlar majmui. Shaxs kamolotida umumiy va o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. ***Umumiy***

xususiyatlar - muayyan yoshdagi kishilarga xos bo'lgan, **o'ziga xos xususiyatlar** - muayyan odamni boshqalardan ayirib turadigan aqliy, irodaviy, ma'naviy va boshqa shaxsiy xislatlar majmui.

Ta'lim-tarbiya ishlarida bolalarning **yosh xususiyatlari** qat'iy hisobga olinishi lozim. Shaxs kamolotining har bir bosqichida faoliyatning muayyan turi **yetakchi** o'rin tutadi. Yoshning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish asosiy pedagogik tamoyillardan biri bo'lib, o'quv tarbiyaviy faoliyatning eng maqbul shakllari va texnologiyalarini (metodlarini) to'g'ri tanlashga imkon beradi.

Yosh bo'yicha pedagogik davrlashtirish (D.B. Elkonin bo'yicha):

1) **chaqaloqlik - go'daklik** (1 yoshgacha) – bevosita muloqotga ehtiyojlar va hissiy munosabatlar paydo bo'ladi;

2) **ilk bolalik** (1 yoshdan 3 yoshgacha) – predmetli faoliyat, nutq va yaqqol-harakatli tafakkur yuzaga keladi;

3) **maktabgacha yosh** (3 yoshdan 7 yoshgacha) – rolli o'yinlar, ijtimoiy ahamiyatli va qadryatli faoliyatga ehtiyojlar paydo bo'ladi;

4) **kichik maktab yoshi** (7 yoshdan 11 yoshgacha) – ta'lim olishga ehtiyoj, ixtiyoriy erkinlik, ish-harakatlarning ichki rejasi, o'z-o'zini nazorat etish va o'z ruhiy holati haqida fikr yuritish, uni tahlil etishga moyillik yuzaga keladi;

5) **o'smirlik** (11 yoshdan 15 yoshgacha) – tengdoshlari bilan shaxsiy muloqot va "balog'atga yetish"ga intilish paydo bo'ladi;

6) **o'spirinlik** (15 yoshdan 19 yoshgacha) – o'quv-kasbiy faoliyat, dunyoqarash shakllanadi, kasbga qiziqish va uning asoslarini egallash amalga oshadi;

7) **yoshlik** – (19 yoshdan 28 yoshgacha) – oila qurishi va tanlangan kasbini egallashi orqali katta yoshlilar hayot tarzi yuzaga keladi.

E. Eriksonning epigenetik modeli shaxs (inson) kamoloti bosqichlarini aks ettiradi. Bu model inson hayotiy davrlari: bolalik, yetuklik va keksalikni batafsil tavsiflovchi birinchi psixologik nazariyadir.

E.Erikson fikricha, shaxsning psixologik qaror topishi embriyon rivojlanishiga o'xshaydi. **Epigenez** tushunchasi har bir element boshqa qismlarga nisbatan rivojlanib borishini anglatadi. "Epi" - ustidan, "genezis" – kelib chiqish ma'nosini anglatadi. Erikson modeli o'z tuzilmasiga ko'ra embriyonning rivojlanishini eslatadi: har bir keyingi bosqichning vujudga kelishi oldingi bosqich rivojlanishi bilan belgilanadi.

Tirik mavjudotning barcha organlari va tizimlari ma'lum vaqt oralig'ida, ma'lum bir ketma-ketlikda rivojlanadi.

Shaxs kamolotining har bir bosqichi o'ziga xos **rivojlanish vazifasi** yoki **inqiroz** bilan tavsiflanadi; odam keyingi bosqichga o'tishi uchun bu inqiroz

(ziddiyat) hal qilinishi kerak. Muvaffaqiyatli hal qilinish jarayonida rivojlanadigan *kuchlar va qobiliyatlar* shaxsga yaxlit ta'sir ko'rsatadi. Inqirozdan oldingi yoki keyingi voqealar ham ularga ta'sir qilishi mumkin. Ammo, qoidaga ko'ra, mazkur psixologik qobiliyatlar ko'pincha paydo bo'lish bosqichida ishtirok etadi. Har bir bosqich tizimli ravishda qolgan bosqichlar bilan o'zaro uzviy bog'lanadi va barcha bosqichlar ma'lum bir ketma-ketlikda ro'yobga chiqishi (o'talishi) kerak bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Individ va shaxs tushinchasiga tarif bering.
2. Shaxsning rivojlanishi haqida gapirib bering.
3. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni izohlang.
4. Shaxs rivojlanishiga oid zamonaviy yondashuvlar haqida fikrlaringizni asoslang.
5. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlarini yoritib bering.

MAVZU: YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON.

Tayanch iboralar: jarayon, pedagogik jarayon, pedagogik tizim, yaxlit yondashuv, komponent, yaxlit pedagogik jarayon, qonuniyat, tamoyil.

1.Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi.

Pedagogik jarayon deganda ko'pincha o'quv-tarbiya yoki ta'lim-tarbiya jarayoni tushuniladi. Nemis pedagogi A. Disterveg ta'lim va tarbiyani o'zaro uzviy bog'liq yaxlit jarayon sifatida tushungan: "ta'lim tamoyillari mavjud ekan, tarbiya tamoyillari ham hamisha mavjud bo'ladi yoki aksincha". Pedagogik jarayonning yaxlitlik g'oyasi K.D.Ushinskiy, P.F.Lesgaft, N.F. Bunakov va boshqalarning ma'rifiy g'oyalarida chuqur o'z aksini topgan.

Pedagogik jarayon muammosi bilan P.F. Kapterev alohida shug'ullanib, quyidagi xulosalarga kelgan: "ta'lim, o'qitish, o'qish, tarbiya, pand-nasihati, o'g'itish va boshqa bir qator so'zlar turli xususiyatlar, jihatlar, vositalar va vaziyatlarni ifodalaydi, lekin ular birgalikda yaxlit pedagogik jarayondir". Demak, pedagogik jarayon - pedagogik fanining eng muhim, asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, unga yaxlitlik, ya'ni ta'lim, tarbiya va shaxs kamoloti jarayonlarining o'zaro birligi va shartlanganligi xosdir.

O'rgatish haqida juda ko'p yozilgan va aytilgan: u ham "davom yetadi", ham "amalga oshiriladi, ham "tadbiq etiladi"; u, shuningdek, ma'lum bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni insonga "yetkazadi"; ham "o'qituvchi va talabalarning maqsadli o'zaro ta'siridir".

O'rgatish haqida juda ko'p yozilgan va aytilgan: u ham "davom etadi", ham "amalga oshiriladi, ham "tadbiq etiladi"; u, shuningdek, ma'lum bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni insonga "yetkazadi"; ham "o'qituvchi va talabalarning maqsadli o'zaro ta'siridir".

Albatta, ushbu ta'riflarning har biri mavjud bo'lish huquqiga ega, chunki u o'rganish mohiyatini ochib berish uchun alohida urinishlar, bosqichlar sifatida ishlaydi. Ammo alohida olingan holda, "o'rganish" ning bu va boshqa shunga o'xshash ta'riflari uning mohiyatini ochib bermaydi. Buning isboti hech bo'lmaganda o'rganishni ma'lum bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni insonga, bolaga o'tkazish sifatida tavsiflashga urinish bo'lishi mumkin.

Bir qarashda, bu bayonot haqiqat bo'lib tuyulishi mumkin: o'rganishdan oldin, bolada bilim yo'q edi, o'rgangandan keyin ular paydo bo'ldi. Bilim qayerdan kelgan? O'qituvchidan. U ularni ta'lim oluvchilarga berdi.

Ammo bilim, ko'nikma va qobiliyatlar jismlari predmetlar emas, ularni shunchaki berib bo'lmaydi. Ular bolaning, insonning miyasida faqat o'z faol harakati natijasida paydo bo'lishi mumkin.

Ularni oddiygina olish mumkin yemas, ularni ta'lim oluvchining psixik faolligi va birinchi navbatda fikrlash natijasida olinadi.

Yu.K. Babanskiy ta'rificha, bu shuni anglatadiki, "o'qituvchi va talaba" munosabatlarini uzatuvchi qabul qiluvchi munosabatlariga tenglashtirish mumkin emas. O'quv jarayoni tushunchasining yana bir ta'rifi bilan rozi bo'lish qiyin, unga ko'ra "o'quv jarayoni o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi maqsadli o'zaro ta'sir bo'lib, uning davomida o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish vazifalari hal qilinadi".

"Hozirgi bosqichdagi o'quv jarayoni... bu o'qituvchilar va o'quvchilarning bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarash asoslarini, mehnat va axloqiy tarbiyani, ijodiy faollikni shakllantirishga, talabaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan maqsadli, o'zaro bog'liq, izchil o'zgaruvchan faoliyatidir".

Ushbu ta'rifda asosiy urg'u o'qituvchilar va talabalarga faoliyat subyektlari, shaxslar va ularning o'zaro ta'siri sifatida emas, balki ularning maqsadli, o'zaro bog'liq, izchil rivojlanayotgan faoliyatiga qaratiladi. Ushbu ta'rifda o'rganishga faoliyat sifatida, o'quv jarayoni yesa odamlarning o'zlari tomonidan yaratilgan faoliyat tizimining holatini o'zgartirish sifatida qaraladi.

M.N.Skatkin takidlashicha, Biroq, o'quv jarayonining mazmuniga e'tibor qaratib, mualliflar ushbu ta'rifdagi bitta muhim holatni, ya'ni o'quv faoliyati tizimi nafaqat odamlarning o'zlari tomonidan yaratilishini, balki ulardan alohida mavjud emasligini, balki ular tomonidan va ular orqali amalga oshirilishini e'tibordan qochiradilar. U ma'lum jamiyat maqsadlarini bajarish uchungina mavjuddir.

Stul, skameyka, stol, tortma yasaydigan duradgor yoki rus tili, matematika bo'yicha didaktik materiallar tuzadigan metodistning ishi o'qitish hisoblanmaydi. Ammo duradgor o'quvchini olib, unga duradgorlikni o'rgatsa yoki metodist o'qituvchi bolaga xat yozish, hisoblash, ko'paytirish jadvallari va kompyuter o'quv dasturlarini yaratish texnikasini o'rgatsa, bu ish o'qitishning maqsadi va mazmuniga aylanishi mumkin. Keyin bevosita duradgor va metodist o'qituvchi shug'ullangan va shug'ullanadigan amaliy ishga bola, o'spirinni o'qitish masalasi qo'shiladi.

Pedagogik jarayon – ijtimoiy tajribani o'tkazish va o'zlashtirish maqsadida katta (o'qituvchi) va yosh (o'quvchi) avlod o'rtasida maxsus tashkil etilgan, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini qayta o'zgartirishga yo'naltirilgan o'zaro ta'sir yoki hamkorlik. Pedagogik jarayon muayyan ta'lim-tarbiya tizimlari doirasida ma'lum bir vaqtda maxsus tashkil etiladi.

Pedagogik jarayon mustaqil o'qish (ta'lim olish) bilan uzviy bog'langan bo'lib, odamning rivojlanishi va shaxsning shakllanishi, ya'ni kamol topishini ta'minlaydi:

- mustaqil o'qish – insonning o'z qiziqishlari doirasidagi bilimlarni izlashi va ularni o'zlashtirishi bilan bog'liq faol bilish faoliyati;

- odamning rivojlanishi - odamning anatomik-fiziologik tuzilmasida, asab tizimi va ruhiyatida, bilish va ijodiy faoliyatida, shuningdek dunyoqarashi, axloqi va e'tiqodi boyishida ro'y beradigan o'zaro bog'liq miqdor va sifat o'zgarishlari jarayoni;

- shaxsning shakllanishi - irsiyat, muhit va ma'rifatning obyektiv ta'sirida odamning rivojlanishi va faolligi natijasida shaxsiy va ijtimoiy fazilatlariga ega bo'lish jarayoni.

Pedagogik jarayon inson kamolotining eng muhim omili sifatida barkamol, yetuk shaxsning shakllanishini ta'minlaydi.

Pedagogika – ma'rifat (ta'lim, tarbiya) va inson kamoloti haqidagi fan sifatida o'sib kelayotgan yosh avlod va katta yoshli odamlarga shaxsiy va kasbiy kamolotining barcha davrlarida yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiya berish, ularni ilm-ma'rifatli va madaniyatli qilish, kamolga yetkazish masalalarini o'rganadi. Insonning kamol topishi pedagogik, ya'ni o'quv-tarbiya jarayonining uyg'un birligida kechadi va ta'minlanadi. Shu bois, yuqorida ta'kidlanganidek, ma'rifat (ta'lim, tarbiya) va shaxs kamoloti – pedagogik jarayonning maqsadi va mazmuni sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik jarayon (o'quv-tarbiya jarayoni) – ma'rifat va shaxs kamoloti jarayonlari, ularning o'zaro aloqadorligi va birligidan iborat quyidagi beshta tarkibiy qismni o'z ichiga qamrab olgan yaxlit ma'rifiy tizim:

- 1) ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari;

- 2) ta'lim-tarbiya mazmuni;
- 3) ta'lim-tarbiya metodlari, shakllari va vositalari;
- 4) o'qituvchi-tarbiyachilar;
- 5) o'quvchilar (ta'lim oluvchilar, tarbiyalanuvchilar).

Pedagogik jarayonning asosiy xususiyati uning bir butunligi hisoblanadi. Har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs faqat yaxlit pedagogik jarayonda shakllanishi mumkin. Yaxlitlik deganda ta'lim va tarbiyada paydo bo'ladigan va kechadigan barcha jarayonlar va hodisalar, pedagogik jarayon subyektlari va ularning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlari bir-biriga bog'liqligi, bir-birini taqozo qilishi tushuniladi. Yaxlit pedagogik jarayonda hatti-harakatlar va ziddiyatlar yechimlari, o'zaro ta'sirlashuvchi kuchlarning qayta guruhlanishi, yangi xususiyatlar va sifatlarning paydo bo'lishi kabilar uzluksiz ro'y beradi.

Shuningdek, pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyati va kechish shartlaridan biri pedagogik o'zaro hamkorlik hisoblanadi. Pedagogik o'zaro hamkorlik – pedagog va tarbiyalanuvchilarning oldindan rejalashtirilgan, mo'ljallangan o'zaro munosabatlari. Bu munosabatlar natijasida ularning xulq-atvori va faoliyatida ikki taraf lama o'zgarishlar paydo bo'ladi. “O'qituvchi – o'quvchi”, “o'qituvchi – guruh – o'quvchi”, “o'qituvchi – jamoa – o'quvchi” munosabatlari pedagogik o'zaro munosabatning birmuncha keng tarqalgan variantlari hisoblanadi. Shunday bo'lsa ham, pedagogik jarayonning yakuniy natijasi “o'quvchi (tarbiyalanuvchi) – o'zlashtirish ob'ekti” munosabati bo'lib, u pedagogik jarayonning sub'ekti, ya'ni o'quvchini o'zgartirishga, uning muayyan bilimlar, faoliyat tajribasi va munosabatlarni o'zlashtirishiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Pedagogik jarayondagi ziddiyatlar uni harakatga keltiruvchi kuchlardir. O'quvchining ichki imkoniyatlari bilan pedagoglar (ota-onalar) tomonidan unga qo'yilgan talablar o'rtasidagi nomuvofiqlar umumiy ziddiyatlar sirasiga kiradi.

Yaxlit tizim sifatida o'quv jarayonining xususiyatlari.

O'quv jarayonini tizim sifatida tavsiflash faqat ushbu tizimni uning dinamikasida kuzatish, ya'ni uning tarkibi (elementlari), tuzilishi (ular orasidagi bog'lanishlar) funksiyalariga muvofiq qanday o'zgarishini aniqlash orqali amalga oshirish mumkin.

Shuningdek, shuni esda tutish kerakki, biz nafaqat har qanday tizim haqida, balki maxsus tizim – ushbu tizim doirasida shakllanayotgan faoliyat va munosabatlar tizimi haqida gapiramiz. Ushbu tizim odamlarning o'zlari tomonidan yaratilgan va ulardan alohida mavjud emas, balki ular tomonidan va ular orqali amalga oshiriladi.

O'quv jarayonining yaxlitligi, izchilligi va murakkabligi deganda nimani tushunib kerak?

O'quv jarayonining yaxlitligi.

Pedagogika fanida bu tushunchalarning aniq talqini hozircha mavjud yemas. Umumiy falsafiy tushunchada yaxlitlik obyektning ichki birligi, uning nisbiy avtonomiyasi, atrof-muhitdan mustaqilligi sifatida talqin etiladi. (Ensiklopedik lug'at.M., 1984. p. 148). Bu ob'ektlar va jarayonlarning obyektiv xususiyatidir. Biroq, bu ularga doimiy ravishda xos bo'lmasligi mumkin. Yaxlitlik ularning rivojlanishining bir bosqichida paydo bo'lishi va boshqasida yo'qolishi mumkin.

Ushbu qoida pedagogika uchun ham fan, ham pedagogik amaliyot sifatida juda muhimdir. Pedagogik obyektlarning yaxlitligi, shulardan eng muhim va majmuaviy bo'lgan o'quv jarayoni maqsadli tuzilgan. Mavjudlik dialektikasi pedagogik obyektlar yaxlitligining ikki jihatida namoyon bo'ladi.

V.Kraevskiy takidlaganidek, birinchi jihatda yaxlitlik ta'lim jarayonining tabiiy xususiyati hisoblanadi. U obyektiv ravishda mavjud, zero jamiyatda maktab, o'quv jarayonining o'zi mavjud. Bu jihat ta'lim jarayonining o'zgarish xususiyatlarida aks etadi. Masalan, mavhum tushunchada olingan o'quv jarayoni uchun bunday xususiyatlar o'qitish va o'rganishning birligi, ushbu jarayonning mazmunli va protsessual tomonlarining birligi.

Yana bir jihatda, ya'ni haqiqiy pedagogik amaliyotda o'quv jarayonining yaxlitligi maxsus va maqsadli ravishda shakllantiriladi va quriladi. Bunday vaziyatda o'quv jarayonining o'zgaruvchan, qurilgan xarakteristikasi allaqachon ta'lim, rivojlanish va ta'lim funksiyalarining birligi hisoblanadi. Bu uchta funksiyaning barchasi murakkab o'zaro bog'liq munosabatlarda bo'ladi.

Yaxlit pedagogik jarayon tuzilmasi maqsad, mazmun, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, shuningdek ularning birgalikdagi faoliyati natijasini o'z ichiga oladi. Pedagog (o'qituvchi) va tarbiyalanuvchi (o'quvchi) pedagogik jarayonning sub'ektlari va obyektlari bo'lib, bu jarayonning sifati va samaradorligi aynan ularning faol faoliyatiga bog'liqdir.

Pedagogik faoliyat – bu jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqqan holda zamonaviy ta'lim va tarbiyaning maqsadi va vazifalariga muvofiq maxsus tashkil etiladigan faoliyat. Pedagogning ta'lim oluvchilar yoki tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabati ularning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda pedagogik jarayonning maqsadga muvofiq metodlari, shakllari va vositalari tizimi orqali tashkil etiladi.

Ta'lim oluvchilar (tarbiyalanuvchilar) yoki bolalar jamoasi faoliyati jamoaning, shuningdek o'qituvchining (ta'lim berish, tarbiyalash) maqsadlariga hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydigan ongli, ongsiz motivlar va maqsadlar bilan

ham tavsiflanadi. Ta'lim oluvchilar (tarbiyalanuvchilar) faoliyati ularni ta'lim-tarbiya maqsadlariga muvofiq kamol topishiga, ularda bilim va ko'nikmalar, faoliyat tajribasi, o'zi va atrofdagi olamga munosabatlar tizimi shakllanishiga olib kelishi lozim. Biroq o'quvchilar amalda faqat o'z bilimi va tajribasiga mos keluvchi metod va vositalardan foydalanadilar. Ta'lim oluvchilarda bunday bilim va tajriba qanchalik kam bo'lsa, ular hatti-harakatining maqsadga muvofiqligi va rang-barangligi shunchalik kam bo'ladi. Shu sababli asosiy mas'uliyat kattalarda – shakllanayotgan shaxsning ta'limi va tarbiyasini tashkil etuvchi pedagogda bo'ladi. Bola esa faqat o'z hatti-harakatlariga javob beradi.

Pedagogik jarayonning mazmuni o'zaro uzviy bog'langan "ta'lim mazmuni" va "tarbiya mazmuni"ni o'z ichiga oladi. Ta'lim mazmuni - ta'lim oluvchi "nimani o'rganishi lozim", tarbiya mazmuni – tarbiyalanuvchi "shaxsda qanday fazilatlar shakllanishi lozim" degan savolga javob beradi. Pedagogik jarayonning mazmuni jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi, ta'lim va tarbiyaning maqsadlari va vazifalari aks etgan o'quv-tarbiya dasturlariga, pedagoglar (o'qituvchilar, tarbiyachilar) va tarbiyalanuvchilarning (o'quvchilarning) birgalikdagi o'zaro faoliyatiga, shuningdek ta'lim va tarbiya vositalariga bog'liq bo'ladi.

2. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari.

Hozirgi vaqtda pedagogik jarayonning mazmun-mohiyatini ochib beradigan, qandaydir nazariy postulatlarida ifodalangan ta'lim-tarbiya jarayonlarini bilish natijalari, ya'ni quyidagi *pedagogik qonunlar* e'tirof etilgan:

1. *Pedagogik jarayonning yaxlitligi va birligi qonuni* (pedagogik jarayonning yaxlitligi va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, xususan, aqliy, hissiy, axboriy, qidiruv, mazmuniy, jarayonli va motivatsiyali tarkibiy qismlari uyg'un birligining zaruriyatini ochib beradi).

2. *Ta'lim nazariyasi va amaliyotining birligi va o'zaro bog'liqligi qonuni* (ta'limda nazariy va amaliy tamoyillar o'rtasidagi nisbatni, shuningdek o'qituvchining amaliy faoliyati, uning maqbulligini ochib beradi).

3. *Tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi ta'lim qonuni* (shaxsni har tomonlama rivojlantirish, kamol toptirish bilan bilimlar va faoliyat usullarini egallash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib beradi);

4. *Ta'lim maqsadlari, mazmuni va metodlarining ijtimoiy shart-langalik qonuni* (ta'lim va tarbiyaning barcha tarkibiy qismlari shakllanishiga ijtimoiy munosabatlar va tuzum (ijtimoiy buyurtma) hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishining obyektiv jarayonini ochib beradi).

5. *O'quvchilar ta'limi, tarbiyasi va faoliyatining o'zaro bog'liqligi qonuni* (pedagogik rahbarlik va o'quvchilar shaxsiy faolligining rivojlanishi o'rtasidagi,

shuningdek ta'limni tashkil etish usullari bilan uning natijalari o'rtasidagi nisbatni (bog'liqlikni) ochib beradi).

6. **O'quvchilar o'quv faoliyatini individual (yakka) va guruhli tashkil etishning birligi va o'zaro shartlanganligi qonuni** (sinf/guruh bilan ta'limning individual shakli o'rtasidagi nisbat (bog'liqlik) qarab chiqiladi, o'qituvchining jamoa va ayrim o'quvchilar bilan ishlash tamoyillari va qoidalari o'rnatiladi).

Shuningdek, rossiyalik taniqli pedagog A.V. Xutorskiy tomonidan ma'rifiy va pedagogik jarayonlarga xos bo'lgan, asosida tashxislanuvchi va tasdiqlanuvchi dalillar yotgan quyidagi **pedagogik qonunlar shakllantirilgan**:

1. **Pedagogikaning birinchi qonuni: odamning o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish qonuni**: o'quvchining ma'rifiy jarayondagi missiyasini (burchi, vazifasini) namoyon qilishga yo'naltirilgan pedagogik mo'ljal asosida ish yuritish odamning o'zini-o'zi ro'yobga chiqarishini (anglashini) ta'minlaydi.

2. **Pedagogikaning ikkinchi qonuni: odamzodning vorislik qonuni**: har bir o'quvchining ma'rifatli (o'qimishli, ma'lumotli, tarbiyali, madaniyatli) bo'lishi uning o'z oilasi (avlodlari) ma'rifatiga, uning meros qilib olinishiga ta'sir ko'rsatadi.

3. **Pedagogikaning uchinchi qonuni: madaniyatning uzluksiz tiklanishi va o'sishi qonuni**: o'quvchining ma'rifiy natijasi, ya'ni o'qimishlilik madaniyatning uzluksiz tiklanishi va yuksalishiga olib keladi.

4. **Pedagogikaning to'rtinchi qonuni: kishilar farovonligi va baxt-saodati qonuni**: ma'rifiy natijalarning asosiy ko'rsatkichi, ya'ni o'quvchilarning muvaffaqiyatga, baxt-saodatga erishish darajasi pedagogik jarayonning aniq, muayyan maqsadlarga yo'nalganligi bilan bog'liqdir.

5. **Pedagogikaning beshinchi qonuni: insoniyat ma'rifatining umum-bashariy mo'ljallanganlik qonuni**: umumjahon miqyosidagi vazifalarni pedagogik jarayonga kiritish o'quvchining maqsadli mo'ljallarini faoliyatining umumbashariy mazmuni bilan bog'laydi.

Yuqorida ta'kidlangan qonunlarga muvofiq, *maktab* – o'quvchilar uchun baxt-saodat maskani, har bir *ota-ona* - o'z farzandining birinchi o'qituvchisi hisoblanadi. Agar *o'qituvchi* o'z darslarini ushbu qonunlar asosida tashkil qilsa, shogirdlari va ularning farzandlari ustoz-murabbiydan bir umrga minnatdor bo'ladi. Agar *uslubchilar (metodistlar)* o'z ishlanmalari asosiga mazkur qonunlarni qo'ysa, ko'plab o'qituvchilar va ularning o'quvchilari baxtli va muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. *Pedagog olimlar* mazkur qonunlarni tahlil qilib (baholab), yangi pedagogik qonunlar va qonuniyatlarni kashf qilishi mumkin. *Amaldorlar* esa ma'rifiy tizimni mazkur qonunlar asosida boshqarsa, puldan ko'proq mukofot - qo'shimcha haqqa ega bo'ladilar.

Pedagoglar *ta'lim-tarbiya* qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar insonni kamol toptirishga yo'naltirilgan pedagogik qonunlarga muvofiq sodir bo'lishini, qilayotgan ishi bu qonunlarga qanchalik mosligini doimo esda tutishlari, tekshirib borishlari kerak.

Mazkur qonunlar ijrosining muayyan sharoitdagi ifodasi, ya'ni ta'-lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi obyektiv, barqaror, takrorlanuvchi bog'lanishlar, boshqacha aytganda, quyidagi ***pedagogik jarayon qonuniyatlari*** bilan uzviy, mustahkam bog'langan:

1. ***Pedagogik jarayonning o'zgaruvchanlik qonuniyati*** – pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi o'quv-tarbiya jarayoni tadrijiy, bosqichli, pog'onali xususi-yatga egaligi: oraliq yutuqlar qancha katta (yuqori) bo'lsa, yakuniy natija shuncha salmoqli bo'lishi yoki keyingi barcha o'zgarishlar ko'lami oldingi o'zgarishlar-ga bog'liq bo'lishi.

2. ***Shaxsning pedagogik jarayonda kamol topish (rivojlanish) qonuniyati*** – shaxsning rivojlanish, kamol topish tezligi va erishadigan darajasi irsiyat, o'quv-tarbiya muhiti va uning o'quv-tarbiyaviy faoliyatga jalb etilishiga, shuningdek qo'llaniladigan pedagogik ta'sir vositalari va usullariga bog'liqligi.

3. ***Pedagogik ta'sirni o'quv-tarbiya jarayoni orqali boshqarish qonuniyati*** - pedagogik ta'sirlar samaradorligi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi qaytar aloqalar jadalligiga, o'quvchiga ko'rsatiladigan tuzatuvchi ta'sirlar ko'lami, ularning tabiati va asoslanganligiga bog'liqligi.

4. ***Rag'batlantirish qonuniyati*** - pedagogik jarayonning samaradorligi o'quv-tarbiyaviy faoliyatning ichki motivlari, tashqi omillar tabiati va ularning qanchalik yaxshi ishlashi (ta'sir ko'rsatishi) hamda o'z vaqtida bo'lishiga bog'liqligi.

5. ***Pedagogik jarayonda hissiy, mantiqiy va amaliy jihatlar yoki tashqi (pedagogik) va ichki (bilish) faoliyat birligi qonuniyati*** – pedago-gik jarayonning samaradorligi o'qituvchi va o'quvchilarning shaxsiy faoliyati sifatiga, ya'ni his (idrok) qilish tezligi va xususiyatlariga, idrok qilingan narsalarni mantiqiy tushunishiga, tushunilgan narsalardan amalda foydalanishiga bog'liqligi.

6. ***Pedagogik jarayonning shartlanganlik qonuniyati*** - o'quv-tarbiya jarayonining borishi va natijalari shaxs va jamiyat ehtiyojlariga, moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlarga, ma'naviy-ruhiy, sanitariya-gigienik va estetik sharoitlarga bog'liqligi.

Pedagogik jarayon tamoyillari – yaxlit pedagogik jarayondagi o'zaro ta'sirlarning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari va xususiyatlarini belgilovchi dastlabki qoidalar; pedagogik jarayonni tashkil etish va amalga oshirishga qo'yilgan me'yoriy talablar, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi g'oyalar.

Pedagogik jarayonning quyidagi *tamoyillari* farqlanadi:

1. **Ta'lim va tarbiyaning hammabopligi tamoyili** – bu tamoyilga muvofiq o'quv-tarbiya ishlari o'quvchilarning yoshini, individual va jinsiy xususiyatlarini, shuningdek ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik darajasini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Shuningdek, o'quv materiallarini o'qitish oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumgacha bo'lgan qiyinlikning asta-sekin oshib borishi bilan amalga oshiriladi.

2. **Tarbiyaga individual yondashish tamoyili** – pedagogik jarayonni o'quvchilarning individual xususiyatlarini (mijozi, fe'l-atvori, qobiliyati, moyilligi, qiziqishi va shu kabilarni) hisobga olgan holda amalga oshirish. Bu tamoyilning mohiyatini har bir bolaga nisbatan o'quv-tarbiya jarayonining eng maqbul natijalariga erishish uchun pedagog tomonidan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning turli shakllari va metodlaridan ephillik bilan foydalanish tashkil etadi.

3. **Ta'lim va tarbiya har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirishi bilan birgalikda jamoaviy tabiatga egaligi.** Bu tamoyilni amalga oshirish ishtirokchilardan hamkorlik qilish, birgalikda hatti-harakatlarni muvofiqlashtirish va doimiy ravishda o'zaro munosabatda bo'lish ko'nikmalarini talab qiluvchi individual, guruhli va ommaviy ishlarni tashkil etishni taqozo qiladi.

4. **Ko'rsatmalilik tamoyili** – bu tamoyilga muvofiq ta'lim o'quvchilar tomonidan nafaqat ko'rish, balki harakatga kelish, shuningdek sezish his-tuyg'ulari orqali bevosita idrok etiladigan aniq nusxa-namunalarga asoslanadi. O'quv-tarbiya jarayonida turli xil rasm-suratlar, namoyish qilishlar, ta'limning texnik vositalari, amaliy-laboratoriya ishlari va kompyuter-lashtirish orqali ta'minlanadigan ko'rsatmalilik o'quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi, kuzatuvchanligi va tafakkurini rivojlantiradi, o'quv materialini chuqur o'rganishga yordam beradi.

5. **Ta'lim va tarbiyaning ilmiyligi tamoyili** – ushbu tamoyilga muvofiq o'quvchilarga faqat ilm-fanda belgilangan (rasmiylashgan) qonun-qoidalar o'rganish (o'zlashtirish) uchun taklif etiladi va o'z xususiyatiga ko'ra fan metodlariga yaqin bo'lgan ta'lim metodlaridan foydalaniladi. O'quvchilar eng muhim kashfiyotlar tarixi va zamonaviy g'oyalar, ilmiy farazlar bilan tanishishi, ta'limning muammoli tadqiqiy metodlari va faol ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanishi kerak. O'quvchilarga beriladigan bilimlar qanchalik oddiy bo'lmasin, ular fanga zid bo'lmasligi kerak.

6. **Madaniyatga muvofiqlik tamoyili** – ta'lim va tarbiyada ma'lum bir o'quv muassasasi joylashgan mintaqa, mamlakat, jamiyat, millat va muhit madaniyatidan imkon boricha (mumkin qadar) foydalanish.

7. **Tabiatga muvofiqlik tamoyili** – har qanday pedagogik jarayon va tarbiyaviy hamkorlikning yetakchi bo'g'ini o'ziga xos xususiyatlar va kamolot darajasiga ega bola (o'smir) bo'lishini talab qiluvchi dastlabki qoida. O'quvchining

tabiati, sog'lig'ining holati, jismoniy, fiziologik, aqliy va ijtimoiy rivojlanishi – insonni ekologik himoyalash rolini o'ynaydigan tarbiyaning asosiy va hal qiluvchi omillaridir.

8. **Hamkorlik tamoyili** – ta'lim-tarbiya jarayonida shaxs ustuvorligiga mo'ljallanish; shaxsning o'z yo'lini o'zi belgilab olishi, o'zligini namoyon etishi, kamol topish yo'lida doimo harakatda bo'lishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek kattalar va bolalarning birgalikdagi hayotiy faoliyatini subyektlararo aloqa, dialogik munosabat asosida tashkil etish.

9. **Ta'lim va tarbiya natijalarining puxtaligi, anglanganligi va amaliyligi tamoyili** – uning mohiyati shundan iboratki, bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va dunyoqarashlik g'oyalari chuqur anglangach va yaxshi o'zlashtirilganidan keyin uzoq vaqt xotirada saqlanib qoladi. Ushbu tamoyil bilim, ko'nikma, malakalar hamda xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini doimiy, muntazam takrorlash, mashq qilish, mustahkamlash, tekshirish va baholash orqali amalga oshiriladi.

10. **Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili** – ilmiy bilimlarni kundalik hayotiy amaliyot bilan uyg'un bog'lashni talab qiladi. Nazariya - dunyoni bilishga imkon bersa, amaliyot unga samarali ta'sir ko'rsatishni o'rgatadi.

11. **Batartiblik va izchillik tamoyili** - ta'lim jarayonida mantiqiy bog'lanishlarga rioya etilishini talab qiladi va natijada katta hajmdagi o'quv materialining mustahkam o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Batartiblik va izchillik qisqa vaqt ichida katta natijalarga erishishga imkon beradi. Bu tamoyil rejalashtirishning turli shakllarida va ma'lum bir tarzda tashkil etilgan mashg'ulotlarda amalga oshiriladi.

12. **Onglilik, faollik, tashabbuskorlik tamoyili** – uning mohiyati shundaki, ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy bilish faoliyati ta'lim olganlik va tarbiyalanganlikning muhim omili bo'lib, bilim va me'yorlarni o'zlashtirish sur'ati, chuqurligi hamda ko'nikma, malaka va odatlarni shakllashtirish tezligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. O'quv-tarbiya jarayonida ongli ishtirok etish o'quvchiga rivojlantiruvchi ta'sirni kuchaytiradi.

13. **Oqilona talablarga asoslangan holda bola shaxsini hurmat qilish tamoyili** – o'qituvchining o'quvchini shaxs sifatida hurmat qilishini talab etuvchi tamoyil. Oqilona talabchanlik – bola shaxsiga hurmatning o'ziga xos shakli. O'quvchilarga nisbatan talabchanlik o'qituvchining o'ziga talabchanligi bilan birlashtirilishi kerak. Shaxsga hurmat ko'rsatish odamning ijobiy jihatlari tayanishni nazarda tutadi.

14. **Optimallashtirish (eng qulay sharoit yaratish) tamoyili** – eng samarali, mos shakllar va metodlardan foydalanish kerakligini taqozo qiladi.

Yuqorida qayd etilgan *pedagogik jarayonning tamoyillari* ta'lim va tarbiyaga qo'yilgan asosiy talablar tizimi bo'lib, ularga rioya etish shaxsni har tomonlama rivojlantirish, kamol toptirish muammolarini samarali hal etishga imkon beradi.

Haqiqiy pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiya tamoyillari bir-biriga chambarchas bog'liq holda amalga oshadi, ya'ni ular o'zaro shartlangan bo'lib, hech biri alohida joriy etilishi yoki qo'llanilishi mumkin emas.

Ta'lim jarayonini tabaqalashtirish – o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish bo'lib, quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1) tashqi tabaqalanish – o'quvchilarni o'ziga xos belgilariga ko'ra barqaror guruhlarga ajratish;

2) darajali tabaqalanish – o'quvchilarni bilish darajasi bo'yicha kuchli, o'rta va kuchsiz guruhlarga ajratish;

3) ixtisosli tabaqalanish – ta'lim muassasasi doirasida ixtisoslashgan guruhlar (sinflar) tashkil etish;

4) ichki tabaqalanish – guruh (sinf) o'quvchilarini o'ziga xos xususiyatlari va o'quv faoliyati natijalariga ko'ra vaqtinchalik kichik guruhlarga bo'lish.

Ma'rifiy muassasalarda tashkil etiladigan ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyati o'qituvchi rahbarligida kechadi. O'qituvchi faoliyatining vazifasi o'quvchilarning borliqni ongli va faol idrok etishiga yo'naltirilgan faoliyatini boshqarishdan iboratdir.

Ta'lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1) ta'lim jarayonini rejalashtirish;

2) ta'lim jarayonini amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rish;

3) ta'lim jarayonini tashkil etish;

4) ta'lim jarayonini nazorat qilish va baholash;

5) ta'lim jarayoniga metodik xizmat ko'rsatish.

Ta'limning yaxlitligi prinsipi bu birlikni aks ettiradi. U amalda dars maqsadlari to'plami, ta'lim mazmuni, ya'ni o'qituvchi va talabalar faoliyati, o'qitishning turli shakllari, usullari va vositalarining kombinatsiyasi va uning natijalarini tuzatish va o'z-o'zini tuzatish bilan amalga oshiriladi, bu o'quv jarayonining maqsaddan natijaga o'tishini nazorat qilish va o'zini o'zi boshqarish asosida o'qituvchi va talaba faoliyatiga kiritiladi.

Pedagogik amaliyotda, pedagogik nazariyada bo'lgani kabi, o'quv jarayonining yaxlitligi uning vazifalari va ularni amalga oshirish vositalarining majmuaviyligi sifatida bilim, ko'nikma va malakalarning to'g'ri muvozanatini aniqlashda, o'quv va rivojlanish jarayonini muvofiqlashtirishda; bilim, ko'nikma va malakalarni dunyo haqidagi g'oyalar va uni o'zgartirish usullarini yagona tasavvur tizimiga birlashtirishda o'z ifodasini topadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatlariga tavsif bering.
2. Yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatlari deb nimaga aytiladi?
3. Yaxlit pedagogik jarayonning komponentlariga nimalar kiradi?
4. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasiga izoh bering.
5. Yaxlit pedagogik jarayonning tamoyillari tushunchasiga ta'rif bering.
6. Yaxlit pedagogik jarayonning tamoyillariga izoh bering.

II BOB. DIDAKTIKA – TA'LIM NAZARIYASI

MAVZU: DIDAKTIKA – TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA.

Tayanch iboralar: didaktika, o'qitish, o'qitish jarayoni, didaktikaning asosiy kategoriyalari, ta'lim paradigmalari, ta'lim qoninuyatlari, ta'lim tamoyillari.

1. Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida.

Didaktikaning tug'ilishi an'anaviy ravishda Ya.A.Komenskiy nomi bilan og'liq, uning "hammaga hamma narsani o'rgatish" usulini taqdim etadigan buyuk "didaktika" asari bilan bog'liq. Uzoq vaqt davomida didaktika o'qituvchi amal qilishi kerak bo'lgan qoidalar to'plami edi. Ushbu qoidalar amaliyotdan kelib chiqadigan, mohiyatan pedagogik, shuningdek, falsafiy, antropologik, psixologik xarakterga ega bo'lgan qoidalar bilan oqlanardi.

Didaktika pedagogika va ma'rifiy nazariyaning nisbatan mustaqil qismi bo'lib, o'qitish va o'qish jarayonlari, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar o'zlashtirilishi hamda e'tiqodlar shakllanishining umumiy qonuniyatlarini ochib beradi, ma'rifat (ta'lim-tarbiya) mazmunining hajmi va tuzilmasini belgilaydi. "Didaktika" so'zi yunoncha "o'qitish", "o'rgatish" ma'nosini anglatadi.

Didaktika - ta'lim jarayoni, uning mazmuni, qonuniyatlari va tamoyillari, shuningdek shakllari, metodlari va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasidir.

Bu termin nemis pedagogi V. Ratke (1571-1635) tomonidan uning "Didaktika yoki ta'lim san'ati" deb nomlangan ma'ruzada (1613) fanning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiluvchi ilmiy yo'nalish sifatida qo'llanilgan.

Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari Y.A. Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. U 1657-yilda chex tilida "Buyuk didaktika" asarini yozadi. Y.A.Komenskiy didaktikani "hammani hamma narsaga o'rgatuvchi san'at" sifatida talqin etadi. Shu bois, uning didaktikasida "nimaga o'qitish?", "nimani o'qitish?", "qayerda o'qitish?", "qanday o'qitish?" kabi savollarga o'zi-ga xos tarzda javob berilgan.

Demak, didaktika - pedagogikaning ilmiy ma'rifat va ta'lim muammo-larini tadqiq etadigan bir qismidir. Buyuk allomalarimiz: Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham ta'lim, o'qitish va o'qishga oid sharqona didaktik qarashlar aks etgan.

Asta-sekin didaktikada pedagogik nazariy jihatlar mustahkamlana bordi: konseptual apparat, nazariy yondashuvlar, belgilandi, qonuniyatlar shakllantirildi. Didaktikani o'qitish nazariyasi sifatida tushunila boshlandi. Ta'limning bitta to'g'ri

nazariyasini yaratish orqali samarali o‘quv jarayonini ishlab chiqish mumkin deb hisoblandi. I. J. Lerner bunday nazariya haqida quyidagilarni gapirdi:

Hozirgacha didaktika bilimlarning ajralmas tizimini anglatmaydi, ya’ni didaktik bilimlarning har bir bloki (yoki birligi) avvalgisidan kelib chiqmagan va keyingilarini aniqlamagan. U ta’lim mazmunini tanlashni belgilaydigan umumiy didaktik asoslarni shakllantirish, so’ngra mantiqiy konstruksiyalar orqali o‘quv jarayonining usullari va shakllariga o‘tish mumkin, deb taxmin qildi.

Didaktik bilimlarning yanada rivojlanishi didaktika ta’lim nazariyasi emas, balki ilmiy bilimlarning barcha tarkibiy qismlari bilan o‘rganish fani ekanligini tushunishga olib keldi.

Uni o‘rganish ob’ekti o‘quv jarayonidir. O‘quv jarayoni turli fanlar tomonidan o‘rganilganligi sababli, ta’lim mazmunida ham, o‘qitishning protsessual tomonida ham namoyon bo‘ladigan o‘zgarishlarni ochib beradigan qoidalar aspekt tushunchalarida eshakllanmaydi.

| Umumiy | Xususiy | Aspektli |
|---|---|---|
| 1.Evristik ta’lim (A. V. Xutorskoy). 2.Muammoli ta’lim (M. I. Maxmutov, A. M. Matyushkin, I. Ya. Lerner). 3.Dasturlashtirilgan ta’lim. (A. A. Verbiskiy). 4.Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (V. V. Serikov, Ye. V. Bondarevskaya, I. S. Yakimanskaya). 5.Yangi didaktika (kollektiv ta’lim usuli) (V. K. Dyachenko). 6. Modulli trening. Badiiy ta’lim didaktikasi (Y. B. Aliev) | 1.Umumiy o‘rta ta’lim mazmunining kulturologik (madaniy) tushunchasi (V. V. Kraevskiy, I. Ya. Lerner, M. N. Skatkin). 2.Ta’lim mazmuni tushunchasi (V. S. Lednev). 3.Ta’lim mazmunining binar-integrativ tushunchasi (L. M. Perminova). 4.O‘qitish usullarining tushunchalari va konseptual tasniflari (Y. K. Babanskiy, I. Ya. Lerner). 5.Ta’lim muhiti tushunchasi (V. A. Yasvin, Yu. S. Manuilov). | 1.Individuallashtirish va differensiyalash (I. M.Osmolovskaya). 2. O‘quvchilarni o‘qitishni faollashtirish (T. I. Shamova). 3.Ta’limni takomillashtirish (Yu. K. Babanskiy) |

| | | |
|--|---|--|
| | <p>6.O‘quv vositalari haqida tushunchalar (S. G. Shapovalenko, N. M. Shaxmaev, Yu. E. Shabalin)</p> | |
|--|---|--|

3-jadval

Didaktik bilimlar tarkibiga didaktik tizimlar va modellar ham kiradi. Didaktik tizim deganda o‘quv jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, usullari va boshqalar) tushuniladi. Bu birlik, o‘zaro bog‘liqlik va qarama-qarshiliksiz tavsiflangan yaxlitlikni tashkil qiladi. Bu holda, o‘quv jarayonini tashkil qilish yagona pozitsiyadan amalga oshiriladi, ya’ni ta’limning maqsadi, mazmuni, uslubiy vositalar, o‘quv natijalari va o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning tabiati yagona nazariy asosda amalga oshiriladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, didaktik tizimlar umumiy didaktik tushunchalar asosida yoki psixologik, falsafiy, madaniy va b. kabi boshqa tabiatdagi nazariy konstruksiyalar asosida ishlab chiqiladi.

Didaktik modellar mazmuni didaktik tizimlar asosida tashkil topgan. Modelning xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- model bilan almashtirish bo‘lgan obyektning mavjudligi;
- obyektning muhim bo‘lmagan xususiyatlardan mavhumlashtirish asosida soddalashtirish;
- obyektning muhim xususiyatlarini aks ettirish.

Model diagramma, jadval va algoritmlangan tavsif shaklida taqdim etilishi mumkin. M. V. Klarin xorijiy pedagogikada taklif qilingan konsepsiyani shakllantirish modellarini keltiradi. Shunday qilib, J. Bruner rahbarligida tushunchalarni shakllantirishning kaliti sifatida olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlar asosida qurilgan model quyidagi bosqichlarni belgilaydi:

- 1) tushunchalarning nomi;
- 2) ushbu tushunchalar qo‘llaniladigan yoki qo‘llanilmaydigan qarama-qarshi misollar (ijobiy va salbiy);
- 3) tushunchaning belgilari, belgilarning ahamiyati (muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratish);
- 4) muhim xususiyatlarga asoslangan konsepsiyani aniqlash.

M. V. Klarin, shuningdek, R. Tennyson va O. Park tomonidan taklif qilingan tushunchalarni shakllantirishning yana bir modelini keltiradi:

- 1) o‘qituvchi tushunchalar tizimini mazmunli tahlil qiladi va o‘rganilayotgan tushunchaning o‘rnini va uning boshqa tushunchalar bilan aloqasini ajratib ko‘rsatadi;

2) o'qituvchi konsepsiyaning ta'rifini, misollar to'plamini va qarshi misollarni kiritadi;

3) o'qituvchi talabalarni ushbu tushunchaga mos misollarni mustaqil tanlashga yo'naltiradi. Belgilangan asosiy va tegishli xususiyatlar misollarni tanlash mezonlari bo'lib xizmat qiladi.

4) o'qituvchi bolalarga ushbu tushunchalarga mos keladigan yangi misollarni taklif qiladi.

Didaktik modellar deyarli har bir dissertatsiya tadqiqotida yaratiladi, ular o'quv jarayonining alohida jihatlarini xususiy yoki aspektli model sifatida qamrab oladi (masalan, axborot kompetensiyasini shakllantirish modeli, o'quv faoliyati muvaffaqiyatini shakllantirish modeli va boshqalar.)

Didaktikaning obyekti – ta'lim sohasi, o'qituvchi va o'quvchining mushtarak faoliyati.

Didaktikaning predmeti – o'qitish va o'qish jarayonlari: omillari, shart-sharoitlari, natijalari).

Didaktikaning vazifalari - kimga, nimani, qachon, qayerda, qanday o'rgatish (o'qitish) muammolarini ishlab chiqishdan iborat.

“Ta'lim” - didaktikaning bosh kategoriyasi bo'lib, “o'qitish”, “o'qish”, “ta'lim maqsadi”, “ilm-ma'rifat mazmuni”, “ta'lim qonunlari”, “ta'lim tamoyillari”, “ta'lim metodlari”, “ta'limni tashkil etish shakllari” esa asosiy kategoriyalar sirasiga kiradi. So'nggi paytlarda “bilim”, “ko'nikma”, “malaka”, “ma'lumot”, “ta'lim vositalari”, “ta'lim nazorati”, “ta'lim natijalari” kabi didaktik tizim va ta'lim texnologiyalariga oid tushunchalarga ham didaktik kategoriya maqomini berish taklif etilmoqdaki, bu ularning o'zaro uzviy bog'liqligidan dalolat beradi.

Ta'lim – ta'lim oluvchilarning ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, ijodiy qobiliyati, dunyoqarashi va axloqiy e'tiqodini rivojlantirish hamda faol o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va rag'batlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

O'qitish – o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini boshqarish; ta'lim jarayonining tarkibiy qismlaridan biri; o'qituvchi faoliyati.

O'qish – bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallash jarayoni; ta'lim jarayonining tarkibiy qismlaridan biri; o'quvchi faoliyati.

Ma'lumot - bilim, ko'nikma va malakalar, tafakkur va faoliyat usullarini o'zlashtirishda erishilgan daraja.

Bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish.

Ko'nikma – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish.

Malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish.

Kompetensiya – insonning mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kun-dalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

Ta‘lim maqsadlari – o‘quv jarayonini tashkil etuvchi (uyushtiruvchi) va yo‘naltiruvchi, uning mazmuni, metodlari va shakllarini belgilovchi asos.

Ta‘lim mazmuni – o‘zlashtirilishi shaxs kamolotini ta‘minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi va olamga hissiy-qadriyatli munosabatlar tizimining pedagogik adaptatsiyasi (moslashishi).

Ta‘limning tashkiliy shakllari – bir-biridan didaktik maqsadlari, o‘quvchilar tarkibi, o‘tkazilish joyi, davomiyligi, o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyati mazmuni bilan farqlanadigan o‘quv mashg‘ulotlarining turlari.

Ta‘lim metodi – o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan o‘quv maqsadiga erishishga qaratilgan birgalikdagi, tartibli faoliyati.

Ta‘lim usuli – metodning tarkibiy qismi; metodni amalga oshirishdagi bir martalik harakat (masalan, metod – kitob bilan ishlash, usul guruhlar bo‘yicha alohida mavzularni matnlashtirish).

Ta‘lim vositalari – ta‘lim, tarbiya va kamolot maqsadlariga erishish uchun ma‘rifiy jarayonda o‘quv axborotlari tashuvchisi hamda o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyati vositasi sifatida qo‘llaniladigan tabiiy narsalar va inson tomonidan yaratilgan obyektlar.

Ta‘lim nazorati – ta‘lim jarayonining majburiy qismi, o‘quv ishlari natijalarini o‘lchovchi vosita; u qaytar aloqani ta‘minlaydi, o‘quv jarayonini tartibga solish (to‘g‘rilab turish) vositasi hisoblanadi.

Ta‘lim natijalari – o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar hamda egallangan kompetensiyalar.

Didaktikaning asosiy vazifalari

Fan metodologiyasida ilmiy bilimlarning tavsiflovchi, tushuntiruvchi va bashorat qiluvchi funksiyalari ajratib ko‘rsatiladi. Didaktik bilimlar ham bu funksiyalarning barchasini amalga oshirishi aniq. Agar biz darsning borishini o‘qituvchining darsdagi faoliyatini, o‘quvchilarning xatti-harakatlarini o‘rganish orqali tasvirlasak, unda biz tavsiflovchi funksiyani amalga oshirayotgan bo‘lamiz. Fanning tavsiflovchi funksiyasi empirik faktlarni to‘plash va ular asosida eng oddiy umumlashmalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, didaktika uchun tushuntirish, tavsiflovchi va bashorat qiluvchi funksiyalar noyob emas. Didaktika nafaqat mavjud bo‘lgan narsalarni (ya‘ni mavjud o‘quv jarayonini) o‘rganadi, balki nima kerakligini ham tartibga soladi (ya‘ni, o‘quv jarayoni samarali bo‘lishi uchun qanday tuzilishi kerakligini ko‘rsatadi). Didaktikaning bu funksiyasi konstruktiv- texnik deb ataladi.

Didaktikada didaktik tizimlar va modellarning paydo bo'lishi didaktikaning ushbu funksiyasi bilan aynan bog'liqdir.

Didaktikada, boshqa gumanitar fanlar singari, kuzatilgan hodisalarni tushuntirish tabiiy fanlardagi tushuntirishdan farq qiladi. O'rganilayotgan vaziyatda ko'plab omillar mavjud bo'lib, ularning bir qismi aniq kuzatiladi, boshqa bir qismi esa tadqiqotchidan yashiringan bo'ladi. Har bir o'quvchi takrorlanmas shaxsdir. Har bir o'quvchining o'z fikri, sodir bo'layotgan voqealarga munosabati bor va u har doim ham ichki his-tuyg'ularini tadqiqotchiga bildirmaydi.

Masalan, agar 9-sinfda ma'lum bir o'quvchi yaxshiroq o'qishni boshlaganini kuzatadigan bo'lsak, buning sabablari ko'p bo'lishi mumkin: u kelgusida oliy o'quv yurti bilan bog'liq maqsadni qo'ygan, ustuvorliklar tizimi o'zgargan - u endi yaxshi o'qish uyat ekanligiga ishonmaydi yoki ehtimol u sinfini o'zgartirgandir.

2. Ta'lim jarayonining mohiyati.

Ta'lim - tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Ta'limga ikki tomonlama aloqa (o'qitish va o'qish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa ko'plab xususiyatlar xosdir.

Ta'lim – o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqoti jarayoni hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarga o'quv materialini mazmunini tushuntiradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo'l qo'yilgan xatoliklarni to'g'rilaydi, qanday ishlash va hatti-harakat qilish lozimligini takror ko'rsatadi. Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini, ya'ni o'qituvchining o'qitish (o'rgatish) va o'quvchining o'qish (o'rganish) faoliyatini, boshqachai aytganda, bu tizimdagi bevosita va bilvosita munosabatlarni aks ettiradi.

Ta'lim - o'quvchilarga nazariy bilimlar berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, amaliy ko'nikma va malakalari, shuningdek kompetentligi va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayondir.

Ta'lim jarayonining yaxlit tizim (majmu) sifatidagi tavsifi "ta'lim jarayoni maqsadlari – o'qituvchi faoliyati – ta'lim mazmuni, metod-lari, shakllari va vositalari – o'quvchi faoliyati – natija"larning o'zaro birligi va shartlanganligida namoyon bo'ladi.

Barcha tarkibiy qismlarning o'zaro birligi va yaxlitligi sifatida namoyon bo'luvchi ta'lim jarayoni negizini o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati tashkil etadi.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'ziga xos ziddiyatlar ta'limni yaxlit tizim (majmu) sifatida o'z-o'zidan harakatga keltiruvchi kuchlar hisoblanadi.

Ta'lim jarayonining maqsadlari:

- 1) o'quvchilarning o'quv-bilish faolligini rag'batlantirish;
- 2) o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish;
- 3) o'quvchilarda tafakkur va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish;
- 4) o'quvchilarda dialektik-materialistik dunyoqarash va ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish.

Ta'lim jarayoniga xos xususiyatlar:

- 1) ikki tomonlama tabiatga egaligi:
o'qitish – o'qituvchining ta'lim-tarbiya maqsadlarini ro'yobga chiqarishga, o'quvchilarning bilim va tarbiya olishi, ularni anglashi va amaliyotda qo'llashini ta'minlashga yo'naltirilgan batartib faoliyati;
- o'qish – o'quvchi faoliyati bo'lib, uning bilishi, mashq qilishi va orttirgan tajribasi asosida xulq-atvori va faoliyatida yangi o'zgarishlar vujudga kelishi;
- 2) o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati;
- 3) o'qituvchi tomonidan rahbarlik qilinishi;
- 4) rejali tashkil etilishi va boshqarilishi;
- 5) yaxlitligi va umumiyliigi;
- 6) o'quvchilarning yosh bo'yicha rivojlanish qonuniyatlariga mosligi;
- 7) o'quvchilar tarbiyasi va kamolotini boshqarishi.

“Ta'lim” kategoriyasining mohiyatini ochish – bu ta'lim kategoriyasiga asosiy belgilari bo'yicha ta'rif berish, ta'lim belgilarining mazmunini ochish demakdir. “Ta'lim” kategoriyasining belgilari: aniq bir maqsadga qaratilganligi; jarayon ekanligi; tizimlilik; ikki jihatga egaligi va sh.k. Belgilarning mazmuni ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orqali ochib berilishi mumkin.

Ta'lim – ayrim tarkibiy qismlarini(TQ) ma'lum bir ketma-ketlikda bajarish orqali amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi:

TQ maq. + TKmot. – TQ maz. + TQjar. + TQ naz. + TQ nat.

Ta'lim – maqsadni shakllantirish va anglashdan boshlanadigan hamda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi. Ta'limdagi barcha tarkibiy qismlarning bajarilishi maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi.

Ta'lim – bir butunga bog'langan ayrim unsurlardan iborat tizimli jarayondir. Ta'limning bironta tarkibiy qismini chiqarib tashlash, jarayonning buzilishiga olib keladi.

Ta'lim, ya'ni didaktik jarayonning mohiyatini quyidagi formula yordamida ham birmuncha to'liq anglash mumkin:

$$\mathbf{DJ = TM + O'F + BF}$$

Bu yerda:

DJ - didaktik jarayon;

TM – o‘quvchilarning o‘qish (o‘rganish) motivatsiyasi;

O‘F - o‘quvchilarning o‘zlashtirish faoliyati.

BF - o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish.

Ta‘lim jarayonining vazifalari:

1) ma‘rifiy vazifasi – bilimlarni egallash, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish;

2) tarbiyaviy vazifasi – o‘quvchilarni o‘quv faoliyati orqali tarbiyalash, ularda ma‘naviy-axloqiy sifatlar, qarashlar, e‘tiqodlar va boshqa fazilatlarni shakllantirish;

3) rivojlantiruvchi va kamol toptiruvchi vazifasi – o‘quvchi shaxsida psixik (ruhiy) jarayonlar va sifatlarni shakllantirish, jismoniy sifatlar va aqliy ma‘naviy fazilatlar shakllanishini ta‘minlash.

3.O‘qitish va o‘rganish jarayonlari tavsifi, o‘quv jarayonida ularning o‘zaro bog‘liqligi.

Ta‘lim jarayonining yaxlit tizim (majmu) sifatidagi tavsifi “ta‘lim jarayoni maqsadlari – o‘qituvchi faoliyati – ta‘lim mazmuni, metodlari, shakllari va vositalari – o‘quvchi faoliyati – natija”larning o‘zaro birligi va shartlanganligida namoyon bo‘ladi.

Barcha tarkibiy qismlarning o‘zaro birligi va yaxlitligi sifatida namoyon bo‘luvchi ta‘lim jarayoni negizini o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati tashkil etadi.

Ta‘lim jarayonining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘ziga xos ziddiyatlar ta‘limni yaxlit tizim (majmu) sifatida o‘z-o‘zidan harakatga keltiruvchi kuchlar hisoblanadi.

Ta‘lim jarayonining maqsadlari:

- 1) o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini rag‘batlantirish;
- 2) o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish;
- 3) o‘quvchilarda tafakkur va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish;
- 4) o‘quvchilarda dialektik-materialistik dunyoqarash va ma‘naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish.

Ta‘lim jarayoniga xos xususiyatlar:

- 1) ikki tomonlama tabiatga egaligi:
o‘qitish – o‘qituvchining ta‘lim-tarbiya maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga, o‘quvchilarning bilim va tarbiya olishi, ularni anglashi va amaliyotda qo‘llashini ta‘minlashga yo‘naltirilgan batartib faoliyati;

o‘qish – o‘quvchi faoliyati bo‘lib, uning bilishi, mashq qilishi va orttirgan tajribasi asosida xulq-atvori va faoliyatida yangi o‘zgarishlar vujudga kelishi;

- 2) o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati;
- 3) o‘qituvchi tomonidan rahbarlik qilinishi;

- 4) rejali tashkil etilishi va boshqarilishi;
- 5) yaxlitligi va umumiyligi;
- 6) o'quvchilarning yosh bo'yicha rivojlanish qonuniyatlariga mosligi;
- 7) o'quvchilar tarbiyasi va kamolotini boshqarishi.

4.O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

O'qituvchi faoliyatining mohiyati va tuzilishi:

- 1) o'quvchilarga mashg'ulot maqsadi va vazifalarini tushuntirish;
- 2) o'quvchilarni yangi bilimlar (voqealar, hodisalar) bilan tanishtirish;
- 3) ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni egallash va anglash jarayonlarini boshqarish;
- 4) o'quvchilarning qonuniyat va qonunlarni ilmiy bilish jarayonini boshqarish;
- 5) nazariyadan amaliyotga o'tish jarayonini tartibga solish;
- 6) o'quvchilar ijodiy va tadqiqiy faoliyatini tashkil etish;
- 7) o'quvchilarning o'qishi va rivojlanishidagi o'zgarishlarni nazorat qilish va baholash.


O'quvchilar bilish faoliyatining mohiyati va tuzilishi :

- o'qishga munosabati bo'yicha shaxsiy faoliyati;
- 2) yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi;
 - 3) bilimlarni tahlil etishi, sintez qilishi, taqqoslashi, tasniflashi;
 - 4) qonuniyatlarni bilishi, sabab-oqibat aloqadorligini tushunishi;
 - 5) ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni o'zlashtirishi, ularni tasniflashi;
 - 6) muammolarni mustaqil hal etishi bo'yicha amaliy faoliyati;
 - 7) o'zini-o'zi nazorat qilishi, erishgan yutuqlarini baholashi.

Ta'lim jarayoni bosqichlari :

Ta'lim o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning tegishli o'quv materiallarini batartib o'zlashtirish jarayonidir. Bu jarayonni bir necha tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

- 1) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materialini idrok etish;
- 2) o'quv materialini tushunish, anglash va tegishli ilmiy tushunchalar hosil qilish;
- 3) egallangan bilimlarni mustahkamlash, takomillashtirish va ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish;
- 4) shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash (kompetensiyalarni tarkib toptirish).



2-rasm

Bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallash bosqichlari

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Didaktika nimani o'rganadi?
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini izohlab bering.
3. Zamonaviy ta'lim paradigmalari qaysilar kiradi?
4. O'qitish jarayonining asosiy vazifalariga ta'riflab bering.
5. O'qitish jarayonining bosqichlariga izohlab bering.
6. O'quvchilarning bilish faoliyatining tuzilishi va o'ziga xosliklarini asoslang.
7. Ta'lim qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?
8. Ta'limning qanday umumiy qonuniyatlari bilasiz?
9. Ta'limning xususiy qonuniyatlariga nimalar kiradi?
10. Ta'limning mazmunga doir tamoyillariga nimalar kiradi?

MAVZU: TA'LIM MAZMUNI.

Tayanch iboralar: ta'lim mazmuni, kompetentsiya, Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari, o'quv-metodik majmua.

1. Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni. Ta'lim mazmuni deganda o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lami tushiniladi.

Ta'lim mazmuni tarkibida quyidagilar aks etadi: olam va inson haqidagi bilimlar; faoliyatni amalga oshirish usullari; ijodiy faoliyat tajribasi; atrof-muhitga emotsional-faoliyat tajribasi.

Ta'lim mazmuni takomillashib borish tavsifiga ega bo'lib, uni aniqlovchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) jamiyatda fan, texnika va madaniyatning rivojlanganlik darajasi;
- 2) jamiyat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma;
- 3) ta'limning maqsad va vazifalari;
- 4) innovatsion rivojlanish darajasi;
- 5) axborotlarning hajmi va ko'lami;
- 6) o'quvchilarning yosh xususiyatlari.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini modernizatsiyalashni davrning o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'ymoqda. Hozirgi vaqtgacha ta'lim 71 mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining maqsadini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzidan o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda etkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar o'quvchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga etarlicha imkon bermaydi. Oqibatda o'quvchilarda juda ko'p axborotlarning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning samarasi past bo'lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, o'quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to'plangan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyuladi. Ta'limning maqsadini bunday tarzda belgilash o'quvchining faolligini cheklab qo'yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li umumiy o'rta ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, umumiy o'rta ta'lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi. Garchi umumiy o'rta ta'lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo'lsada, u pedagogika fanida chuqur anglab etilganligi va o'z o'rniga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda ta'limga doir muammolarni tahlil etishda "kompetensiya", "kompetentlik", "tayanch kompetensiyalar" kabi atamalardan keng foydani moqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va

kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funktsiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kompetent yondashuv umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – **“Bilim - Ko'nikma – Malaka”**ni oltita birlik (sikstet) – **“Bilim - Ko'nikma - Malaka - Amaliy faoliyat tajribasi - Kompetensiya – Kompetentlik”** tarzida tahlil etilishi talab etiladi.

Kompetentsiyaviy yondashuvda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – **“Bilim - Ko'nikma – Malaka”** ni oltita birlik (sikstet) – **“Bilim - Ko'nikma - Malaka - Amaliy faoliyat tajribasi - Kompetensiya - Kompetentlik”** tarzida tahlil etish talab etiladi.

Umumiy o'rta ta'limda kompetent yondashuvni tatbiq etish haqida gap ketganda, kasbiy ta'limdan farqli ravishda “umumta'limiy kompetensiya” tushunchasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki umumta'lim maktabi o'quvchisi hali ma'lum bir kompetensiyani o'zida to'liq aks ettira olmasa ham, uning ayrim komponentlarini amalga oshirishga qodirdir.

Umumta'limiy kompetensiya shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli produktiv faoliyatni amalga oshirish zarur bo'lgan real voqelikning aniq belgilangan obyektlariga munosabatini taqozo etuvchi o'quvchining semantik (ma'no-mazmun) yo'nalganligi, bilim, ko'nikma va malakalari hamda faoliyat tajribalari majmuida aks etuvchi ta'limiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talabdir.

O'quvchi uchun kompetensiya - bu uning kelajak obrazi, o'zlashtirish uchun aniq mo'ljal (orientir). Biroq maktab ta'limi davrida o'quvchida “yuksak” kompetensiyalarning ayrim elementlari shakllanadi, nafaqat u kelgusi faoliyatga tayyorgarlik, balki hozirgi bosqichda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun mazkur kompetensiyalarni umumta'limiy nuqtai nazardan o'zlashtiradi.

Umum ta'limiy kompetensiyalar maktabda o'qitiladigan fanlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralishi hamda uning maqsadini to'liq ro'yobga chiqarishni ta'minlay olishini e'tirof etish

maqsadga muvofiqdir. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, maktab ta'limi davrida o'quvchi eng asosiy - fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtiradi va ta'limning keyingi bosqichlarida ham mazkur kompetensiyaning etakchilik roli saqlanib qolishi zarur.

Ta'lim mazmunini loyihalash quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

Ta'lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmuniga an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko'zda tutadi. Bu umumiy o'rta ta'lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o'zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog'liq xatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Ta'lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o'quv fani, o'quv materiali, pedagogik faoliyat, o'quvchi shaxsi kabi komponentlarining o'zaro mosligini ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o'quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o'zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liqdir. Buning uchun insonparvar g'oyalar umumiy ta'lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari tamoyilining o'zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga yo'nalganlik tashkil etishi zarur.

Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta'limni insonparvarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi. U ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o'rnatish va fanlararo aloqalarni o'quvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab etishlariga tayanishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini o'sib boruvchi yo'nalishda rejalashtirishdan iborat bo'lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili. Ushbu tamoyil o'rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetentsiyalarni yagona tizimdagi o'rni, umumiy o'rta ta'lim, barcha o'quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda ko'rib chiqishni ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishni ko'zda tutadi. Ma'lum bir yosh davriga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi ta'lim mazmunida aks ettiriladi.

Ta'lim mazmunini loyihalashtirishda quyidagi mezonlarga asoslaniladi: ta'lim mazmunini mustaqil fikr yuritish va axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish ehtiyojiga muvofiq loyihalashtirish; ta'lim mazmunining aniq ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi; ta'lim mazmunining murakkablik darajasini hisobga olish, o'quvchilar imkoniyatlarining mavjud o'quv dasturlariga mosligi; ta'lim hajmining uni o'rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi; ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasining zamonaviy talablarga javob berishi; ta'lim mazmunini loyihalashda ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olish.

Ta'lim mazmunini belgilovchi meyoriy hujjatlar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy meyoriy hujjat Davlat ta'lim standartidir. O'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari umimg tarkibiy qismiga kiradi. "Standart" ingliz tilidan tarjima qilinganda "meyor", "namuna", "andoza", "model" ma'nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Davlat ta'lim standartining maqsadi - umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida meyorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;

umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;

umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;

baholash tizimi.

Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga etkazish uchun ajratilgan o'quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha

va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15% gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari quyidagilardan tashkil topadi: bilim - o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko'nikma - o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; malaka - o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya – mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi - davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari asosida o'quv materiallari o'quv-metodik majmuada o'z ifodasini topadi.

O'quv-metodik majmua – darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

2.Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar.

Hozirgi paytda ma'rifiy mazmun loyihasini tuzishga ikki xil yondashuv shakllangan.

1) bilimga asoslangan yondashuv (ma'rifiy mazmunning asosi – o'quv jarayonida shakllantiriladigan bilimlar);

2) kompetensiyaviy yondashuv (ma'rifiy mazmunning asosi – o'quv jarayonida shakllantiriladigan kompetensiyalar).

Ma'rifiy mazmunga bilimga asoslangan yondashuv tuzilmasida quyidagi tarkibiy qismlar ajratib ko'rsatiladi:

1) bilim – tizimlashgan ijtimoiy tajribani aks ettiruvchi nazariy ma'lumotlar;

2) ko‘nikma va malakalar – bilimlarni standart (qolipli) vaziyatlarda tayyor algoritmlar (biror masalani yechish qoidalari yoki amallari majmui) bo‘yicha amalda qo‘llash;

3) ijodiy faoliyat tajribasi – shaxsning olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni (BKM) yangi (nostandart) vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati;

4) munosabatlar tajribasi – shaxs tomonidan egallangan bilim va tajribani anglash va hissiy boshdan kechirish natijasida shakllanadigan o‘z-o‘ziga, atrof-muhitning turli jihatlariga bo‘lgan munosabatlar majmui.

Ma‘rifiy mazmunga kompetensiyaviy yondashuv tuzilmasida quyida-gi kompetensiyalar ajratib ko‘rsatiladi:

1) tayanch kompetensiyalar (kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi, ij-timoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi – umumiy va har bir sinfga xos kompetensiyalar);

2) fanga oid kompetensiyalar (har bir o‘quv fani, masalan, ona tili, matematika, biologiya, kimyo va boshqa fanlarning mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantiriladigan fanga oid umumiy kompetensiyalar).

Ma‘rifat mazmunini loyihalashtirishda mazkur kompetensiyalar asos bo‘ladi va ularning mazmuni davlat ta‘lim standartida ochib beriladi.

Tayanch va fanga oid kompetensiyalar umumiy o‘rta ma‘rifiy tizimiga xos bo‘lib, “umumta‘limiy kompetensiya” tushunchasida o‘z aksini topadi, professional (boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus va oliy) ma‘rifiy tizimda esa “kasbiy kompetensiya” tushunchasi markaziy o‘rin tutadi.

Ta‘kidlash joizki, kompetensiya – odamning u yoki bu sohadagi bilim va tajribalari majmui; odamning ma‘lum bir kasbiy vazifalarni hal qilish qobiliyati. Pedagogik nuqtai nazardan, kompetensiya - o‘quvchining ma‘rifiy mazmuni o‘zlashtirish natijasi, ya‘ni ma‘lum bir hayotiy vaziyatlarda nazariy va amaliy vazifalarni hal qilish uchun olgan bilimlari, ko‘nikma va malakalari, faoliyat usullarini amalda qo‘llashga tayyorligi, boshqacha aytganda, ma‘rifiy tayyorgarlikning ma‘lum me‘yori.

Kompetentlik - odam yoki mutaxassisning ichki imkoniyati, uning o‘zi-ga xos bilimi, ko‘nikmasi, malakasi, faoliyat tajribasi; bilim, ko‘nikma va munosabat kombinatsiyasida (uyg‘un birligida) shaxsning ma‘lum bir sohada samarali amaliy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan fazilati; u yoki bu ish turini sifatli bajarish qobiliyati, aniqrog‘i, ma‘lum bir vazifani bajarish sifatining darajasi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassisning kasbiy vazifalarni bajarishga, o‘z kasbi sohasidagi faoliyatga tayyorligi. Kasbiy kompetentlik kasbga moslashishni,

kasbning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlovchi tayanch, umumkasbiy va xususiy-kasbiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

Kompetentlik darajasi – bu odamning bilimi va tajribasiga ko'ra o'z ishini qanchalik uddalay olishi. Shu nuqtai nazardan bilim va tajriba “kam-ligi (pastligi) – kattaligi (yuqoriligi)” mezonlari bo'yicha 2x2 kvadrat jad-valiga muvofiq tahlil etilsa, kompetentlikning quyidagi 4 darajasi farq-lanadi:

- 1) past bilimli va kam tajribali;
- 2) past bilimli va katta tajribali;
- 3) yuqori bilimli, lekin kam tajribali;
- 4) yuqori bilimli va katta tajribali.

3.Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi meyoriy hujjatlar.

Ma'rifat (ta'lim, tarbiya) mazmuni Davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari, o'quv dasturlari mazmunida namoyon bo'ladi va uni belgilovchi me'yoriy va boshqa hujjatlar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) Davlat ta'lim standarti – uzluksiz ta'limning tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi; asosiy ma'rifiy (ta'lim-tarbiya) dasturlarni amalga oshirishga qo'yilgan majburiy talablar majmui – umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limda; dav-lat talablari – rejalashtirilgan ta'lim dasturini amalga oshirishni ta'minlovchi me'yor-talablar majmui - maktabgacha, maktabdan tashqari ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limda;

2) o'quv rejasi – uzluksiz ma'rifiy tizim muassasalarida o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, sinflar (kurslar) bo'yicha taqsimoti va o'quv yuklamasining minimal hajmi belgilangan hujjat bo'lib, tayanch, namunaviy va ishchi (maktab) o'quv rejasi farqlanadi. O'quv rejasi – me'yoriy hujjat hisoblanib quyidagilarni belgilaydi:

- o'quv yili, chorak (semestr)lar va ta'tillarning davomiyligi;
- ushbu ta'lim muassasasida o'rganiladigan o'quv fanlari tartibi;
- o'qish yillari bo'yicha fanlarni taqsimlash;
- har bir fan bo'yicha yaxlit ta'lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o'rganishga ajratilgan soatlar hajmi;
- har bir fanni o'rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;
- praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilar davomiyligi;

3) o'quv fani dasturi – ta'lim-tarbiya mazmuni, uning o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan

normativ hujjat bo'lib, unda muayyan o'quv fani bo'yicha bilimlar, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning mazmuni, ularni o'rganishga ajratilgan vaqt taqsimoti, mavzularning ketma-ketligi va ularning o'rganilish darajasi yoritiladi. Namunaviy, ishchi va mualliflik o'quv-tarbiya dasturlari bo'lishi mumkin. O'quv-tarbiya dasturlaridagi ta'lim-tarbiya mazmuni o'quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi;

4) oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari an'anaviy (bos-ma) o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, uslubiy ko'rsatma, uslubiy tavsiyanoma, ma'lumotlar to'plami (banki), ma'ruzalar kursi, ma'ruzalar to'plami, mashqlar (masalalar) to'plami, lug'at, daydjest) va elektron o'quv adabiyotlari (zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan elektron majmua) toifalariga bo'linadi:

- darslik - muayyan o'quv fanining mavzulari tizimli, chuqur va to'liq yoritilgan, tegishli fan mazmunini belgilangan hajmda mukammal o'zlashti-rishga qaratilgan, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga moslashtirilgan, o'quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan asosiy o'quv nashridir;

- o'quv qo'llanma - darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va mavzularni zaruriy hajmda tizimli yoritib beradigan, fan asoslarining mukammal o'zlashtirilishini ta'minlovchi, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga moslashtirilgan, nazariy yoki amaliy mashq va mashg'ulotlarga mo'ljallangan, o'quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan o'quv nashridir;

- uslubiy qo'llanma - professor-o'qituvchilar va bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darslarning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

- uslubiy ko'rsatma - muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni, shuningdek bitiruvchilarning bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo'yicha ta'lim oluvchilarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

- uslubiy tavsiyanoma - muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha mavzularning asosiy mazmunini yoki ayrim murakkab mavzular va masalalarni o'zlashtirish,

nazariy va amaliy vazifalar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish va pedagogik tavsiya berishga qaratilgan yordamchi o'quv adabiyoti hisoblanadigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

- ma'lumotlar to'plami (banki) - foydalanishga qulay shaklda yaratilgan, muayyan fanni yoki ta'lim yo'nalishini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, isbot talab qilmaydigan ma'lumotlar, ilmiy ko'rsatkich va o'lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, texnika, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ilmiy, amaliy, ma'lumotlardan tash-kil topgan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

- ma'ruzalar kursi - fanning o'quv dasturi bo'yicha ma'ruzalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan atalgan, undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatilgan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

- ma'ruzalar to'plami - muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilim-larni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabi-yotlari ko'rsatilgan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, ilmiy-tadqiqot izlanishlari asosida muntazam yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

- mashqlar (masalalar) to'plami - muayyan fanning mavzulari bo'yicha amaliy mashqlar, masalalar, shuningdek ta'riflash, ifodalash, shakllanti-rish, hisoblash, ishlab chiqish bo'yicha misollar keltirilgan, mavzularga oid me'yoriy, uslubiy, sonli va tayanch ma'lumotlar bilan to'ldirilgan, o'quvchi va talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, ta'lim muas-sasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

- lug'at - aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi va hokazo) to'plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to'g'risida ma'lumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etilgan nashr;

- dayjest - ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunining qisqacha bayoni va

sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan nashr;

- elektron darslik - elektron darslikning mazmuni va tarkibi ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlariga mos kelishi kerak.

5) umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun o'quv-metodik majmualar:

- o'quv-metodik majmua - darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua;

- darslik - davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri;

- mashq daftari - darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita;

- o'qituvchi uchun metodik qo'llanma - darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri;

- darsliklarning multimediali ilovalari - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritilgan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

O'quv-metodik majmualar davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlariga muvofiq, didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik

talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va darslikning multimediali ilovalarini o'z ichiga oladi.

4.Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standarti.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti:

1) kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarni;

2) ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablarni;

3) o'quv yuklamasining hajmini;

4) ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibotlari hamda mexanizmini belgilaydi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti o'quv jarayonini, ta'lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli normativ hujjatlar (ta'lim sohalarining davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalari, o'quv fanlari dasturlari va boshqalar) yaratish uchun asos hisoblanadi.

Oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligining *malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv fanlari dasturlari* oliy ta'limning normativ hujjatlari hisoblanadi.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalari va fanlar dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar:

I. Bakalavriat.

Oliy ta'limning birinchi bosqichida o'quv rejalari va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabaning quyidagi *majburiy fanlar bloklarini* o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabiiy-ilmiy;
- umumkasbiy;
- ixtisoslik;
- qo'shimcha.

O'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar:

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki:

• umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida olingan bilimlarni to'ldirishi va rivojlantirishi; milliy istiqlol g'oyasi va demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida ilmiy va gumanitar dunyoqarashni, yuksak

ma'naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, e'tiqod va ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishi;

- ta'limning tarix, falsafa, xalq an'analari, urf-odatlar bilan uzviy birligini, O'zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitishni, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ta'minlashi;

- insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalminalchilik ruhini rivojlantirishi;

- ta'lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganligini ta'minlashi lozim.

Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bloki:

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviylik hamda uzluksizlikni inobatga olgan holda bilishning matematik usullari, informatika hamda axborot to'plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida oliy darajadagi tasavvurlarni shakllantirishi;

- koinotning tabiiy ob'ekt ekanligi va uning evolyusiyasi; tabiiy fan-larning o'zaro fundamental birligi; zamonaviy tabiiy hodisalarni tadqiq etish konsepsiyasi; tabiatdan oqilona foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoyillari; tabiatga putur yetkazmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirishi;

- muayyan bilim sohasi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi lozim.

Umumkasbiy fanlar bloki:

- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liqlikni ta'minlashi;

- maxsus fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi;

- modelli tasavvurlarni tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishlash yo'riqlariga oid bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini ta'minlashi lozim.

Maxsus fanlar bloki:

- bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi;

- talabaning muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi lozim.

Qo'shimcha fanlar bloki:

- talabalarning bakalavriat ta'lim fanlari bo'yicha qo'shimcha ravishda chuqur bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishi;

- ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va mehnat bozori kon'yunkturasi tez o'zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalar va fanlar dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlashi lozim.

II. Magistratura.

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejaları va fanlar dasturi mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko'zda tutgan holda shakllantiriladi.

Magistratura mutaxassisliklari o'quv rejaları va fanlar dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejaları va fanlar dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o'zlash-tirilishini nazarda tutishi zarur:

- *umummetodologik fanlar;*
- *mutaxassislik fanlari;*
- *ilmiy faoliyat.*

O'quv rejalar va fanlar dasturlari majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Talabalarning o'quv rejalar va fanlar dasturlarini o'zlashtirishida o'quv fanlarining bir qancha masalalari va muammolari bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi zarur.

Magistratura mutaxassisliklari uning o'quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

O'quv rejaning o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar:

Umummetodologik fanlar bloki:

- milliy istiqloq g'oyasi va gumanitar, texnik va tabiiy fanlarning fal-safiy masalalari bo'yicha bilimlar berilishi;

- insoniyatning global muammolari, ma'naviy hayot, shaxs va jamiyat ehtiyojlari, ta'limning insonparvarlik ruhi, zamonaviy sivilizatsiya va uning taraqqiyot yo'nalishlari, axborot tizimlari va bilimlarni taqdim qilish usullari to'g'risidagi tasavvurlar shakllantirishi;

- ilmiy va ilmiy-texnik axborot bilan ishlash ko'nikmalari va o'quvlarini shakllantirishi, tadqiq etiladigan mavzular bo'yicha muntazam ravishda mustaqil tahlil va xulosani tayyorlashi;

- ilmiy ijod metodologiyasi, ilmiy tadqiqotlar asoslari, bilishning umumiy usullari, empirik va nazariy tadqiqot usullari, qonunlar va qoidalar mantig'i, asoslash

va inkor qilish usullariga, shuningdek nutq madaniyati asoslari bilimlariga, pedagogik texnologiyalar, mutaxassisliklar bo'yicha menejment va iqtisodiyotga doir bilimlarni ta'minlashi;

- amaliy xorijiy tilni, mutaxassislikka yo'naltirilgan axborot texnologiyalari va tizimlarini o'zlashtirishni ta'minlashi;

Mutaxassislik fanlari bloki:

- muayyan mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, uquv va ko'nikmalarni shakllantirishi;

- mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi;

- magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy o'quv va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak.

Ilmiy faoliyat bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasala-rida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini na-zarda tutishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot ishlari:

- mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;
- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishi;

- talabalarga fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

Ilmiy-pedagogik ishlar:

- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi;

- o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

Stajirovka ilmiy tadqiqot ishlari taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

Stajirovka:

- ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi;
- iqtisod, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi;

- amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi;

- kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim.

Bunda stajirovkaga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarishi ko'zda tutiladi.

Bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan umumiy malaka talablari.

Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan umumiy malaka talablari:

Bakalavr:

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ***ega bo'lishi lozim.***

Bakalavr:

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

- tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;

- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadi.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladigan umumiy malaka talablari:

Magistr:

- tanlangan mutaxassislik bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni bajarishga, shuningdek fan, texnika va texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat va san’atning zamonaviy yutuqlarini amaliyotga joriy etishga yo‘naltirilgan kasb tayyorgarligiga ega bo‘lishi;

- mutaxassislikka oid ilmiy muammolar bilan bog‘liq vazifalarni ifodalash va hal etishi, qarorlar qabul qilishi, zarur bilimlar bazasini yaratish va undan o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- ilmiy tadqiqotlar va mehnatni tashkil qilish metodologiyasini bilishi, tadqiqot natijalarini tahlil qilish va qayta ishlash metodikasini ishlab chiqishi va amalga oshirishi, ilmiy tadqiqot natijalaridan faoliyatning tegishli sohalarida foydalanishga doir amaliy tavsiyalarni ifodalay olishi va taqdim qilishi;

- xorijiy tillardan birida ilmiy-tadqiqot ishlari mohiyatini tushunish.

- kasb vazifalarini avtomatlashtirish va kompyuterda modellashtirish metodlarini, eng maqbul yechimlar topishning oqilona usullarini egallagan bo‘lishi;

- bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va ilmiy jamoalarni boshqarishni ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- zamonaviy axborot tizimlaridan foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar va interaktiv ta’lim usullarini *egallagan bo‘lishi lozim.*

Magistr:

- tanlangan mutaxassislik bo‘yicha mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati;

- magistr tayyorgarligiga muvofiq mutaxassislik bo‘yicha katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar institutida oliy ta’limdan keyin tahsil olish;

- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta’limi olish uchun tayyorlanadi.

O‘quv yuklamasining hajmi.

1. Bakalavriat bo‘yicha:

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv ishlarini o‘z ichiga olgan o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o‘qish shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanishi lozim.

O‘qishning normativ muddati to‘rt yil bo‘lgani holda o‘quv jarayoni 204 hafta davom etishi zarur.

O‘quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

- nazariy ta’lim – 63 - 70%;

- attestatsiya – 8 - 10 %;

- ta'lim –12 - 16 %;
- malaka amaliyoti – 6 - 12 %;
- bitiruv malakaviy ishi – 2 - 3%.

O'quv yilida ta'lim davrining umumiy hajmi 6 - 10 hafta qilib belgilanadi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibi va bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

2. Magistratura bo'yicha:

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanishi kerak. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shak-li uchun auditoriya mashg'ulotlari va ilmiy faoliyatning eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanishi lozim.

O'qishning normativ muddati 2 yil bo'lganda o'quv jarayoni 100 haftani tashkil etishi zarur.

O'qish davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanishi zarur:

- nazariy ta'lim - 25 - 30%;
- attestatsiya - 4 - 7%;
- ta'tillar – 13 - 16%;
- ilmiy faoliyat – 50 - 55%.

Ilmiy faoliyat magistratura talabasining yakka tartibdagi kalendar ish rejasi asosida amalga oshiriladi va quyidagilarga bo'linadi:

- ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash - 70 -75%;
- ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti - 25 - 30%.

Nazariy ta'lim hajmi magistratura mutaxassisligiga qarab quyidagi tarzda fanlar bloklari bo'yicha taqsimlanadi:

- umummetodologik fanlar - 30 - 35%;
- mutaxassislik fanlari - 40 - 50%;
- tanlov fanlari – 13 - 30%.

Magistratura mutaxassisliklari talabalarining ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi va malaka amaliyoti (stajirovka)ni o'tash tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Kadrlar tayyorlash sifati va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholash.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ichki nazorat - oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlagan Reyting nazorat tizimi haqidagi nizom asosida o'tkaziladi;

- yakuniy davlat nazorati - oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha ularning o'quv rejalariga muvofiq ravishda o'quv fanlari bo'yicha davlat attestatsiyasi, bakalavriat talabasi uchun bitiruv malakaviy ishi yoki magistratura talabasi uchun dissertatsiya himoyasini o'z ichiga oladi;

- davlat-jamoatchilik nazorati - oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

- tashqi nazorat - belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini baholash tegishli Ta'lim muassasalari davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi nizomga muvofiq tartibga solinishi kerak.

Shunday qilib, ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta'lim-tarbiya mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ajratib ko'rsatiladi:

- 1) umumiy nazariy bosqich;
- 2) o'quv bosqichi;
- 3) o'quv materialini o'zlashtirish bosqichi (ta'lim-tarbiya mazmuni-ning o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklar kabi me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topishi).

5.STEAM ta'lim (STEAM education).

Innovatsion ta'lim shakllari

STEAM - bu ta'limiy yondashuv bo'lib, ta'lim oluvchilarning tadqiqotchilik, kommunikativlik va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integrallashgan holda o'rgatishning innovatsion shaklidir. Yakuniy natija - tajriba-sinovda ishtirok etayotgan o'quvchilar muammolarni hal qila oladi, hamkorlikda ishlay va ijodiy fikr yurita oladi. Bular esa 21 asrning novator pedagog va rahbarlaridir.

STEAM abbreviaturasi inglizchada **S** - science, **T** - technology, **E** - engineering, **A** - art i **M** – mathematics ma'nolarini anglatib, tarjimada tabiiy fanlar, texnologiya, muxandislik san'ati, ijod va matematika sohalarini nazarda tutadi. Mazkur fanlar hozirgi kunda dunyoda eng zarur va mashhur hisoblanmoqda. Shu bois ham STEAM asosiy trendlardan biri sifatida rivojlanmoqda.

STEAM ta'lim fanlararo va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta fanni yagona o'quv sxemasiga singdirishga asoslanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2011-yildan boshlab **STEAM** kasblarga talab darajasi 17% ga oshgan, an'anaviy kasblarga bo'lgan talab

esa atigi 9,8% ga oshgan, bu esa butun dunyo bo‘ylab ushbu ta’lim tizimiga katta talab borligini ko‘rsatadi.

Ammo bunday yuqori talabning sababi nimada? Ko‘pgina mamlakatlarda **STEAM** ta’limi quyidagi sabablarga ko‘ra ustuvor:

- yaqin kelajakda dunyoda muhandislar, yuqori texnologiyali tarmoqlar bo‘yicha mutaxassislar va boshqalarning keskin taqchilligi yuzaga keladi;

- uzoq kelajakda tabiiy fanlar bilan bir uzvda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblarga ega bo‘lamiz, xususan, bio - va nanotexnologiya mutaxassislariga talab katta bo‘ladi.

- Mutaxassislarga texnologiyalar, tabiiy Fanlar va muhandislikning turli sohalari bo‘yicha har tomonlama tayyorgarlik va bilim kerak bo‘ladi.

Xo‘sh, bu ta’lim tizimi fanni o‘qitishning an’anaviy usulidan qanday farq qiladi? **STEAM** - ta’lim o‘quvchilar ilmiy usullarni amalda qo‘llashni tushuna boshlaydigan aralash muhitni o‘z ichiga oladi. **STEAM dasturi asosida** ta’lim oluvchilar matematika va fizikadan tashqari robototexnikani ham o‘rganadilar, o‘z robotlarini dasturlashtiradi va loyihalashtiradilar. uchun ishlatiladigan.

- Darslarda maxsus texnologik jihozlardan foydalaniladi.

Shunday qilib, kelajak texnologiyaga tegishli bo‘lib, o‘z navbatida texnologiyaning kelajagi noto‘g‘ri xulosa chiqarmaydigan, rasmiy yondashuvni qabul qilmaydigan va o‘quvchilarga bilimlari bilan “aqliy zarba” bera oladigan va ularning dunyoqarashini cheksizlikka qadar kengaytiradigan yangi formatdagi o‘qituvchilarga tegishli. Kelajak **STEAMning** buyuk ustozlariga bog‘liq!

Muxtasar qilib aytganda, zamonaviy dunyoda eng mashhur bo‘lib kelayotgan fanlar.).

Bugungi kunda **STEAMning** rivojlanishi jahon ta’limi tizimining asosiy trendlaridan biridir. **STEAM** o‘quv dasturi fanlararo va amaliy yondashuv yordamida talabalarga ta’lim berish g‘oyasiga asoslanadi. Beshta fanni har birini alohida o‘rganish o‘rniga **STEAM** ularni yagona o‘quv sxemasiga birlashtiradi.

STEAM XXI-asrning innovatsion texnologiyalariga asoslangan yangi ta’lim tizimi bo‘lib, uning asosiy maqsadi bolalarda yangi tafakkur turini rivojlantirishdan iborat. Bu an’anaviy maktab ta’lim modelidan juda farq qiladigan va ijodiy va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga asoslangan mutlaqo yangi yondashuvdir).

STEAM ta’limi an’anaviy fanlar va matematika ta’limiga o‘qitishdan qanday farq qiladi? U aralash o‘quv muhitini nazarda tutadi va talabalarga ilmiy metodning

kundalik hayotga qanday tatbiq yetilishi mumkinligini ko'rsatadi. STEAM maktabda va maktabdan tashqarida loyiha va o'quv tadqiqot ishlarini amalga oshirish yo'nalishlaridan biridir.

Bunday darslarda o'quvchilar tabiiy qiziqishlarini rivojlantirish, keyinchalik har qanday fanni o'rganishda foydali bo'ladigan tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Pirovardida STEAM yondashuv, avvalo, o'qituvchi tomonidan berilgan materialni yodlashdan ko'ra, o'quv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. U quyidagilarga asoslanadi: yangi g'oyalarni yarata olish, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalari, jamoa bo'lib ishlash, xatolarni doimiy tuzatish va o'quv vazifalarini hal qilish.

Mashg'ulotlarda STEAM yondashuvining tarkibiy qismlari:

- (fanlararo bog'liqlik, predmet sohalarining o'zaro munosabati),
- (XXI-asr ko'nikmalarini rivojlantirish),
- (amaliy muammoga yo'naltirilganlik),
- (loyihaviy yondashuv va jamoaviy ish),
- (ochiq va muammoli vazifalar yechimi),
- (javob va yechimlarni topishda, tadqiqotchilikda izlanishda talabalar mustaqilligining yuqori darajasi),
- (o'qituvchi ko'makchi yoki murabbiy),
- (zamonaviy va istiqbolli kasblar sohasida samarali kasbkorga yo'naltirish.)

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ta'lim mazmuni nima?
2. Ta'lim mazmunini belgilashga doir qanday yondashuvlarni bilasiz?
3. Kompetentsiyaviy yondashuv deganda nima tushinasiz?
4. Ta'lim mazmunini loyihalash tamoyillariga ta'rif bering.
5. Ta'lim mazmunini loyihalashda qanday mezonlarga asoslanish lozim?
6. Davlat ta'lim standarti nima va u qanday komponentlar mavjud?
7. Tayanch o'quv rejasi haqida gapirib bering.
8. O'quv dasturida qanday masalalar o'z aksini topishi kerak?
9. O'quv-metodik majmua nima va u o'z ichiga nimalarni qamrab oladi?
10. STEAM ta'lim texnologiyasining o'ziga hos hususiyatlarini baholang.

MAVZU: TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI.

Tayanch iboralar: metod, ta'lim metodi, ta'lim usuli, qoida, intrefaol metod, metodika, texnologiya, didaktik vosita, ta'limning texnik vositalari.

1. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari.

“Metod” so‘zi yunoncha - tadqiqot, maqsadga erishish yo‘li, usuli, degan ma‘noni bildiradi. Metod - eng umumiy ma‘noda – nimanidir amalga oshirish uchun nazariy tamoyillar va amaliy usullar majmui; maqsadga erishish usuli; ma‘lum tarzda tartibga solingan faoliyat.

Ta'lim metodi – o‘qituvchining o‘quvchilar bilan, o‘quvchilarning bir-biri, tabiat va jamiyat bilan birgalikdagi faoliyati – ta‘limiy muloqotini tashkil etish, ularning o‘quv-bilish faoliyati va aqliy kuchlarini rivojlan-tirishning didaktik texnikasi (usullari, uslublari va operatsiyalari).

Ta'lim metodlari - o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining o‘rgatuvchilik ishi va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishning didaktik texnikalari majmui.

Ta'lim nazariyasi va metodikasida “ta'lim metodlari” tushunchasi bilan birgalikda “didaktik usul” tushunchasi ham keng qo‘llaniladi. Ta'lim metodlari tuzilmasida didaktik usul – metodning tarkibiy qismi, ayrim unsuri sifatida didaktik uslublarni majmuida namoyon bo‘ladi. Didaktik usul esa bir qancha didaktik operatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Didaktik operatsiya – o‘qituvchi yoki o‘quvchining xususiy o‘rgatuvchi-o‘rganuvchi o‘quv hatti harakatlari.

Ta'lim metodi va didaktik usul butun va qism sifatida bir-biriga bog‘langan. Didaktik usul yordamida pedagogik yoki o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Masalan, o‘qituvchilar tomonidan ko‘p qo‘llaniladigan mashq amaliy metod hisoblanadi, uni qo‘llash esa bir nechta didaktik usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin:

- 1) mashq qoidasini tushuntirish;
- 2) bitta mashqni namuna sifatida bajarib ko‘rsatish;
- 3) namuna asosida o‘quvchining mashqni bajarib ko‘rsatishi;
- 4) o‘quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzatish va boshqalar.

Ta'lim metodlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi: ta‘limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, motivatsiyali, tashkiliy.

Demak, ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo‘llanilib, uning samarasini ta‘minlovchi didaktik texnikalar majmuidir.

2.Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar.

Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga (klassifikatsiyasiga) turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ularga bog'liq holda ta'lim metodlari turlicha tasniflanadi.

Quyida ta'lim metodlarining tasnifi va tavsifi keltirilgan:

I. Bilim manbalariga ko'ra ta'lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va boshqalar bo'yicha):

1) og'zaki metodlar guruhi:

- tushuntirish metodi – obyekt, hodisa va tushunchalarning belgilari va qonuniyatlarini sharhlash;

- hikoya metodi – materialni tavsifiy shaklda nutqiy va izchil bayon etish;

- ma'ruza metodi – hajmdor materialni nutqiy bayon etish;

- suhbat metodi – o'rganilgan yoki yangi materialni “savol-javob” so'zlashuvi yo'li bilan tushuntirish yoki baholash;

- bahs-munozara metodi – muayyan muammo bo'yicha o'zaro fikr almashish va h.k.),

2) ko'rsatmali metodlar guruhi:

- namunaviy misol keltirish metodi – xarita, fotosurat, rasm, chizma va sh.k. yordamida jarayon yoki hodisaning ramziy belgilarini ko'rsatish;

- namoyish qilish metodi – hodisaning o'zgarish sur'atini, narsaning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishini ochib ko'rsatish;

- videometod – atrof-muhitdagi hodisalarni multimedia vositasida namoyish etish va h.k.);

3) amaliy metodlar guruhi:

- laboratoriya ishi metodi – maxsus uskuna jihozlardan foydalanib, mustaqil ilmiy-tajriba o'tkazish;

- amaliy ish metodi – olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;

- mashq metodi – o'quv harakatlarini qayta-qayta bajarish;

- o'quv-ishlab chiqarish mehnati metodi – o'quv amaliyotini o'tash;

II. Didaktik maqsadlarga ko'ra ta'lim metodlari (M.A.Danilov va B.P.Esipov va boshqalar bo'yicha):

- yangi bilimni o'zlashtirish metodlari guruhi: og'zaki bayon, suhbat, kitob bilan ishlash, munozara, laboratoriya ishi kabi metodlar;

- bilimlarni mustahkamlash metodlari guruhi: mashq, amaliy ish kabi metodlar;

III. Bilish faoliyati tabiatiga ko'ra ta'lim metodlari:

- tushuntirish misol keltirish metodi – o‘qituvchi turli vositalar yordamida o‘quvchiga tayyor axborotni bildiradi, o‘quvchi uni idrok etadi, anglaydi va esda saqlaydi;

- qayta tiklash metodi – o‘qituvchi axborotni tayyor ko‘rinishda tushuntiradi, o‘quvchi uni o‘zlashtiradi va xotirasida qayta tiklaydi;

- muammoli bayon metodi – o‘qituvchi vazifalarni o‘rtaga qo‘yadi va o‘zi hal etadi, o‘quvchi tayyor bilimlarni, xulosalarni qabul qiladi, anglaydi va o‘qituvchining fikriy harakati va isbotlash mantig‘ini kuzatib boradi;

- qisman-izlanish (savol-javob) metodi – o‘qituvchi o‘quvchini izlanish amallarini bajarishga jalb etadi, o‘quvchi topshiriqni qisman mustaqil bajaradi;

- tadqiqiy metod – o‘quvchining bilimlarni ijodiy izlashi (bilimini orttirish, narsa yoki hodisani tekshirish, xulosa qilish, olgan bilimi va ko‘nikmasini qo‘llashga o‘rganishi);

IV. O‘quv-bilish faoliyati tuzilmasidagi o‘rniga ko‘ra ta’lim metodlari:

- faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish metodlari;

- faoliyatga yordam berish va rag‘batlantirish metodlari;

faoliyat samaradorligi va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari.

3.Ta’lim metodlarining mohiyati.

4.Interfaol ta’lim metodlari. Interfaol ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya va boshqa axloqiy-madaniy fazilatlarni o‘zlashtirishi borasidagi o‘zaro hatti harakatlarni, munosabatlarni obyektiv, barcha imkoniyatlardan foydalangan holda tashkil etishga asoslangan ta’lim.

Interfaol ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni ochib beradi:

- 1) guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;

- 2) tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday psixologik to‘siqlarsiz namoyish etish;

- 3) muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;

- 4) guruh yoki jamoadoshlari bilan psixologik yaqinlikka erishish;

- 5) o‘zining ichki imkoniyati va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qilish;

- 6) fikrlash, fikrlarini umumlashtirish va eng muhimlarini saralash;

- 7) o‘z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;

- 8) o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;

- 9) turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish.

Bugungi kunda pedagogik amaliyotda interfaol ta’limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalardan foydalanilmoqda:

1. Interfaol metodlar – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida suhbat yoki dia-log rejimidagi o‘zaro munosabatlarni nazarda tutuvchi metodlar: “Keys stadi”, “Blits-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va sh.k.

2. Strategiyalar – yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha holatlarda hatti-harakatlarning to‘liq rejasi: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval” va sh.k.

3. Grafik organayzerlar – ma’lumotlarni ko‘rish orqali to‘plash, bog‘lash va taqdim etish imkonini beradigan vosita yoki tuzilmalar: “Baliq ske-leti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va sh.k.

5.Ta’lim metodlarini tanlab olish shartlari.

Ta’lim metodlarini tanlash va qo‘llashga qo‘yilgan talablar. Ta’lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning yetakchi g‘oyalari, ta’lim, tarbiya va shaxs kamolotining umumiy maqsadlari;
- o‘rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o‘ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o‘ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo‘yilgan talablarning o‘zaro bog‘liqligi;
- muayyan o‘quv materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqt;
- o‘quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari va darajasi;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;
- o‘quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta’minlanganlik darajasi, jihozlar, ko‘rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;
- o‘qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati va shaxsiy sifatleri;
- o‘quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o‘rnatilganligi.

O‘qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og‘zaki, ko‘rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

Ta’lim metodlarining samaradorligini qiyosiy taqqoslash va baholash o‘qituvchi mehnatini samarali tashkil etishda va ta’lim natijalarini hisobga olishda alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

6.Ta’lim vositalari va ularning funksiyalari.

Ta’lim vositalari – o‘quv jarayonining maqsadiga erishishda foydalaniladigan materiallar va “qurollar”; bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda o‘quvchilar va o‘qituvchi tomonidan foydalaniladigan moddiy yoki mukammal obyektlar.

Ta'lim jarayonini tashkil etilishida ta'lim metodlari va vositalari birgalikda qo'llaniladi. Ta'lim vositalari bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyektlar. Ta'lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta'limning barcha vositalari ta'lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshirga yo'naltirilgan bo'ladi.

Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyish etuvchi qurilmalar va texnik vositalar tushuniladi.

Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ulardan ta'lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Agar metodlar "qanday o'qitish kerak?" savoliga javob bersa, vositalar "nimalar yordamida o'qitish kerak?" degan savolga javob beradi.

An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o'quv ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi.

Didaktik vositalar metodlar singari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini vujudga keltirish, boshqarish va nazorat qilish kabi vazifalarini ham bajaradi.

Didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida ta'lim jarayonining motivatsiyasi, axborot olish-uzatish, boshqarish va optimallashtirish funksiyalarini bajaradi.

Ta'lim vositalari ta'limning maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlariga bog'liq holda tanlanadi. O'qituvchi o'z ixtiyori bo'yicha ko'rsatmali materiallar va o'quv qo'llanmalardan foydalanishi mumkin. Ta'lim vositalarini qo'llashning yana bir jihatida ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishidir.

Ma'lum bir ta'lim vositasini tanlash ma'lum bir ta'lim metodini tanlash bilan bog'liq bo'ladi. Agar ta'limning faol metodi (kitob bilan ishlash, mashq qilish) tanlansa, u holda o'quv qo'llanmalari, darsliklar va texnik vositalardan foydalaniladi. Ta'limning faol texnik vositalaridan asosan amaliy metodlarni qo'llashda foydalaniladi.

Ta'limning nisbatan kam faollik talab etadigan metodlari (hikoya, ma'ruza va sh.k., ya'ni o'quvchi eshitadi) qo'llanilganda ta'limning ko'rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Ta'limning ko'rsatmali vositalari pedagogning o'zi tomonidan tuzilgan bo'lishi mumkin.

Vositalarning istalgan turidan foydalanishda o'lchov va mutanosiblikka e'tibor qaratilishi kerak. Masalan, ko'rsatmali vositalar soni yetarli bo'lmasligi bilim sifatiga ta'sir ko'rsatadi, bilishga qiziqishni pasaytiradi, yaqqol obrazli idrokning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Vositalardan haddan ortiq foydalanish esa

o'quvchilarning o'rganilayotgan fanga engilyelpi qarashiga olib keladi. Shu sababli, eng murakkab mavzularni o'rganishda ham ko'pi bilan 3-4 marta namoyish qilishning o'zi yetarli bo'ladi.

Ta'lim vositalarining didaktik ahamiyati – bu o'quv materiallarining o'zlashtirilishini tezlatishdan iborat.

Ta'lim vositalarining tasnifi.

Ta'lim vositalari tasnifi aniq, yagona va o'zgarmas bo'lishi mumkin emas. Ta'lim vositalarining ahamiyatli jihati ularning birgalikda qo'llanilishi va hech qachon bir-birini inkor etmasligida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining vazifasi – dars jarayonini faollashtirish uchun ta'lim-ning samarali vositasini tanlay va qo'llay olishidir.

Ta'lim vositalarini tasniflashga turli asoslar bo'yicha yondashish mumkin:

- 1) faoliyat subyektiga ko'ra ta'lim vositalari;
- 2) faoliyat obyektiga ko'ra ta'lim vositalari;
- 3) o'quv axborotiga munosabat bo'yicha ta'lim vositalari;
- 4) o'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra ta'lim vositalari.

Faoliyat subyekti bo'yicha ta'lim vositalari o'rgatish va o'rganish vositalariga bo'linadi:

- 1) o'rgatish vositalari. Masalan, namoyish qilish va tajriba o'tkazish vositalari. Bunday vositalar o'qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash jarayonida qo'llaniladi.
- 2) o'rganish vositalari. Masalan, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar vositalari. Bunday vositalar o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo'llaniladi.

Didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatiga xosligi bo'yicha ikkiga bo'linadi:

- 1) o'qituvchi tomonidan ta'lim maqsadlarini samarali amalga oshirish uchun qo'llaniladi;
- 2) o'quvchilarning individual vositalarii, darsliklari va daftarlari.

Bundan tashqari, didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati turiga ko'ra: sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuter-lar kabi vositalarga ham bo'linadi.

Faoliyat obyektlari bo'yicha ham ta'lim vositalari ikkiga bo'lina-di:

- 1) ta'limning moddiy vositalari. Bu o'quv materialini o'zlashtirish quroli sifatidagi o'quv qo'llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, mo-dellar, o'quv-texnik vositalar, mebel, o'quv-laboratoriya qurilmalari, ko'r-gazmali vositalar bo'lishi mumkin;

2) ta'limning mukammal vositalari - bular axborot manbai sifa-tida pedagog va o'quvchilarning yangi bilimlarni egallashda qo'llaydigan vositalari: chizmalar, diagrammalar, tasviriy va san'at asarlari, nutq va bosh-qalar. Mukammal vositalar - bu «fikrlar haqidagi fikr»: o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda faoliyat ko'rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya - mavhum timsollar tarzida ko'rsatiladigan vositalar (grafik-lar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya - nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vositalar (tahlil, muhokama qilish, dalillar keltirish).

Moddiy va mukammal vositalar bir-birini to'ldiradi. Moddiy vosita qiziqish va diqqatni uyg'otish, amaliy harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lsa, mukammal vositalar - mantiqiy muhokamalar bilan bog'liq bo'ladi.

O'quv axborotiga munosabat bo'yicha ta'lim vositalari bir necha turlarga bo'linadi:

- a) yangi materialni o'rganish vositalari;
- b) takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish vositalari;
- v) bilimlarni nazoart qilish vositalari;
- g) o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari;
- d) axborot vositalari.

O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra ta'lim vositalari ikkiga bo'linadi:

- a) kommunikatsiya (muloqot) vositalari;
- b) o'quv ishlari vositalari.

Ta'lim vositalari qo'llanilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1) o'quv-metodik hujjatlar:

- Davlat ta'lim standarti (malaka talablarini, ta'lim mazmunini, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadr-lar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon daraja);
- o'quv rejasi (ta'lim muassasasida o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat);
- o'quv fani dasturi (ta'lim mazmuni, uning o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat);
- dars jadvali (ta'lim-tarbiya oluvchilarning hafta davomidagi mashg'ulotlari rejasi; mashg'ulotlarning vaqti, joyi va ketma-ketligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jadval);

- amaliy mashg'ulotlar dasturi (o'quv fanining asosiy qoidalarini amalda o'zlashtirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarining turi, ularning dasturi; ma'lum bir o'quv fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar dasturi);
 - o'quv-ishlab chiqarish ishlari (o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti davrida o'quvchi talabalar tomonidan bajariladigan aniq ishlar ro'yxati) va h.k.;
- 2) mashg'ulotlarning didaktik vositalari:
- tabiiy obyektlar (o'quvchilarga namoyish qilish yoki tarqatma materiallar ko'rishida ko'rsatiladigan jonli va jonsiz tabiat obyektlari, ma-salan, qushlar, minerallar, foydali qazilmalar va sh.k.);
 - o'quv modellari, maketlar, mulyajlar (o'quv modellari - tabiiy ob'yektlarni sun'iy qayta tiklovchi, ularning tuzilishi, asosiy xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini ifodalovchi ko'rsatmali tasviriy qo'llanma; o'quv maketi – o'quv jarayonida qo'llaniladigan maketlar (stendlar, mashq qi-lish moslamalari) bo'lib, o'quvchilar ular bilan o'zaro munosabatda ma'lum ko'nikma va malakaga ega bo'ladi yoki qandaydir hatti-harakat prinsipini tushunadi; mulyaj – shakli, sirt tuzilishi, rangi aniq ifodalangan va o'quv maqsadlarida foydalaniladigan obyektning tabiiy hajmdagi (kattalikdagi) modeli, nusxasi bo'lib, papye-mashe, gips, parafin, plastik massadan tayyorlana-di);
 - ko'rsatmali vositalar (obyektlar va hodisalarning o'quv maqsadlari uchun maxsus yaratilgan tekis va hajmli tasvirlari bo'lib, tabiiy (tuproq, qum, novda), tasviriy (rasmlar, suratlar, grafika), obrazli (modellar, maket-lar, haykallar) va chizmalı (jadvallar, chizmalar, diagrammalar) ko'rsatmali vositalar farqlanadi;
 - geografik xaritalar (maxsus belgilar yordamida matematik qonunlar-ga muvofiq tuzilgan yer yuzasining tekislikda kichraytirilgan, umumlashtirilgan tavsiri);
 - shartli belgilar majmui (nota, matematik ishora, geografik shartli belgilar va h.k.);
 - texnik vositalar (diaproyektor, magnitofon, videomagnitofon, asbob uskunalar, televizor, kompyuter va h.k.);
 - laboratoriya jihozlari (probirka, kimyoviy reaktiv, mikroskop va h.k.);
 - o'quv kompyuter dasturlari (ko'nikma va malakalarni shakllantirish va mustahkamlash, shuningdek mustaqil tayyorlanish uchun trenajyor dasturlar, bilim va ko'nikmalarning ma'lum bir darajasini nazorat qilishga mo'ljallangan nazorat dasturlari, tarmoqlangan dasturli dasturlashtirilgan ta'limga yaqin rejimda ishlaydigan, asosan yangi tushunchalarni o'zlashtirishga qaratilgan murabbiylik dasturlari, tavsifiy tabiatli o'quv materialini ko'rsatmali namoyish

etishga mo'ljallangan demonstratsiya dasturlari, zarur ma'lumotlarni chiqarishga mo'ljallangan axborot-ma'lumot beruvchi dasturlar);

- texnologik xaritalar (muayyan bir pedagogik texnologiya jarayonini amalga oshirish uchun ma'lum bir ketma-ketlikda joylashtirilgan o'quv bir-liklaridan iborat bo'lgan, zaruriy ma'lumotlar va ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan metodik mahsulotning zamonaviy shakli) va h.k.;

3) o'quvchilar uchun ta'lim vositalari:

- darslik (elektron darslik), o'quv qo'llanma;
- o'qish kitobi;
- ma'lumotnoma;
- mashq va masalalar to'plami;
- chizmalar to'plami;
- kasbga o'rgatish bo'yicha qo'llanmalar va h.k.;

4) o'qituvchilar uchun didaktik vositalar:

- psixologiya, pedagogika va xususiy metodika;
- o'quv-uslubiy majmua;
- uslubiy ishlanma va h.k.

Ta'lim jarayonini tashkil qilish vositalari:

1) axborotli vositalar - darslik, o'quv qo'llanma; ilmiy kitob yoki jurnal; qo'shimcha adabiyot, jadval, xarita; fotorasm, plakat; o'qituvchi ovozi;

2) uslubiy vositalar - o'quv rejasi, o'quv dasturi; uslubiy ishlanmalar; elektron darslik yoki qo'llanmalar; o'rgatuvchi modullar; nazorat topshiriqlari; o'z o'zini nazorat qilish savollari;

3) texnik vositalar – o'quv texnika vositalari (O'TV); umumiy va maxsus jihozlar. O'TV - bu o'zida o'quv axborotlarini ekranli ovoqli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga quyidagilar kiradi: o'quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmalari; radioeshittirish; teleko'rsatuvlar.

Ta'limning texnik vositalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;
- o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- o'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- o'quvchilarning dunyoqarashi, e'tiqodi va axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan o'quvchilarda hissiy munosabatlar oshishini ta'minlaydi;
- bilimlarni nazorat qilish, o'zini o'zi nazorat qilishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonini boshqarish vositalari. O'quv-tarbiya jarayoni boshqariladigan yaxlit tashkiliy-metodik majmu (tizim). O'quv jarayonini boshqarishning quyidagi omillari farqlanadi:

- 1) o'quv maqsadlarini belgilash;
- 2) o'quv jarayonini muvofiqlashtirish, nazoratga olish va unga tuzatishlar kiritib borish.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatini boshqarish vositalari:

1) topshiriq berish (o'quvchini biror narsa qilish kerakligi yoki unga yuklatilgan javobgarlik (mas'uliyat) to'g'risida xabardor qilish va uning bajarilishini tekshirish);

2) rag'batlantirish (o'quvchini ta'lim-tarbiya olishga qiziqtiruvchi, rag'batlantiruvchi omillar (narsalar) bo'lib, uning asosiy metodlari: talab qilish, istiqbolni ko'rsatish, taqdirlash (mukofotlash), jazolash, jamoatchilik fikri);

3) vaqt va ish meyorlarini belgilash (muayyan ma'rifiy muassasada o'quvchi yoki o'quvchilar guruhining aniq tashkiliy-pedagogik sharoitlarda didaktik (o'quv) operatsiyalarning tugallangan davrini amalga oshirish uchun sarflaydigan vaqt miqdori);

4) ko'rsatma berish (o'quvchiga qanday hatti-harakat qilish kerakligini ko'rsatadigan qoida, pand-nasihati yoki yo'l yo'riq);

5) qoidalarni tushuntirish (o'quvchiga biror qoidani tushunishi, undan foydalanishi uchun aniq, oson bo'lgan har qanday zarur axborotni yetkazish);

6) ish tartibini tushuntirish (o'quvchilarga mustaqil o'quv yoki o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish shartlari va ketma-ketligini tushuntirish);

7) o'qish texnologiyasini tushuntirish (o'quvchilarga o'qish usullari tizimi orqali o'quv-bilish faoliyati usullarini tushuntirish);

8) qaror qabul qilish (har bir qaror qabul qilish jarayoni o'quvchilarni o'quv harakatiga olib kelishi yoki kelmasligi mumkin bo'lgan yakuniy tanlovni (to'xtamga kelishni) amalga oshiradi: ustuvorlikni ajratib ko'rsatish; ish va natijalarni rejalashtirish; natijalarni tizimlashtirish; samaradorlikni baholash);

9) maslahat berish (o'quvchi yoki o'quvchilar guruhiga o'qish, o'qimishli bo'lish, hayotini o'zi belgilash, kasb tanlash, kamol topish, tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlar bo'yicha maslahatlar berilishi);

10) tavsiya etish (ixtiyoriy shaklda o'quvchiga ma'lum bir harakat yo'nalishini ko'rsatadigan maslahat, talab yoki ko'rsatmalar berilishi).

O'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish vositalarining o'zaro ta'siri va bir-birini to'ldirishi ta'lim metodikasi samaradorligining omili hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ta'lim metodlari deganda nimani tushinasiz?
2. "Ta'lim usuli", "pedagogik texnologiya", "metodika" tushunchalariga ta'rif bering.
3. Ta'lim metodlari tasnifini asoslang.
4. Ta'lim metodlarining mazmun-mohiyatini yoritib bering.
5. Ta'lim vositalari deganda nima tushuniladi?
6. Ta'lim vositalari tasnifini izohlang.
7. Ta'limning texnik vositalariga nimalardan iborat?

MAVZU: TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI.

Tayanch iboralar: tashkil etish, shakl, ta'limni tashkil etish shakli, ta'limni tashkil etish tizimi, dars, darsning turlari, ta'limni tashkil etishning yordamchi 99 shakllari, qobiliyat, ijodiy qobiliyat, iqtidor, tashxis, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari va vositalari.

1. Ta'limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta'lim turlari.

Ta'limning tashkiliy shakli – o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining muayyan tartib va usullar asosida bahamjihat amalga oshiriladigan tashqi ko'rinishi.

Ta'limning umumiy tashkiliy shakllari quyidagi ko'rinishlarda na-moyon bo'ladi:

- 1) o'quvchilar soniga ko'ra – jamoaviy, guruhli, yakka tartibdagi ta'lim;
- 2) o'qish o'rniga ko'ra – ta'lim muassasasi va undan tashqaridagi ta'lim;
- 3) o'quv mashg'ulotlari davomiyligiga ko'ra – 45 daqiqalik ta'lim, 80 daqiqalik ta'lim va h.k.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli xil shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etish shakllariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning keng tarqalgan quyidagi shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) individual (yakka tartibdagi) ta'lim;
- 2) individual-guruhli ta'lim;
- 3) sinf-dars shaklidagi ta'lim;
- 4) ma'ruza-seminar shaklidagi ta'lim;
- 5) sinfdan (auditoriyadan) tashqari ta'lim;
- 6) maktabdan (ta'lim muassasasidan) tashqari ta'lim va sh.k.

Ta'limning mazkur shakllari o'quvchilarni qamrab olishi, ular faoliyatining tashkil etilishi, jamoaviy va individual shakllarning nisbati, mustaqillik darajasi va o'quv jarayoniga rahbarlik qilinishi kabi xususiyatlariga (belgilariga) ko'ra uchta asosiy turga ajratiladi:

- 1) individual (yakka tartibdagi) ta'lim;
- 2) sinf-dars shaklidagi ta'lim;
- 3) ma'ruza-seminar shaklidagi ta'lim;

Ta'limning individual (yakka tartibdagi) shakli qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Bu shakl ta'limning eng qadimiy shakli sifatida e'tirof etilgan. Hayotiy tajribalarni ajdoddan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jami-yatda yuzaga kelgan. Yozuv paydo bo'lishi bilan qavm boshlig'i turli belgilar yordamida o'zining tajribalarini yoshlarga o'rgatgan. O'qituvchi va o'quvchining bevosita va individual munosabatiga misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. Ta'limning tashkil etishning individual shakli antik davrda va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanib kelingan.

Individual ta'lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun bu shakl bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib kelgan. Uning ustunligi o'quv faoliyati mazmuni, metodi va sur'atini to'la individualashtirishda, aniq bir didaktik masalani hal etishda o'quvchining har bir hatti-harakati va didaktik operatsiyalarini kuzatib borishiga imkon berishi bilan ajralib turadi. Individual ta'lim o'qituvchidan yuqori pedagogik malakaga ega bo'lishni talab etadi.

Individual o'qitishning ustunliklari bilan bir qatorda ayrim kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) vaqtning tejamli emasligi;
- 2) o'qituvchi pedagogik ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchilarga topshiriqlar berish va ularning bajarilishini tekshirishdan iborat bo'ladi);
- 3) boshqa o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat bolaning ijtimoiylashish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin);
- 4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

Pedagogika tarixiga oid ayrim adabiyotlarda yuqorida qayd etilgan sabablarga ko'ra XVI asrdan boshlab individual ta'lim shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rnini ta'limning individual-guruhli shakli egallay boshlaganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Ta'limning individual-guruhli shakli aslida Markaziy Osiyo davlatlarida qadim davrlarda paydo bo'lgan. Bunga miloddan avvalgi 1500-1000 yillarda shakllangan Avesto davri misol bo'ladi: bu davrda o'quvchilar uchun aso-siy o'quv

qo‘llanma zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto” hisoblangan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual ta‘lim jamoaviy ta‘lim bilan birga qo‘shib olib borilgan. O‘qituvchi “Avesto” kitoblaridan birini ochib, o‘quvchilar navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o‘qilganlarni takrorlagan, maxsus taxtachalarda mashqlar bajarganlar. Aqliy mashqlar o‘qituvchining o‘quvchi bilan erkin suhbatida bajarilgan. Jismoniy tarbiya individual va jamoaviy mashg‘ulotlar shaklida amalga oshirilgan. Jismoniy tarbiyaning maqsadi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat bo‘lgan. Otda yurish, ov qilish, qilichdan foydalanishni bilish, suvda suzish, yugurish, nayza otish va shu kabilar harbiy tayyorgarlikning majburiy turlari hisoblangan. Ta‘lim olish jarayoni kun chiqandan to kun botgunga qadar davom etgan, uy vazifalari mavjud bo‘lmagan.

Shuningdek, XI asrda Abu Ali ibn Sino “Tadbiri manzil” nomli ilmiy asarining maxsus “Amuzish va parvarishi modrasas farzand” (“Bolalarni maktabda o‘qitish va tarbiyalash”) bo‘limida guruhli-jamoaviy ta‘lim haqida quyidagi tavsiyalarni beradi:

1) agarda o‘quvchilar birgalikda o‘qisalar, ular zerikmaydilar, fanni o‘rganishga qiziqishi kuchayadi; ularda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o‘zaro musobaqalashish istagi rivojlanadi, ular bolaning o‘qishi yaxshilanishiga yordam beradi.

2) o‘zaro suhbatlarda o‘quvchilar kitobdan o‘qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma‘lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar;

3) bolalar birgalikda yig‘ilganlarida bir-birilari bilan do‘stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar; ular faqatgina musobaqalashmaydilar, balki bir-birlariga o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda yordam beradilar; bu bilan bolalar mag‘rurlanadilar, bir-birlaridan yaxshi odatlarni o‘rganadilar.

Burhoniddin Zarnuji (XII asr) “Bilim olish yo‘lida o‘quvchiga maslahatlar” nomli ilmiy asarida dars olish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Uning ko‘p yillik dars o‘tish tajribasi asosida mazkur ilmiy asar yaratilgan va to XX asrgacha Markaziy Osiyo madrasalarida o‘ziga xos pedagogika darsligi sifatida foydalanilib kelingan. Asarda maktabda dars taxminan bir soatlar davom etishi kerakligi yozilgan. O‘qituvchi darsda tushunish va o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan o‘quv materiallarini tanlashi, darsda o‘rganiladigan materiallarni tushuntirib berishi kerak bo‘lgan. O‘quv materiali shunday tanlanishi kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o‘zlashtirilsin. Shuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo‘lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi.

XV asrda guruhli-jamoaviy ta‘limni tashkil etish g‘oyasini Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek davom ettirgan. Mutafakkir o‘zining madrasalarida individual mashg‘ulotlar tizimini bekor qiladi va “guruh-jamoa” (sinf-dars) tizimiga yaqin

bo'lgan shaklni joriy qiladi. Umumiy ma'ruzani 50-70 nafar kishidan iborat katta guruhga o'z sohasida mashhur bo'lgan olim mudarris (katta o'qituvchi) o'qiydi, amaliy mashg'ulotlar esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhda kichik mudarris (o'qituvchi) tomonidan olib boriladi. O'qitishning muhim metodlari munozara va tortishuvlar bo'lgan. Samarqand madrasasida ma'ruzalarni allomaning o'zi va Qozizoda Rumi, Mavlono Muhammad, Ali Qushchi, Avaz Kirmani kabi mashhur olimlar o'qiganlar. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek va uning izdoshlari tomonidan matematika, metafizika, astronomiya, geografiya, tarix fanlaridan yangi darsliklar yaratilgan, bu darsliklar oddiy va tushunarli shaklda yozilgan. Lekin ta'limning "guruh-jamoa" shaklida ham o'ziga xos salbiy jihatlar bo'lgan. Bunday shaklda o'zlashtirishning individual xususiyatlari qat'iy hisobga olinmagan. Yaxshi o'zlashtirmagan ba'zi shogirdlar ham ilg'orlar qatorida bir qo'llanmani o'rganishdan boshqasiga o'z-o'zidan o'tib ketavergan, kerakli bilimni egallay olmagan holda madrasani bitirib chiqqanlar.

Ta'limning individual-guruhli shakli XVI asrda Yevropada keng tarqala boshlangan. Individual-guruhli shaklning mazmuni mashg'ulotlarni o'qituvchi bir o'quvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo'lgan turli yoshdagi bolalar guruhi bilan olib borishidan iborat bo'lgan. O'qituvchi navbat bilan har bir o'quvchidan o'tilgan materialni so'raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan bolalar o'z ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Ta'limning individual-guruhli shaklida bolalar mashg'ulotlarga yilning turli davrlarida, kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo'lgan.

XV va XVI asrlarda Yevropada ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi kuzatilgan. Bu o'zgarishlar ta'limning ommaviy shakllari yuzaga kelishiga zamin yaratgan. Ulardan biri bolalarning guruhli (jamoaviy) ta'limi sanaladi. Bu shakl G'arbiy Rossiyadagi (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlarida) birodarlik maktablarida ilk bor qo'llanilgan va sinf-dars shaklining asoslari shakllangan. Bu tizim XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berilgan va ommaviylashgan. Ya.A.Komenskiy pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars, tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritgan.

Sinf-dars tizimi bundan 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Sinf-dars tizimining mazmuni o'quv ishlarini tashkil etishning o'ziga xos shakli sifatida quyidagilardan iborat bo'ldi:

1) bir xil yoshdagi va taxminan bir xil tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o'qishning umumiy davrida doimiy tarkibini saqlab qoladi;

2) sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning ma'lum bir vaqti va oldindan belgilangan kuni, soatlarida kelishlari shart bo'ladi;

3) mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

4) dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois o'quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;

5) darsda o'quvchilarning ishiga o'qituvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalari, har bir o'quvchining bilimini alohida baholaydi va yil oxirida o'quvchini keyingi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qiladi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklning hamma afzalliklarini ilmiy asoslab beradi. Dars, uning tashkiliy tuzilmasi va turlarining ixcham nazariyasini yaratadi.

Darsni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo'shgan. U o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga taalluqli ta'lim tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqqan, o'quvchilarning yosh bilan bog'liq imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab bergan.

Ta'limning sinf-dars tizimi, uning afzalliklari va kamchiliklari didaktika va ayrim o'quv fanlarini o'qitish metodikasiga oid asarlarda har tomonlama ochib berilgan.

Sinf-dars tizimining afzalliklari:

1) yaxlit o'quv-tarbiya jarayonining tartibli kechishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim ekanligi;

2) jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarni shakllantirish imkoniyati mavjudligi;

3) o'qituvchining o'quvchilarga, ularning tarbiyasiga doimo hissiy ta'sir ko'rsata olishi;

4) ta'limning hissiyligi, o'quv faoliyatiga musobaqa elementlarini kiritish uchun sharoitlar yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Sinf-dars tizimining kamchiliklari:

1) tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklar yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanishi sur'ati ortga surilishi;

2) o'qituvchi uchun ta'lim mazmuni, sur'atlari va metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishdga qiyinchiliklarning yuzaga kelishi;

3) katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning to'kis qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida aqliy rivojlanishida bir-biridan farqlanuvchi bolalarning ta'limini individuallashtirishga ahamiyat berish masalasi dolzarb xususiyat kasb etadi. Shunga mos ravishda tanlab o'qitish shakli (AQShda Batov, Yevropada Maingeyms tizimi) vujudga keladi.

XX asr boshida Yevropa va AQShda o'quvchilarning individual, faol va mustaqil o'quv ishlarini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'riladi. 1905 yili Dalton shahrida (AQShning Massachusets shtati) o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng mashhuri hisoblangan. Bu tizim dalton reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirgan. U ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham atalgan.

Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat bo'lgan: maktab ishini, uning faoliyat ko'rsatish sur'atini har bir o'quvchining imkoniyati va qobiliyatlariga moslashtirish: o'quvchining mustaqil o'quv faoliyati - an'anaviy ta'limning negiziga (yadrosiga) aylanishi, o'qituvchining vazifasi – o'quvchilarning mustaqil faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iborat ekanligi, o'quv laboratoriyalari va ustaxonalarining paydo bo'lishi, darslar va ularning jadvali bekor qilinishi, o'qituvchining yangi materialni nazariy tushuntirmasligi, o'quvchining laboratoriya yoki ustaxonalarda o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlar asosida mustaqil shug'ullanishi va zarur paytda o'qituvchidan yordam so'rashi.

Mazkur tizim bir qator kamchiliklariga ko'ra keskin tanqidga uchragan.

XX asrning 20-yillarida ta'limning loyihaviy tizimi (o'quv jarayonini loyihalarni amalga oshirish orqali tashkil etish) targ'ib qilina boshlagan. Uni amerikalik pedagog Uilyam Kilpatrik ishlab chiqqan. Bu tizimning mazmuni: o'quvchilarning o'zlari loyiha ishi mavzularini tanlab olgan va ularni bajargan. Loyiha ishi haqiqiy hayot bilan bog'liq bo'lishi va o'quv guruhining yo'nalishlariga ko'ra ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy turmushning ayrim jihatlarini aks ettirishi kerak bo'lgan.

60-yillarda Tramp rejasi (jamoaviy ta'lim) juda mashhur bo'lgan. Uni amerikalik pedagog professor Lloyd Tramp ishlab chiqqan. Ta'limni tashkil etishning bu shaklida o'qish vaqtining 40 foizi katta auditoriyalardagi (100-150 kishi) nazariy mashg'ulotlarga, 20 foizi kichik guruhlardagi (10-15 kishilik) seminar mashg'ulotlariga va 40 foizi o'quv xonalari, laboratoriyalarda o'quvchilarning individual tarzda mustaqil amaliy ishlarni bajarishiga sarflangan.

70-yillarda ta'limni tashkil etish noan'anaviy shakllarini izlash davom etgan. Tajriba-sinov ishlari asosan sinf-dars tizimini modernizatsiyalashga yo'naltirilgan. Barcha izlanishlarning asosiy maqsadi – ta'limni individuallashtirishga qaratilgan.

Ma'lumki, jahonda ilk universitetlar paydo bo'lishi bilan ta'limning **ma'ruza-seminar tizimi** vujudga kela boshlagan. Uning mazmuni paydo bo'lgan vaqtdan buyon deyarli katta o'zgarishga uchramagan. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, maslahat va tanlangan kasb bo'yicha amaliyot o'tkazish hozirgacha ma'ruza-seminar tizimi sifatida ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib qolmoqda. Ma'ruza-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy maktab va undan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi.

2. Darsning turlari va tuzilishi.

Dars - ta'lim jarayoni yaxlitligi nuqtai nazaridan ta'limning asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi.

Dars – o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan materialni (bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni, dunyoqarashlik va axloqiy-estetik g'oyalarni) o'zlashtirish maqsadida tashkil etilgan ta'lim shakli.

Darslar ta'limning sinf-dars tizimida qo'llaniladi va tarkibi deyarli doimiy bo'ladigan o'quv jamoalari, ya'ni sinflar uchun uchun o'tkaziladi.

Zamonaviy darsga qo'yilgan asosiy talablar:

1) darsni fanning eng yangi yutuqlari, ilg'or pedagogik texnologiyalar va pedagogik qonuniyatlar asosida tashkil etish;

2) darsda didaktik tamoyillar va qoidalarning o'zaro uyg'un nisbatini ta'minlash;

3) o'quvchilarning qiziqishi, layoqati va ehtiyojlari asosida ularning bilish faoliyati uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish;

4) o'quvchilar anglaydigan darajada fanlararo aloqadorlikni o'rnatish;

5) o'quvchilarning rivojlanish darajasi va oldin o'rgangan bilimi va ko'nikmalariga tayanish;

6) shaxs kamolotini qo'llab-quvvatlash va faollashtirish;

7) o'quv-tarbiyaviy faoliyat bosqichlarining mantiqiyligi va jo'shqinligini ta'minlash;

8) xilma-xil pedagogik vositalardan samarali foydalanish;

9) o'quvchining shaxsiy tajribasiga, hayotiy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayanish;

10) zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni, tafakkur va faoliyatning oqilona usullarini shakllantirish;

11) o'qish va bilimlar hajmini doimiy ravishda ko'paytirib borishga ehtiyojni shakllantirish;

12) darsni puxta rejalash va loyihalashtirish.

Darsning asosiy turlari:

- 1) aralash dars;
- 2) yangi bilimlarni egallash darsi (ma'ruza dars);
- 3) ko'nikma va malakalarni shakllantirish darsi (amaliy dars);
- 4) bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darsi;
- 5) bilimlarni takrorlash va mustahkamlash darsi;
- 6) bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va tuzatish darsi;
- 7) noan'anaviy dars.

Dars turlarining tuzilmalari o'ziga xos bo'lib, ular bir-biridan jid-diy farqlanadi.

I. Aralash dars tuzilmasi: tashkiliy yo'l-yo'riqlar;

- 1) o'quvchilarning bilimlari (uyga berilgan topshiriqlar) puxtaligini tekshirish;
- 2) o'qituvchi va o'quvchilarning yangi bilim, ko'nikma va malakalarni berishi-o'zlashtirishi bo'yicha birgalikdagi harakati (yangi mavzuni o'rganish);
- 3) o'rganilgan materilni mustahkamlash va mashqlar bajarish;
- 4) bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishini baholash (yoki ball qo'yish);
- 5) uyga vazifalar va topshiriqlar yuzasidan ko'rsatmalar berish.

Darsni yakunlash.

II. Yangi bilimlarni egallash darsi (ma'ruza dars): tashkiliy yo'l-yo'riqlar;

- 1) uyga vazifalarning bajarilishini tekshirish, o'quvchilarning tayanch bilimlarini aktuallashtirish va yaxshilash;
- 2) darsning mavzusi, maqsadi, vazifalarini aytish va o'quvchilarning o'quv faoliyatini motivatsiyalash;
- 3) yangi materialni idrok etish va birlamchi anglash, o'rganish ob'ektlaridagi aloqa va munosabatlarni tushunish;
- 4) bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, turli vaziyatlarda qo'llash;
- 5) uyga vazifalar va topshiriqlar yuzasidan ko'rsatmalar berish;

Darsni yakunlash.

III. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish darsi (amaliy dars): tashkiliy yo'l-yo'riqlar;

- 1) uyga vazifalarning bajarilishini tekshirish, o'quvchilarning tayanch bilim, ko'nikma va tajribalarini aktuallashtirish va yaxshilash (shakllangan tayanch ko'nikma va malakalarning asosiy elementlarini takrorlash)

2) darsning mavzusi, maqsadi, vazifalarini aytish va o'quvchilarning o'quv faoliyatini motivatsiyalash

3) hatti-harakat usullari va qoidalarini o'rganish (ilk mashq va topshi-riqlarni bajarish orqali ko'nikmalarning yangi qirralari va odatdagi va-ziyatlarda ko'nikma, malakalarning shakllanish namunasi bilan tanishish);

4) olingan bilimlarni dastlabki qo'llash (virtual laboratoriya ishlari va sinov mashqlarini bajarish);

5) standart sharoitlarda ko'nikmalarni rivojlantirish uchun o'quvchilar bilimi va hatti-harakatlarini amalda qo'llash (o'quv-trenirovka mashqlarini bajarish)

6) malakalarni shakllantirish uchun bilim va ko'nikmalarni yangi yoki o'zgargan sharoitga ijodiy ko'chirish (ijodiy mashqlar bajarish);

7) uyga vazifalarni tushuntirish.

8) Darsni yakunlash.

IV. Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darsi: tashkiliy yo'l-yo'riqlar;

1) darsning mavzusi, maqsadi, vazifalarini aytish hamda o'quvchilarning o'quv faoliyatini motivatsiyalash;

2) o'quvchilarning tayanch bilimlarini esga tushirish va yaxshilash;

3) asosiy dalillar, hodisalar va jarayonlarni takrorlash va tahlil qilish;

4) yangi dalillarni tushunish va amaliy topshiriqlarni bajarish uchun tushunchalarni umumlashtirish, tizimlashtirish hamda bilimlar tizimini o'zlashtirish;

5) bilimlarni tizimlashtirish asosida yetakchi g'oyalar va asosiy nazariyalarni o'zlashtirish;

6) uyga vazifalarni tushuntirish.

7) Darsni yakunlash.

V. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va tuzatish darsi: tashkiliy yo'l-yo'riqlar;

1) o'quvchilarning o'quv faoliyatini motivatsiyalash va darsning mavzusi, maqsadi, vazifalarini aytish;

2) o'quvchilarning aniq materiallar va asosiy tushunchalar haqidagi bilimlarini, hodisa va jarayonlardagi ichki va tashqi aloqalarni ochish ko'nikmasini sinab ko'rish;

3) bilimlarni tushunish chuqurligi va ularni umumlashtirish darajasini tekshirish (yozma so'rov, mustaqil ish, umumlashtiruvchi jadvallar tuzish va to'ldirish);

4) o'quvchilarning standart sharoitda bilimlarni amalda qo'llashi;

5) o'quvchilarning o'zgargan (nostandart) sharoitda bilimlarni amalda qo'llashi;

6) bajarilgan topshiriqlarning natijalarini tekshirish, tahlil qilish va baholash;

7) uyga vazifalarni tushuntirish.

Darsni yakunlash.

VI. Noan'anaviy darslar – o'quvchilarda o'quv mehnatiga qiziqishni vujudga keltirish va saqlab qolishga yo'naltirilgan noan'anaviy tuzilmali o'quv mashg'ulotlari.

Bugungi kunda noan'anaviy darslarning quyidagi shakllari keng tarqalgan: ma'ruza darsi; seminar darsi; o'yin darslari (musobaqa, auksiya, tanlov va h.k.), maslahat darsi; ekskursiya darsi; sinov darsi; amaliy o'yin darslari ("sud", konferensiya, matbuot anjumani); bilog'onlar darsi; ijodiyot darsi; ijodiy hisobot darsi; kompyuter darsi; umumlashtirish darsi; xayoliyot darsi; konsert darsi; teatrlashtirilgan dars; fanlararo dars. Noan'anaviy darslar o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo'lishiga qaramay, amaliyot-da o'quvchilar qiziqishini oshirish maqsadida keng qo'llanilmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik amaliyotda "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" tushunchasidan keng foydalanilmoqda. Bu tushuncha ta'lim jarayonida har bir ta'lim oluvchiga imkon qadar individual (yakka tartibda) yondashishni, uning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olishni, ya'ni shaxsini tan olish, har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zaruriy muhit yaratishni va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni anglatadi.

Agar mazkur tushuncha mohiyati chuqur pedagogik tahlil etilsa, quyidagi savol tug'iladi: ta'lim aslida kimga yo'naltirilishi kerak? Albatta, ta'lim oluvchining shaxsiga. Shunday ekan, nega "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" deb nomlanishi kerak? Vaholanki, har qanday ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari, shakllari va vositalari, biz istaymizmi-yo'qmi, odatda ta'lim oluvchiga, uning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Gap shundaki, bu tushuncha ta'lim markaziga o'quvchi shaxsi qo'yilganligini anglatadi, uni ustuvor mo'ljalga aylantiradi. Bu esa pedagoglar oldiga bajarilishi shart bo'lgan qator an'anaviy va noan'anaviy talablar majmuini qo'yadiki, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- 1) har bir ta'lim oluvchini alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
- 2) ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilishi;
- 3) ta'lim oluvchining psixologik holatini to'g'ri baholashi;
- 4) ta'lim oluvchining xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- 5) har bir ta'lim oluvchiga tolerantlik (bag'rikenglik) munosabatini namoyon qilishi;
- 6) ta'lim oluvchining iqtidori, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- 7) har bir ta'lim oluvchi uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi;
- 8) ta'lim oluvchilarning yakka tartibda mustaqil yoki kichik guruhlarda erkin ishlashi uchun imkoniyat va shart-sharoitlar yaratishi;

9) ta'lim oluvchilarni o'z faoliyatini o'zi mustaqil nazorat qilishga, yutuqlari omillari va yo'l qo'ygan xatolari oqibatini tahlil qilishga o'rgatishi;

10) ta'lim jarayonida hech bir ta'lim oluvchiga tazyiq o'tkazmasligi;

11) ta'lim oluvchining kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmasligi;

12) ta'lim oluvchi tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik yoki odob-sizlik holati qayd etilsa, tezda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlashi;

13) aniqlangan sabablar asosida ta'lim oluvchining sha'ni, g'ururiga ziyon etkazmasdan shu kabi salbiy holatlarni bartaraf etishi;

14) ta'lim jarayonida har bir ta'lim oluvchi uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olishi;

15) har bir ta'lim oluvchining muvaffaqiyatga erisha olishiga amaliy yordam ko'rsatishi;

16) ta'lim oluvchining ijodiy qobiliyatini o'stirishi, uning shaxs sifatida shakllanishini to'g'ri boshqarishi.

Mazkur talablar har bir pedagogdan o'z ishiga doimo ijodiy yondashishni, mas'uliyatli munosabatda bo'lishni taqozo qiladi. Aks holda, pedagog raqobatbardosh bo'la olmaydi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Hozirgi vaqtda ta'limni tashkil etishning qanday shakllari mavjud?
2. Ta'limni tashkil etishning individual tizimiga ta'rif bering.
3. Sinf-dars tizimining afzalligi va kamchiliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Ma'ruza-seminar tizimining o'ziga xosligini izohlang.
5. Darsning qanday turlari mavjud?

MAVZU: O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH.

Tayanch iboralar: tashxis, tashxis etish, nazorat, hisobga olish, tekshirish, baholash, baho, ta'lim sifati, monitoring.

1. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. Tashxis - bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari. Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi birinchi bo'g'in ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi.

Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bo'g'ini har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materiali mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchinchi bo'g'ini sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari

bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutilgan samarani beradi. Tizimning to'rtinchi bo'g'ini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy tekshirish hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi - kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi - tizimlashtirish va umumlashtirish. Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bo'g'in ta'lim oluvchilarning, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi.

Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakich, qolip, o'lichagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. Baho deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi.

O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va xokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Hisobga olish - bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O‘zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o‘quv materiallarini o‘rganishning keyingi bosqichiga o‘tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o‘qituvchining o‘quv metodlarini va usullarini to‘g‘ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o‘quv materiallarini o‘rganishning maqbul yo‘llarini topish bilan bog‘liqdir.

O‘qitish vazifasi o‘quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko‘rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o‘quvchilarning o‘tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo‘lgan ma‘lumotlarni bilib olishlariga imkon tug‘iladi.

Nazoratning tarbiyalash vazifasi shundan iboratki, o‘quvchilar tekshirishga tayyor bo‘lish uchun darslarni o‘z vaqtida tayyorlaydilar, bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o‘rganadilar.

Agar nazoratning o‘qitish va tarbiyalash vazifalari to‘g‘ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, xis-tuyg‘ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug‘iladi. Bu esa o‘z-o‘zidan nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi sanaladi.

2.Ta’lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillari.

Ta’lim sifati – ta’limning ijtimoiy majmu, jarayon va natija sifatida shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiqligi; inson kamoloti ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini ta’minlovchi ta’lim xizmatlari iste’mol xususiyatlarining majmui.

Ta’lim sifatini aniqlovchi asosiy omillar va obyektlar:

- 1) pedagoglar tarkibi;
- 2) o‘quv-metodik ta’minot;
- 3) moddiy-texnik ta’minot;
- 4) ta’lim muassasasining intellectual ma’naviy salohiyati;
- 5) o‘quvchi-bitiruvchilar.

Ta’lim sifatini pedagogik tashxislash tamoyillari majmui:

1) adolatlilik (obyektivlik) tamoyili – tashxislash testlari (topshiriqlari, savollari), tashxislash jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta’lim oluvchilarga do‘stona munosabati hamda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni baholashning aniq shaklda belgilangan mezonlaridan iborat bo‘ladi. Amalda tashxislash adolatliligi qo‘yilgan baholarni nazorat qilish metodlari va vositalaridan, tashxis o‘tkazgan o‘qituvchi shaxsidan qat’iy nazar, xamma vaqt mosligini anglatadi;

2) muntazamlilik (tizimlilik) tamoyili talabi shundan iboratki, tashxislash nazorati ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida: bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan toamalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borilishi kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi, ko'nikmasi, malakasi va egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarining barcha jihatlarini ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazorati tez-tez, davriy o'tkazilib turilishi kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birgalikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu tamoyil tashxislashning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi;

3) ko'rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxislash jarayonida aniqlangan har bir o'quvchining reytingi ko'rgazmali,

qiyosiy xarakterga ega bo'ladi. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljal (oriyentir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Bu tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashxislash natijalarini e'lon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, kamchiliklarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

3.O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari.

Nazorat qilishning turlari va izchilligi:

1) o'quvchi talabalarning bilim darajasini oldindan aniqlash o'quv yili boshida, o'quv fani (kurs) yoki bo'limni o'rganish oldidan o'tkaziladi;

2) joriy tekshirish (nazorat) - har bir mavzuni o'rganishda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning o'zlashtirilishini muntazam ravishda tekshirib borish uchun so'rovlar, nazorat ishlari yoki testlar ko'rinishida o'tkaziladi. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'quvchi talabalarning har bir o'quv ishini va o'rgangan mavzularni o'zlashtirishi bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar shakllanganlik darajasini muntazam ravishda tekshirishni o'z ichiga oladi. Bu darajalarni tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ball (baho) qo'yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o'qituvchini har bir o'quvchitalabani o'quv faoliyati bo'yicha tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi va o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natijalar beradi, o'zlashtirmagan o'quvchi talabalarni o'z vaqtida aniqlaydi va o'zlashtirmaslik sabablarini bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqishga asos bo'ladi;

3) oraliq tekshirish (nazorat) - o'quv dasturining bir qismi tugaganda amalga oshiriladi va u yozma nazorat ishi yoki testlar ko'inishida olib boriladi. U ikki xil shaklda bo'lishi mumkin:

a) mavzuiy nazorat – ma'lum bir mavzular o'rganilgandan keyin bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning o'zlashtirilishi;

b) davriy nazorat - fanning muayyan bo'limi yoki katta mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning o'zlashtirilishi;

Bu nazorat orqali o'quvchi talabalar tomonidan tegishli o'quv fanining muayyan bobi yoki bo'limlari o'zlashtirilganligi tekshiriladi. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida va darsda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda o'tkazishi mumkin.

Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin o'quvchi talabalar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi;

4) bosqichli tekshirish (nazorat) - chorak, yarim yil (semestr) va o'quv yili tugaganda og'zaki, yozma imtihon hamda test sinovlari ko'inishida amalga oshirilib, unga asosan o'quvchi talabaning yakuniy bahosi, reytingi aniqlanadi va o'quvchi-talabani keyingi sinfga (kursga) o'tkazishga qaror qilinadi;

5) yakuniy tekshirish (nazorat) – muayyan bir ta'lim turlari, masalan, tayanch, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional yoki oliy ta'lim tugaganidan so'ng yakuniy davlat attestatsiyasi shaklida o'tkazilib, ta'limtarbiya olishda erishilgan daraja tashxislanadi. Nazorat qilishning barcha turlari o'ziga xos nazorat qilish metodlari vositasida o'tkaziladi.

Nazorat qilish metodlari – o'quv jarayoni haqida ma'lumot olishga, uning samaradorligini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan tashxisiy faoliyat uslublaridir. Nazorat qilishning quyidagi metodlari farqlanadi:

1) og'zaki nazorat metodlari savol-javob shaklidagi so'rov (yoppasiga, yakka tartibda), suhbat, sinov, og'zaki imtihon, matnni o'qish;

2) yozma nazorat metodlari – nazorat ishi, diktant, bayon, insho, referat, test, yozma sinov va imtihon;

3) amaliy nazorat metodlari – amaliy va laboratoriya ishlari, ilmiy tajriba va sinov ishlari, masalalar yechish, chizma va xaritalar chizish, asbob uskunalar yasash va h.k.;

4) dasturlashtirilgan nazorat metodi - kompyuterdan foydalangan holda;

5) reyting nazorati metodi - o'quvchilar bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasi ko'rsatkichlarini joriy (og'zaki so'rov, test, suhbat, nazorat ishi, uy vazifasini tekshirish), oraliq (yozma va og'zaki so'rov, test) va yakuniy (tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “yozma ish”) aniqlash va baholash.

Nazorat metodlari turlarining o'ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud.

Nazorat qilish shakllari o'quv ishlarini tashkil etish shakllariga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi uni mavzulardan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy to'rtta shakli mavjud:

1) ommaviy (yoppasiga) nazorat) - o'qituvchi o'quvchilarga o'tilgan materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savollar beradi, o'quvchilar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchini nazorat qilish imkonini beradi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o'quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi;

2) guruhli nazorat - o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifalar beriladi va guruh tomonidan bajariladi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham qatnashishlari mumkin. Guruh ishlayotgan paytda boshqa o'quvchilar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlari bajargan ishlarini baholashi uchun o'z ustida ishlab o'tiradi;

3) yakka tartibdagi nazorat har bir o'quvchida shakllangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida har bir o'quvchiga alohida topshiriqlar beriladi, odatda, o'quvchilar javob berish uchun sinf doskasi oldiga chaqiriladi;

4) o'z o'zini nazorat qilish ta'lim jarayonida ichki qaytar aloqaning bo'lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq.

4.Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

Nazorat qilish shakllari o'quv ishini tashkil etish shakllari va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlashga bevosita va bilvosita bog'liq bo'ladi.

O'zlashtirish - DTSda (o'quv dasturida) belgilangan va o'quvchi amalda egallagan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi o'rtasidagi nisbatni ifodalovchi ta'lim samaradorligi ko'rsatkichi (10.3-rasm).

O'zlashtirish ko'rsatkichi:

$$B = AT * 100 \%$$

B – o'zlashtirish bahosi;

A – amalda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar hajmi;

T– o'zlashtirish uchun taklif etilgan bilim, ko'nikma, malakalarning to'liq hajmi.

Baho – baholashning ball shaklida ko'rsatilgan sonli o'lchovi; o'quvchilar o'qishini rag'batlantirish va unga ta'sir ko'rsatuvchi vosita.

Baholash - bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (belgilangan o'lchov birligi) bilan solishtirish.

O'quvchilar bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahs talab mavzu bo'lib kelgan. Chunki ular turli

adabiyotlarda turlicha talqin etilgan, yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsadi va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh) o'quvchilarining o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

5 ballik tizimda:

“5” baho qo'yiladi, agarda: a) o'quvchi dasturdagi o'quv materialini to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; b) o'rganilgan mavzular bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bersa; v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo'llay olsa; g) o'rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa, ya'ni to'liq egallagan bo'lsa;

“4” baho qo'yiladi, agarda: a) o'quvchi o'rganilgan o'quv materialining mohiyatini bilsa; b) o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bersa; v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olsa; g) og'zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo'lmagan xatoga yo'l qo'ysa, ya'ni yetarli darajada egallagan bo'lsa;

“3” baho qo'yiladi, agarda: a) o'quvchi o'rganilgan materialni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzilishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatoliklarga yo'l qo'ysa, ya'ni yetarli darajada egallamagan bo'lsa;

“2” baho qo'yiladi, agarda: a) o'quvchi o'rganilgan material haqida tushunchaga ega, biroq uni o'zlashtirmagan bo'lsa, b) yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa, ya'ni, egallamagan bo'lsa;

100 ballik tizimda:

“5”baho qo'yiladi – 100-86 ball to'plagan bo'lsa;

“4” baho qo'yiladi – 85-71 ball to'plagan bo'lsa bo'lsa,

“3” baho qo'yiladi qo'yiladi – 70-56 ball to'plagan bo'lsa,

“2” baho qo'yiladi – 55-0 ball to'plagan bo'lsa.

O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish va baholashga qo'yilgan pedagogik talablar:

1) har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholash;

2) o'quvchining o'zlashtirish nazoratini butun ta'lim jarayoni davomida muntazam o'tkazish;

3) nazorat va baholashni xilma-xil shakllarda o'tkazish;

- 4) o‘quv dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalarni to‘liq qamrab olish;
- 5) o‘quvchilar o‘zlashtirishini adolatli baholash;
- 6) o‘zlashtirishni hisobga olishning turli metodikasini tabaqalashtirilgan holda qo‘llash;
- 7) o‘zlashtirishni hisobga olishda barcha o‘qituvchilar talablari bir xilligini ta‘minlash.

Zamonaviy sharoitda nafaqat ta‘lim jarayonida, balki o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini nazorat qilishda innovatsion tabiatga ega vositalardan keng foydalanilmoqda. Xususan, “o‘quv portfoliosi” va “assessment” texnologiyasi bunga yaqqol misol bo‘ladi. “Portfolio” (inglizcha - portfel yoki portfellar to‘plami) avtobiografik xususiyatga ega hujjatlar to‘plamidir. Mohiyatiga ko‘ra o‘quv portfoliolarining bir necha turlari farqlanadi: hujjatlar portfoliosi, ishlar portfoliosi, natijalar portfoliosi va h.k. Ulardan biri baholovchi portfolio bo‘lib, u o‘quvchi talabning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida shakllantiriladi. Bu portfolioda nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va sh.k. o‘rin oladi.

“Assesment” texnologiyasi (inglizcha – baho, baholash) - o‘quvchi talabalarning bilim, ko‘nikma va malaka darajasini har tomonlama xolis baholash imkoniyatini ta‘minlovchi topshiriqlar to‘plami bo‘lib, u biografik anketa, ta‘limdagi yutuqlar bayoni, o‘quv individual topshiriqlar, bahsmunozara, intervyu, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatish, rolli hamda ishbilarmonlik o‘yinlari kabilardan tashkil topadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ta‘lim olganlikni tashxis etishning mohiyatiga izoh bering?
2. Ta‘lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillariga nimalar kiradi?
3. O‘quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari haqida fikringizni izohlang?
4. Bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlari deganda nimani tushinasiz?

III BOB. TARBIYA NAZARIYASI.

MAVZU: TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.

Tayanch iboralar: tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiyaning maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiyaning umumiy vazifalari, tarbiya turlari, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari, tarbiya metodlari, tarbiya usullari, shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar, faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlar, xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlar.

1. Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati.

Tarbiya - keng ijtimoiy ma'noda – jamiyatda to'plangan ijtimoiy-madaniy tajribalar, axloqiy qadriyat va me'yorlarning avlod-dan-avlodga o'tkazilishini ta'minlovchi, shaxsni shakllantiruvchi barcha ijtimoiy omillar (ta'sirlar) majmui.

Tarbiya - ijtimoiy hodisa sifatida – o'sib kelayotgan yosh avlodga jamiyat va inson hayot faoliyatining barcha sohalariga oid ijtimoiy-tarixiy tajribani o'tkazish jarayoni.

Tarbiya - pedagogik hodisa sifatida – odamga madaniyatni o'zlashtirish sharoitlarini yaratish; uzluksiz tarbiyaviy ta'sirlar ko'rsatish orqali madaniyatni odamning shaxsiy tajribasiga aylantirish jarayoni.

Tarbiya - obyektiv, barchaga baravar taalluqli jarayon bo'lib, u oila, mahalla, ma'rifiy va boshqa muassasalarda amalga oshiriladi.

Pedagogika jarayonida tarbiya eng muhim o'rin tutadi. Shaxsni shakllantirish, boshqarish, kamol toptirish nazorat xususiyatiga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy hatti-harakatlar orqali emas, balki oldindan belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib boriladi.

Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

1) jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi va ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

2) jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan hajmda ijtimoiy madaniyatli "inson kapitali"ni tayyorlash;

3) jahon xalqlari madaniyatlarining o'ziga xosligi va o'zaro kirishishi orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;

4) ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining hatti-harakatini tartibga solish.

Pedagogik jarayonda tarbiyaning vazifalari:

- 1) shaxsni yaxlit kamol toptirish;
- 2) shaxsda axloqiy fazilatlarni shakllantirish;
- 3) o'quvchilarni ijtimoiy qadriyatlar bilan tanishish;
- 4) shaxsda faol hayotiy nuqtai nazarni tarbiyalash;
- 5) shaxsning moyilligi, qobiliyati va qiziqishini ichki imkoniyati, istagi va ehtiyojlari asosida rivojlantirish;
- 6) o'quvchilar ongini rivojlantirish;
- 7) shaxsning tarbiya maqsadlari bilan bog'langan xilma-xil faoliyatini tashkil etish;
- 8) shaxsda muloqot madaniyatini rivojlantirish.

Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiyaning mazmuni ijtimoiy buyurtma asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlar mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi:

- 1) har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi;
- 2) tarbiyaning maqsadi jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- 3) milliy tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Shunday ekan, tarbiya pedagogikaning asosiy tushunchalaridan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga kelgan. Eng avvalo, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi: tarbiya, keng ma'noda, ijtimoiy hodisa, ya'ni shaxsni ijtimoiylashtirish sifatida, tor ma'noda, pedagogik hodisa, ya'ni pedagogning tarbiyaviy faoliyati, ishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik jarayonda tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, tarbiya – rivojlanayotgan shaxsni ijtimoiy tajribani egallash, tarbiyaviy faoliyatga jalb etish va rag'batlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. O'z-o'zini tarbiyalash - shaxsning o'zida ijtimoiy qadr-qimmatli ijobiy fazilatlarni hosil qilishi, salbiylarini bartaraf etishiga qaratilgan ichki faoliyati. O'z-o'zini tarbiyalash quyidagicha tashkil etiladi:

- 1) shaxsning o'zini-o'zi bilishi;
- 2) shaxsning o'z ustida ishlash dasturini tuzishi;
- 3) shaxsning o'z dasturni amalga oshirishi.

Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakllari, metodlari, usullari, vositalari va tashkil etilishi muammolarini o'rganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi Sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlarning ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi hamda pedagogik menejment bilan uzviy bog'liq.

2. Tarbiya jarayonining tizimi va tuzilishi hamda uning turlari.

Ta'lim muassasasi - ma'rifiy vazifalarni bajaruvchi, o'zaro bog'liq moddiy (bolalar, pedagoglar, o'quv-texnika vositalari) va nomoddiy (axborot) tarkibiy qismlarga, kirish (axborot olish) va chiqish (axborot berish) ko'rsatkichlariga, turg'unlik, barqarorlik xususiyatiga ega muvozanatlashgan va ma'rifiy boshqaruv organlariga bo'ysunadigan, tashqi muhit bilan aloqador va o'zgaruvchan ochiq tuzilma, ya'ni o'ziga xos tarkibiy qismlardan tashkil topgan pedagogik tizimdir.

Pedagogik tizim (majmui) - yangi sifatlar (o'qimishlilik, tarbiyalan-ganlik) hosil qiladigan, tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlar ichki va tashqi ta'sirlar tufayli o'zgarishi mumkin bo'lgan nisbatan barqaror pedagogik obyektlar (hodisalar, jarayonlar) majmui, ularning bir butunli-gi, ya'ni yaxlitligi.

Tizimli (majmuli) yondashuv – pedagogik obyektlarni tizim, majmu sifatida qarab chiqishni nazarda tutuvchi metodologik asos. Tizimli (majmuli) yondashuvning bir necha darajalari farqlanadi:

- 1) ontologik darajasi – tarbiyaviy majmu-tizimning asosiy va umumlashtiruvchi tushunchalari;
- 2) gnoseologik darajasi – tarbiyaviy majmui tizimning tarkibiy qismlari, maqsadi, qaytar aloqalari va tashqi muhit bilan o'zaro bog'diqligi;
- 3) metodologik darajasi – tarbiyaviy majmu-tizimning tarkibiy qismlarini ro'yobga chiqaruvchi, amalga oshiruvchi nazariy modellar;
- 4) prakseologik darajasi – eng maqbul nazariy modellarning amaliyotga tatbiqi.

Tarbiyaga tizimli yondashish uning o'ziga xos tarkibiy qismlari, ya'ni tarbiya turlari va ularga muvofiq tarzda shakllanadigan madaniyat va uning turlaridan tashkil topganligini ko'rsatadi.

Tarbiya va madaniyatning tarkibiy qismlari (turlari):

1) aqliy tarbiya – shaxsda aqliy-ma’naviy madaniyat asoslari va bilish-fikrlash faoliyati, dialektik tafakkur va o‘quv mehnatini to‘g‘ri tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va o‘quvchilarda o‘quv mehnati madaniyatini shakllantiradi. Aqliy tarbiya - ta’lim oluvchilarning aql-zakovati, bilish imkoniyatlari, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Uning asosiy vazifasi - o‘quvchilarni fan asoslari bo‘yicha ilmiy bilimlar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Natijada shaxsning aqliy taraqqiyoti sodir bo‘ladi. Aqliy rivojlanish “fikrlash”da namoyon bo‘ladi. Fikrlash – shaxsning bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, voqe-likni bevosita va umumlashgan holda aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, fikrlash – aqliy faoliyat mahsulidir;

2) ahloqiy tarbiya – ahloqiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida o‘quvchilar ongi, hissiyoti, xulq-atvoriga doimiy ma’naviy-ahloqiy ta’sir ko‘rsatadi va o‘quvchilarda axloqiy tarbiyalanganlik va axloqiy madaniyat fazilatlari shakllantiradi;

3) siyosiy tarbiya – shaxsning siyosiy tizimga muayyan munosabati va siyosiy munosabatlarga jalb etilganlik darajasini shakllantirish va rivojlantirish orqali siyosiy tarbiyalanganlik va siyosiy madaniyat shakllantiriladi;

4) ekologik tarbiya - shaxsda ekologik bilimlar, qadriyatli mo‘ljallar, xulq-atvor me’yorlari va atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha amaliy faoliyat ko‘nikmalari rivojlantiriladi va shu orqali ekologik tarbiyalanganlik va ekologik madaniyat shakllantiriladi;

5) mehnat tarbiyasi – ishlab chiqarish tajribasi, mehnat ko‘nikma va malakalari hamda mehnatsevarlik fazilatini rivojlantirish maqsadida o‘quvchilar ijtimoiy foydali mehnat turlariga jalb etiladi, kasbga yo‘llanadi va mehnat madaniyati shakllantiriladi;

6) nafosat tarbiyasi - hayot va san’atdagi go‘zal va xunuk, kulguli va fojiali holatlarni idrok etish, his qilish va baholashga qobiliyatli ijodiy faol shaxs va ularda nafosat madaniyati shakllantiriladi;

7) jismoniy tarbiya – bolalar jismoniy madaniyat-sport tadbirlariga jalb etiladi va ularning sport-sog‘lomlashtirish faoliyati orqali jismoniy madaniyati shakllantiriladi;

8) fuqarolik tarbiyasi - o‘quvchilarni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo‘lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan, muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxs. Fuqarolik - huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etishi, ma’lum huquqlardan foydalanishi va o‘z burchini bajarishga mas’ullik bilan yondashishi, mehnat jarayoni va jamoadagi faolligi, ma’naviy yetukligi asosida muayyan

davlatga mansublik. Fuqarolik tarbiyasi vositasida fuqarolik madaniyati shakllantiriladi.

Shuning tarbiya nazariyasi va amaliyotida tarbiyaning boshqa yoʻnalishlari (turlari) ham farqlanadiki, shunga muvofiq tegishli madaniyat turlari shakllantiriladi. Masalan, huquqiy tarbiya vositasida huquqiy madaniyat, iqtisodiy tarbiya vositasida iqtisodiy madaniyat, jinsiy tarbiya vositasida jinsiy madaniyat, diniy tarbiya vositasida diniy madaniyat shakllan-tiriladi va sh.k.

Maʼrifiy muassasalardagi yaxlit tarbiya tizimi oʻquvchilarda dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Dunyoqarash – shaxsning tabiatga, jamiyatga va unda insonning tutgan oʻrniga oid qarashlari, odamning atrofdagi borliqqa umumiy munosabatlari va ular bilan bogʻliq hayotiy nuqtai nazari, eʼtiqodi, ideallari, bilish va faoliyat koʻrsatish tamoyillari, qadriyatli moʻljallari tizimi. Shuningdek, dunyoqarash “dunyoni tushunish”, “dunyoni his qilish” kabi tushunchalar bilan yaqin maʼnodosh. Dunyoqarash – insoniyatning oʻtmish merosi, hozirgi hayoti va undagi shart-sharoitlar, mavjud tizimlar-ning anglab olinganligidir. Dunyoqarash - kishilarning turmush tarzi, hayoti, axloq-odobi va madaniyatini oʻzida mujassamlashtirgan tasavvurlar, bilimlar yigʻindisidir.

Avtoritar-boʻysundiruvchi, demokratik-xalqchil, liberal-murosasoz va erkin tarbiya tizimlari ham mavjudki, ular oʻziga xos tarzda amalga oshiriladi.

Avtoritar-boʻysundiruvchi tarbiya – tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qilishda tarbiyachining obroʻsiga asoslanish, unga oʻquvchilarning koʻr-koʻrona, soʻzsiz itoat etishi. Bunda oʻquvchilarning erkin va mustaqil fikrlashi hamda harakat qilishi cheklangan boʻladi.

Demokratik-xalqchil tarbiya – bolalar va kattalar oʻrtasidagi teng huquqli munosabatlarni nazarda tutuvchi tarbiya boʻlib, unda kattalar bolalarga hurmat va mehr-oqibatli munosabatda boʻlishadi, oʻquvchilar oʻz qarorlari va hatti-harakatlarini oʻzlari tanlash va amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻladilar va javobgarlikni oʻz zimmasiga oladilar.

Liberal-murosasoz tarbiya - talabchanlikning past darajasi va rahmdillikning yuqori darajasi bilan ajralib turadigan tarbiya boʻlib, talablar kamligi, ota-onaning kam nazorat qilishi, yomon hatti-harakatlar (xulq-atvor) uchun jazoning kamligi yoki umuman yoʻqligi bilan tavsiflanadi.

Erkin tarbiya – bolaning oʻzi rivojlanishi, unga erkin rivojlanishi uchun faqat qulay shart-sharoitlar kerak, deb hisoblovchi, tizimli va rejali tashkil etiladigan tarbiyani rad qiluvchi tarbiya yoʻnalishi.

Dunyoning ilgʻor, rivojlangan va maʼrifatli mamlakatlarida, shu jumladan, Oʻzbekistonda ham tarbiya tizimini (majmuini) insonparvarlash-tirish zamonaviy

tarbiyaning eng muhim muammosi va yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqdaki, unga muayyan talablar qo‘yilgan:

- 1) shaxsga insoniy munosabatda bo‘lish;
- 2) shaxs erkinligi va huquqlarini hurmat qilish;
- 3) shaxsga baholi qudrat, oqilona talablar qo‘yish;
- 4) shaxs nuqtai nazarini hurmat qilish;
- 5) shaxsning o‘z-o‘zi bilan bo‘lish huquqini hurmatlash;
- 6) shaxs ongiga uni tarbiyalashdan ko‘zlangan aniq maqsadlarni yetkazish;
- 7) zaruriy fazilatlarni zo‘rovonlik qilmasdan shakllantirish;
- 8) tan jazosi va shaxs or-nomusi kamsitiladigan jazolashdan voz kechish va

sh.k.

Tarbiya tizimini (majmuini) insonparvarlashtirish “kamchiliklarni izlash”dan “erishilgan yutuqlarni taqdirlash”ga asoslangan boshqaruvga o‘ti-shi bilan tavsiflanmoqda.

3.Tarbiya jarayoni mazmuni.

Tarbiya jarayonining mazmuni aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirishga imkon beradi. Boshqacha aytganda, tarbiya - yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvor fazilatlarini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Shuningdek, tarbiya mazmunida Qur’oni karim, Hadisi sharifdagi ahloqiy-ma’naviy, milliy va umuminsoniy madaniy qadriyatlar, xalq peda-gogikasi g‘oyalari, mutafakkir va olimlarning tarbiyaga oid qarashlari ham o‘z aksini topadi. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiyaning mohiyati turlicha bo‘lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqqan holda asoslanadi. Tarbiya g‘oyasi turlicha ifodalangan bo‘lsada, yo‘naltiruvchanlik xususiyati ham-da obyektiga ko‘ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: “Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” . Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xusiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda.

Islohotlarning asosiy g‘oyasi respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo‘li deb e’tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish vazifasi o‘ziga kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim

to'g'risida" Qonuni, va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning bir qator asar va nutqlarida ilm-ma'rifat, ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va va-zifalari aniq belgilab berilgan.

Prezidentimiz ilm-ma'rifat masalasini eng dolzarb masalasi sifatida bugun o'rta qo'ygani yo'q. 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifamiz", "nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi", deya nafaqat mamlaka-timiz, balki jahon hamjamiyati vakillari diqqatini bu masalaga o'ziga qaratgan edi. Zero, ma'rifat – kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirish-ga qaratilgan ta'lim va tarbiya birligidir. Demak, tarbiya ta'lim kabi ma'-rifatning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiladigan hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida o'quvchi tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri o'quvchining ularga nisbatan munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Shu sababli faqat o'quvchi faoliyatini uyushtirish emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalar olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya jarayoni ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi bilan kechadi.

Tarbiya jarayonida nafaqat o'quvchining ongini, balki his-tuyg'ularini ham o'stirish, shuningdek jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan axloqiy talablarga mos keladigan xulqiy malaka va odatlarni ham hosil qilish kerak bo'ladi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar ularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Tarbiya jarayoniga pedagog (tarbiyachi, o'qituvchi) rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi. Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda

o'quvchining o'z tengdoshlari va o'zini o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. O'quvchi o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi va tarbiya jarayoni manbaini yaxshi bilish, hisobga olish muhimdir. Bu - tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklardir. Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham inobatga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Faoliyat jarayonida hosil bo'ladigan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi. Demak, tarbiyachi o'quvchi shaxsining tez kamol topish davri – o'quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) orqali maxsus ta'sir etishi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Aks holda, shaxs xulq-atvor me'yorlari, axloqiy talablarni yetarlicha tushunmay qolishi natijasida ijtimoiy munosabatlarda beqaror va tasodifiy ta'sirlarga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin.

Tarbiya yaxlit jarayon sifatida amalga oshib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayoni quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- 1) maqsadga yo'naltirilganligi;
- 2) ko'p qirrali jarayon ekanligi;
- 3) uzoq muddat davom etishi;
- 4) uzluksizligi (muntazamligi);
- 5) yaxlitligi (bir butunligi);
- 6) variativligi (o'zgaruvchanligi);
- 7) natijalarning oldindan aniqlanmasligi;
- 8) ikki tomonlama xususiyatga egaligi.

“Tarbiyalash” iborasi quyidagilarni anglatadi:

- 1) madaniyat bilan tanishtirish (ma'naviyatni rivojlantirish);
- 2) kishilar o'rtasida o'zaro munosabatlar tizimini vujudga keltirish;
- 3) faoliyat usullarini shakllantirish (hissiy, irodaviy, aqliy-intel-lektul, ma'naviy);
- 4) irodani tarbiyalash;
- 5) shaxsning his-tuyg'usini rivojlantirish;
- 6) qadriyatlar tizimini hosil qilish;
- 7) shaxsni ijtimoiylashtirish.

4.Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

Tarbiya qonuniyatlari – shaxs kamolotida samarali natijaga erishish imkonini beradigan barqaror, takrorlanuvchan va muhim tarbiyaviy munosabatlar.

Boshqacha aytganda, tarbiya jarayoni qonuniyatlari – tarbiya obyektlari, tarbiyaviy hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi, ularning holati va rivojlanishini belgilaydigan obyektiv, asosiy, muhim va barqaror aloqalar va munosabatlardir.

O‘quv-tarbiya ishlari va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish tarbiya jarayoni qonuniyatlari asosida amalga oshiriladi. Tarbiya tamoyillari – tarbiyaviy jarayonning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllariga qo‘yilgan asosiy talablarni ifodalovchi umumiy qoi-dalar. Boshqacha aytganda, tarbiya tamoyillari – tarbiyaviy ish tajribasi-dan kelib chiqadigan, tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiruvchi va tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar faoliyatiga qo‘yiladigan talablar rolini baja-ruvchi dastlabki qoidalar (talablar).

Tarbiyaning quyidagi asosiy tamoyillari farqlanadi:

1) tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi tamoyili – pedagogda eng yuqori umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lgan ideal shaxs modeli haqida tasavvur mavjudligini nazarda tutadi;

2) tarbiyaning ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liqligi tamoyili o‘quvchilarni ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritishni ta’minlaydi;

3) tarbiyaning yaxlitligi tamoyili – shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun tarbiya jarayonining barcha imkoniyatlaridan foydalanishni nazarda tutadi;

4) tarbiyaning uzluksizligi tamoyili – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning doimiy hamkorligini, tarbiya jarayonining muntazamligi va izchilligini nazarda tutadi;

5) tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorligi tamoyili – pedagogik jarayonni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi ijodi sifatida mo‘ljallaydi;

6) shaxsni jamoada tarbiyalash tamoyili – jamoa shaxsni shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri ekanligini anglatadi;

7) shaxsiyatning ijobiyligiga tayanish tamoyili – shaxs kamolotidagi ijobiy mayllikni (intilishni) qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishni anglatadi;

8) hurmatlash va talabchanlikning o‘zaro bog‘liqligi tamoyili – o‘quvchi shaxsining ijobiy baholanishini uning kamolotiga g‘amxo‘rlik bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi;

9) tarbiyaga tabaqalashgan va individual yondashish tamoyili – tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlariga mo‘ljal olishni talab qiladi.

Tarbiya tamoyillari tarbiyachiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan materiallar mazmunini, tarbiya metodlari va shakllarini to‘g‘ri tanlashga imkon beradi. Ular pedagoglarga bolalar bilan samarali, insoniy munosabatlar o‘rnatishga imkon beradi.

Tamoyillar yakka-yakka holda emas, balki tizimda, vazifalar va muayyan sharoitlarga qarab amalga oshiriladi. Faqat tamoyillar mavjudligi haqida emas, balki ulardagi talablarni qanday amalga oshirish mumkinligi haqida bilish juda muhimdir.

Bu masalaga “tarbiya qoidalari” tushunchasi javob beradi. Tarbiya qoidalari yuqorida ta’kidlangan har bir tarbiya tamoyilining amalga oshishi, bajarilishini ta’minlaydigan amaliy hatti-harakatlar tartibidir. Shu nuqtai nazardan har bir tamoyil bajarilishining o‘ziga xos metodik qoidasi yoki qoidalar guruhi mavjud.

Tarbiya qonuniyatlari va uning tarbiya tamoyillari bilan o‘zaro bog‘-liqligi:

1) tarbiyaning maqsadi va mazmuni jamiyat ehtiyojlari, davlat manfaatlari, ijtimoiy-madaniy va milliy me’yorlar, an’analar bilan belgilanishi qonuniyati. Bu qonuniyat tarbiyaning muayyan maqsadga yo‘nal-ganligi, ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liqligi va shaxsni jamoada tarbiya-lash kabi tamoyillar asosida namoyon bo‘ladi;

2) tarbiya natijalari pedagogik ta’sirlar hamjihatligi, tashqi va ichki omillar ta’siri bilan shartlanganligi qonuniyati. Bu qonuniyat tarbiyaning uzluksizligi va yaxlitligi, tarbiyaga tabaqalashgan va yakka tartibda yondashish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorligi kabi tamoyillar asosida namoyon bo‘ladi;

3) shaxsning pedagogik ta’sirlardan ijobiy o‘zgarishi uning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlari va yaxshi fazilatlari hisobga olinganligi, unga hurmat va talabchanlik asosidagi munosabatlar hamda kelgusi istiqbolini ko‘rsatish bilan shartlanganligi qonuniyati. Bu qonuniyat shaxsiyat ijobiylikiga tayanish, hurmat va talabchanlikning o‘zaro bog‘liqligi, tarbiyaga tabaqalashgan va yakka tartibda yondashish kabi tamoyillar asosida namoyon bo‘ladi;

4) tarbiyaning samaradorligi tarbiyalanuvchining muayyan faoliyatda ishtirok etishi sabablari va o‘qituvchining mazkur faoliyatga pedagogik rahbarlik xususiyatlari bilan bog‘liq shaxsiy faollik darajasi orqali aniqlanishi qonuniyati. Bu qonuniyat shaxsiyat ijobiylikiga tayanish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorligi, tarbiyaning yaxlitligi va uzluksizligi kabi tamoyillar asosida naoyon bo‘ladi;

5) o‘smirlik, o‘spirinlik va yoshlik davridagi tarbiya samaradorligi pedagogning bu yosh davridagi tarbiyalanuvchilarning mustaqillik, erkinlikka intilishi va ularga qat’iy talabli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish uslubidan voz kechish lozimligini tushunish qobiliyati bilan shartlanganligi qonuniyati. Bu qonuniyat hurmat va talabchanlikning o‘zaro bog‘liqligi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorligi, shaxsni jamoada tarbiyalash kabi tamoyillar asosida namoyon bo‘ladi;

6) tarbiyaning samaradorligi shaxsning o‘zaro munosabatlar va tarbiyaviy ta’sirlarga munosib tuzilma sifatida tan olinishi bilan shartlanganligi qonuniyati. Bu qonuniyat yuqorida ta’kidlangan barcha tamoyillar asosida namoyon bo‘ladi.

Demak, tarbiyaning qonuniyatlari va tamoyillari uyg'un birlik hosil qiladiki, ularning majburiyligi va bir xil ahamiyatga egaligi tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyatini tushintirib bering?
2. Tarbiya jarayonining tizimi va tuzilishi hamda uning turlari haqida ma'lumot bering?
3. Tarbiya jarayoni mazmuni deganda nimani tushinasiz?
4. Tarbiya tamoyillari va qonuniyatlariga izoh bering?

MAVZU: TARBIYANING UMUMIY METODLARI.

Tayanch iboralar: tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiyaning maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiyaning umumiy vazifalari, tarbiya turlari, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari, tarbiya metodlari, tarbiya usullari, shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar, faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlar, xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlar.

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.

Ma'rifiy muassasalar va tarbiya institutlarida amalga oshiriladigan zamonaviy tarbiyaning mazmuni quyidagi asosiy g'oyalari bilan tavsiflanadi:

1) tarbiya maqsadlarining amaliyligi (tarbiya shaxs kamoloti va insoniyat madaniyatini o'zlashtirish vositasi ekanligi; tarbiyaning mazmuni shaxsning siyosiy, axloqiy, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, badiiy, jismoniy madaniyati, nafosat, mehnat va oilaviy munosabatlar madaniyati ekanligi);

2) bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati (birgalikda milliy va umuminsoniy madaniyat namunalarini izlash; birgalikdagi ma'naviy-axloqiy faoliyat; o'quvchida shaxsiy nuqtai nazarni hosil qilish);

3) shaxsning o'z hayotiy yo'lini o'zi belgilashi (o'z e'tiqodi, qarashiga muvofiq o'z hayotiy yo'lini (taqdirini) o'zi belgilash madaniyati);

4) tarbiyaning shaxsga yo'nalganligi (tarbiyaviy ishlar markazida rivojlanayotgan shaxs turishi; uni yetuk, barkamol insonga aylantirish);

5) tarbiyaviy jarayondagi ixtiyoriylik (tarbiya o'quvchilarning yaxshi niyati, erkinligi va xoxishiga qarab tashkil etilishi);

6) tarbiyaning jamoaviyligi (shaxsiyatparastlikning oldi olinishi; rivojlanayotgan shaxsning jamoaviy munosabatlarga bardosh berishi). Tarbiya qonuniyatlarini hisobga olib, shuningdek tarbiya tamoyillariga (talablariga) rioya

qilgan holda tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega fazilatlarni qanday (qaysi) usullar bilan shakllantirish mumkin, degan masala tarbiyachilar oldida turgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu masalaga pedagogika kategoriyasi tarbiya metodlari javob beradi.

Tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirish uning motivlariga (qiziqishlari, ehtiyojlariga) tayanish va ongini shakllantirish orqali, uni faol faoliyatga jalb etish, qisqasi, tarbiyaviy ta'sir orqali amalga oshirilishi mumkin. Tarbiyaviy ta'sir qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar ayrim shaxs yoki kishilar guruhiga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya metodi tarbiyalanuvchining ongi, irodasi, hissiyoti va xulqiga ta'sir ko'rsatish usulidir. Tarbiya metodlari pedagog-tarbiyachining o'quvchilarda ma'lum bir e'tiqod va malakalarni shakllantirish maqsadida ularning ongi, irodasi va hissiyotiga ta'sir ko'rsatish usullari majmuidir. Boshqacha ayt-ganda, tarbiya metodlari bu tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishining tartibga solingan usullari, keng ma'noda, tarbiya jarayonini amalga oshirish usullaridir.

Tarbiya nazariyasi va amaliyotida "tarbiya metodlari" tushunchasi bilan birgalikda "tarbiya usullari" tushunchasi ham keng qo'llaniladi.

Tarbiya usullari pedagogik rasmiylashgan hatti-harakatlar bo'lib, ular yordamida o'quvchining xulq-atvori va nuqtai nazariga uning qarashlari, motivlari va fe'l-atvorini o'zgartiruvchi tashqi istak bo'ladiki, natijada insonning zahira imkoniyatlari faollashadi va u ma'lum bir tarzda harakat qila boshlaydi.

Aksariyat pedagog olimlar tarbiyalanuvchilarga ta'sirlarning natijalariga ko'ra tarbiya metodlarini asosan ikki guruhga ajratadilar:

- 1) axloqiy meyorlar va motivlarni, axloqiy tasavvur, tushuncha va g'oyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi tarbiya metodlari;
- 2) hulq-atvorning u yoki bu turini belgilaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi tarbiya metodlari.

2. Tarbiya metodlari tasnifi.

Hozirgi vaqtda obyektivligi, amaliyligi va foydalanish uchun qulayligi bo'yicha barcha tarbiya metodlari bir necha katta guruhga bo'linadi va ular yaxlit tarbiya metodlari majmuini hosil qiladi. Masalan, rossiyalik pedagog G.I. Shchukina tarbiya metodlarini uchta katta guruhga ajratgan.

Har qanday metod amaliyotda usul yoki usullar guruhi ko'rinishida va tarbiyaning u yoki bu vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Tarbiya usuli, yuqorida ta'kidlanganidek, ma'lum bir pedagogik vaziyatda qandaydir metodni amalga oshirish bo'yicha ayrim amal, hatti-harakat.

Tarbiya vositasi qo'yilgan maqsadga erishish uchun tarbiya jarayonida foydalaniladigan faoliyat turlari, moddiy va ma'naviy madaniyat obyektlaridir.

I. Tarbiya metodlarining I guruhi.

1. Tarbiyalanuvchilar ongini shakllantiruvchi metodlar:

1) *ishontirish metodi* – ma’naviy-axloqiy dunyoqarash, e’tiqod va tushunchalarni shakllantirish;


2) *inontirish metodi* – shaxsning ma’naviy-axloqiy histuyg‘u sohasiga ta’sir ko‘rsatish;

3) *namuna keltirish metodi* – insoniylik, buyuk insonlar hayot faoliyati to‘g‘risida misollar keltirish, ularning shaxsini o‘rnak qilib ko‘rsatish;

4) *suhbat metodi* – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida ikkinchisidan ma’lumot olish uchun mavzuiy yo‘naltirilgan so‘zlashuv;

5) *ma’ruza metodi* – ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik va boshqa mamundagi u yoki bu muammolarning mohiyatini batafsil tizimli bayon etish;

6) *hikoya metodi* – u yoki bu ma’naviy tushuncha va hatti-harakatlarning tahlili yoki yaqqol misolini o‘z ichiga olgan kichik hajmli voqea-hodisalar-ning mantiqiy bayoni



4-jadval.

Tarbiya metodlarining II guruhi

II. Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribasini shakllan-tirish metodlari:

1) mashq metodi – shaxsning talab etilgan ma’lum bir aqliy-ahloqiy faoliyat hatti-harakatlarini ko‘p marta takror bajarishi va avtomatlashgan holga keltirishi;

2) pedagogik talab metodi - maslahat, iltimos, shama, ma’qullash kabi ko‘rinishlarda shaxsning muayyan faoliyatga kirishishi, uni bajarishi yoki to‘xtatishini ifodalovchi xulq-atvor meyorlari;

3) tarbiyalovchi vaziyat (ta'sir) metodi – maxsus tashkil etilgan sharoitda qandaydir masalani hal etish bo'yicha shaxs faoliyati va xulq-atvo-rini tashkil etish;

4) jamoatchilik fikri metodi – barcha sinf, guruh a'zolarining hayo-tiy meyorlari, qadriyatlari va dunyoga qarashlarida namoyon bo'ladigan va ular-ning hatti-harakatini baholashda foydalaniladigan talablar ifodasi;

5) topshiriq metodi – doimiy va vaqtincha, yakka tartibda, guruhli va jamoaviy bajariladigan, huquq va javobgarlik chegarasiga ega bo'lgan, o'quv-chilarda zaruriy fazilatlarni rivojlantiradigan, ularni ijobiy hatti-ha-rakatlarga odatlantiradigan tarbiya metodi.

| | |
|-------------------------------------|--|
| O'ziga xos xususiyatlari: | <ul style="list-style-type: none"> • tarbiyalanuvchi yoki jamoaga nimani qanday qi-lish kerakligini aniq va ma'noli ko'rsatuvchi usul; • o'quvchining o'ziga bo'lgan talabini qondirishga mo'ljallangan ta'sir; • tarbiyada asos qilib olingan usul |
| Talabni qo'yish shakllari: | <ul style="list-style-type: none"> • bevosita (ko'rsatma, buyruq, farmoyish, hukm, do'q-po'pisa va sh.k.); • bilvosita (shama-ishora, maslahat, iltimos, tavsiya, ishonch, ma'qullash va sh.k.) |
| Talabni qo'yish usullari: | <ul style="list-style-type: none"> • vositasiz (talablar tarbiyalanuvchining zarur xulq-atvoriga erishish uchun tarbiyachining o'zi tomo-nidan qo'yiladi); • vositali (tarbiyachi tomonidan "uyushtirilgan" ta-lablar o'quvchilar tomonidan bir-biriga qo'yiladi); |
| Metodni amalga oshirish bosqichlari | <ul style="list-style-type: none"> • 1-bosqich – pedagogik vaziyatni baholash; • 2-bosqich – talabning turini va uni qo'yish usuli-ni tanlash; • 3-bosqich – talabni qo'yish; • 4-bosqich – ijrosini tekshirish va natijalarini hisobga olish |
| Samarali foydalanish sharoitlari: | <ul style="list-style-type: none"> • qo'yilgan talabning axloqiyligi; • shaxsiy aloqa o'rnatilishi; • keskin, qat'iy va harakatga kelitiruvchi ohang; • talabning maqbulligi, bama'niligi, aniqligi, ravshanligi va bir xilligi; |

| | |
|--|---|
| | <ul style="list-style-type: none"> • jamoaning yetuklik darajasini, tarbilanuvchilarga qo'yilgan talablarning tushunarli ekanligini hisobga olish; • jamoatchilik fikriga tayanish va meyorini his qilish; • tarbiyaning boshqa metodlari bilan birga qo'llanilishi. |
|--|---|

5-jadval

Tarbiya metodlarining III guruhi.

III. Faoliyat va ongni rag'batlantirish va motivatsiyalash metodlari:

1) taqdirlash metodi – shaxs hatti-harakatini ijobiy baholash (sovg'a, mukofot, maqtash, maqtov yorlig'i, minnatdorchilik va sh.k.);

2) jazolash metodi - shaxsni nomaqbul harakatlaridan ogohlantirish, to'xtatish (tanbeh, xayfsan berish) va unda aybdorlik hissini (uyaltirish) paydo qilish;

3) musobaqa metodi - shaxsda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish. Ayrim pedagog olimlar tomonidan shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash metodlari tarbiyaning alohida guruhi sifatida ajratib ko'rsatilgan.

Shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash metodlari – shaxsning o'zini o'zi idora etish (o'zini-o'zi muhokama etish, o'ziga-o'zi buyruq yoki hisobot berish) usullari bo'lib, ularning ikki turi farqlanadi:

1) o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari - o'zining shaxsi, fazilatlarini, hatti-harakatlari va xulq-atvorini tahlil etishi, ijobiy sifatlarini boyitishi va salbiylarini bartaraf etishi;

2) o'zini-o'zi baholash metodlari o'zini-o'zi nazorat etish natijalari orqali o'ziga o'zi baho berishi.

Tarbiya metodlarining ijobiysi yoki salbiysi bo'lmaydi. Qo'llaniladigan metodning samarasini mavjud shart-sharoitlar nuqtai nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq bo'ladi:

1. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari (maqsad nafaqat metodlarni ifodalaydi, balki ularni aniqlab beradi: maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'ladi).

2. Tarbiyaning mazmuni (ma'lum bir tarbiyaviy vazifa bir necha fikrlar, qarashlar bilan hal etilishi yoki to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun tarbiya metodlarini tarbiyaning nazariy mazmuni bilan emas, balki aniq amaliy fikr, qarash bilan bog'lash muhim ahamiyat kasb etadi).

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish (har qanday tarbiyaviy ta'sir yoki vazifa tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda amalga

oshiriladi. Yosh oddiygina son ko'rsatkichi emas, balki unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlar rivojlanishining darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini ta'limning barcha bosqichlarida shakllantirish mumkin, biroq u turli bosqichlarda har xil metodlar bilan vujudga keltiriladi).

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi (o'z-o'zini boshqarishning jamoaviy shakllari pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarining qo'llanilishini o'zgartiradi, ya'ni boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligini ta'minlaydi).

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosdigi (umumiy dasturlar, umumiy metodlar tarbiyaviy o'zaro ta'sirning yagona asosi bo'la olmaydi: ularga o'quvchilarning individual xususiyatlari, o'ziga xosligini hisobga olib tegishli tuzatishlar kiritilishi zarurki, bu ularning «Men»ini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan metodlarni qo'llashni taqozo etadi).

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar (ularga sinfda (guruhda) yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishli bo'lib, tarbiya amalga oshiriladigan sharoit pedagogik vaziyatlar deyiladi).

7. Tarbiya vositalari (tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan, masalan, muayyan bir metodlarni qo'llash uchun zarur bo'lgan ko'rsatmali qurollar, tasviriy va musiqiy san'at asarlari yoki ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni taqozo qiladi).

8. Pedagogik malaka darajasi (tarbiyachi, odatda, o'zi biladigan va qo'llay oladigan metodlarni tanlaydiki, ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi uchun o'qituvchidan ko'p kuch, mas'uliyat talab etiladi, biroq barcha pedagoglar bir xil kuchli, mas'uliyatli va malakali bo'lmaydi, bu esa tarbiya metodlaridan foydalanish samaradorligi turlicha bo'lishiga olib keladi).

9. Tarbiyalash vaqti (tarbiyaviy ta'sirlar yoki tadbirlarning maqsadi katta, lekin vaqt kam bo'lsa, «kuchli harakatga keltiruvchi» metodlar qo'llaniladi, odatdagi sharoitlarda esa tarbiyaning «oddiy» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatga keltiradigan» va «oddiy» metodlarga bo'linishi shartli bo'lib, birinchisi tanbeh berish, majburlash bilan, ikkinchisi nasihat qilish, doimiy o'rgatish bilan bog'liq bo'ladi).

10. Kutilayotgan natija (pedagog qo'llaydigan metodlari qanday natijalarga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak).

11. Tarbiya jarayoni natijalarini baholash (uning mezonlari va ko'rsatkichlari, ya'ni: o'zaro munosabatlar; tarbiyaviy mashg'ulotlar tashkil etilishi; tarbiyaviy vazifalar to'g'ri rejalashtirilishi va tanlanishi; tarbiya metodikasi va o'quvchi shaxsining tarbiyalanganligi o'zlashtirilgan ma'naviy-ahloqiy bilim va ko'nikmalar, odat va fazilatlar (ezgulik, adolat, go'zallik) hajmi, ularni amaliy

faoliyatda qo'llash va baholash (qoniqarsiz; mushkul; qoniqarli; yaxshi; yuqori, eng maqbul) pedagog tomonidan aniq belgilanishiga bog'liq bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Tarbiya metodlari haqida tushunchalar bering?
2. Tarbiya metodlari tasnifini izohlab bering?
3. Tarbiya metodlariga nimalar kiradi?
4. Faoliyat va ongni rag'batlantirish va motivatsiyalash metodlariga nimalar kiradi?

IV BOB. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI.

MAVZU: TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI.

Tayanch iboralar: boshqarish, menejment, boshqaruv funksiyalari, boshqaruv metodlari, boshqaruv uslublari, Pedagogik Kengash, Metodika Kengashi, Metodika birlashmasi, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish, metodik xizmat ko'rsatish, yosh o'qituvchilar bilan ishlash.

1.Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Ta'lim (o'quv-tarbiya) tashkilotlari (muassasalari) tizimi – asosiy maqsadi ma'rifatli (ma'lumotli, o'qimishli, tarbiyali, madaniyatli) shaxsni shakllantirish, kamol toptirish bo'lgan, rasmiy belgilangan davlat va nodavlat ijtimoiy tuzilmalarini (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim muassasalari, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va sh.k.) birlashtiradigan model.

Ta'lim tashkilotlari (muassasalari) tizimi amaldagi ta'lim turlariga mansub quyidagi tashkilot va muassasalarni o'z ichiga qamrab oladi:

I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyidagi turlarda tashkil etilishi mumkin:

1) umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti - umumiy rivojlantirish yo'nalishi guruhlarida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi;

2) ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti - rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi;

3) inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti – bolalarning alohida ta'lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog'lom muhitga uyg'unlashtirish orqali ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta'minlanadi;

II. Umumta'lim muassasalari quyidagi turlarda tashkil etilishi mumkin:

1) boshlang'ich maktab (o'qitish muddati 4 yil: I - IV sinflar);

2) umumta'lim maktabi (o'qitish muddati 11 yil: I - XI sinflar);

3) ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab (o'qitish muddati 7 yil: V - XI sinflar);

4) ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat (o'qitish muddati 5 yil: VII - XI sinflar);

5) futbol bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab-internat (o'qitish muddati 5 yil: V - IX sinflar);

6) jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab (maktab-internat) (o'qitish muddati 10 yil: I - X sinflar);

7) sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat (o'qitish muddati 11 yil: I - XI sinflar);

8) alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim be-rishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab (o'qitish muddati zaruriyatga ko'ra);

9) ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktab-internat-lari (o'qitish muddati zaruriyatga ko'ra);

10) ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internat-lari (o'qitish muddati zaruriyatga ko'ra);

11) Prezident maktabi (o'qitish muddati 7 yil: V - XI sinflar) va sh.k.

III. Professional ta'lim muassasalari quyidagi turlarda tashkil etilishi mumkin:

1) kasb-hunar maktablari - boshlang'ich professional ta'lim muassasasi bo'lib, kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kasb-hunar maktabida ta'lim olayotgan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida oylik stipendiya hamda uch mahal ovqat bilan ta'minlanadi. Bunda, kasb-hunar maktabi o'quvchilarni uch mahal ovqat bilan ta'minlash yoki mazkur ovqat pullarini ularga to'lab berish huquqiga ega;

2) ko'p tarmoqli kollejlari - o'rta professional ta'lim muassasasi bo'lib, kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

3) texnikumlar - o'rta maxsus professional ta'lim muassasasi bo'lib, kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3 yoki 4-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan shakllantirilgan guruhlarda kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo'lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi.

IV. Oliy ta'lim muassasalari quyidagi turlarda tashkil etilishi mumkin:

1) universitetlar – ta'limning bir necha yo'nalishlarida oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim beradi; turli sohalaridagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va ularni qayta tayyorlaydi; fanning turli yo'nalishlarida fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi; taalluqli ilm sohasi bo'yicha tayanch ilmiy-metodik markazi hisoblanadi;

2) akademiyalar - ta'lim sohasida ma'lum belgilangan oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim berishga mo'ljallangan ta'lim dasturlarini bajaradi; muayyan soha mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshiradi; ilm-fan, madaniyat yoki san'atning aniq sohalarida fundamental, ilmiy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshiradi; faoliyati sohasida yetakchi ilmiy va metodik markaz hisoblanadi;

3) institutlar - ta'lim va fanning ma'lum bir sohasida oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning ayrim dasturlarini amalga oshiradi; ma'lum bir sohada va hududdagi mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi; fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi

V. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tegishli oliy ta'lim muassasalari (OTM) yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarida (ITM) quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1) tayanch doktorantura - ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo'yicha tashkil etiladigan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli (o'qish uch yilgacha davom etadi);

2) doktorantura - ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo'yicha tashkil etiladigan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli (o'qish uch yilgacha davom etadi);

3) mustaqil izlanuvchilik - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli (o'qish uch yilgacha davom etadi).

VI. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlar, fakultetlar, markazlar, kurslar shaklida quyidagi turlarda tashkil etilishi mumkin:

Qayta tayyorlash shakllari:

1) pedagogik qayta tayyorlash - mutaxassislarning bazaviy kasbiy ma'lumotini ta'limning tegishli turi Davlat ta'lim standarti (Davlat talablari) bilan belgilanadigan o'quv-tarbiya jarayonining talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli bo'lgan pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida mutaxassislarni qayta tayyorlash;

2) kasbiy qayta tayyorlash (ixtisoslashuv) - ta'limning tegishli turi Davlat ta'lim standarti (Davlat talablari) bilan belgilanadigan o'qitishning talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada o'quv fani yoki kurs bo'yicha pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli hajmda yangi kasbiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish.

Malaka oshirish shakllari:

a) to'g'ridan-to'g'ri malaka oshirish (ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish):

1) malaka oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasa-sida (akademiya, institut, markaz, fakultet, kurslarda) o'qitish – ta'lim muassasalarining yakka tartibdagi topshiriqlari yoki aniq yo'naltirilgan dasturlari va mehnat bozorining takliflari asosida, ta'limning tegishli turi o'quv-tarbiya jarayonining monitoringi natijalarini va kadrlar tayyorlash sifatini hisobga olib Davlat talablariga, shuningdek, ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan fanlar bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish;

2) bazaviy ta'lim muassasasida o'qitish - Davlat talablariga, tegishli ixtisoslikning pedagog kadrlariga qo'yiladigan malaka talablariga va mehnat bozori talablariga muvofiq tinglovchilarning kasbiy bilimlari malaka va ko'nikmalarini chuqurlashtirish maqsadida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun bazaviy deb belgilangan oliy va professional ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish;

3) "Ustoz-shogird" metodi bo'yicha ta'lim muassasasida o'qitish – tanlov asosida tanlab olingan, mamlakatda (mintaqada), ilmiy va pedagogik jamoatchilik o'rtasida o'zining yuqori natijalari, kasbiy faoliyatining yuqori ko'rsatkichlari, raqobatbardoshli kadrlar tayyorlash bo'yicha o'z maktabi bilan mashg'ul bo'lgan yuqori malakali pedagog-ustozlar rahbarligida tegishli tipdagi ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha pedagog xodimlarning malakasini maqsadli oshirish;

4) Tajriba orttirish (ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot muassasasida, xorijda tajriba orttirish) – pedagog kadrlarni iqtisodiyot, fan, madaniyat, sog'liqni

saqlashning tegishli tarmoqlarida fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish, fanlar bo'yicha o'quv dasturlari mazmunining uzluksiz takomillashtirilishini ta'minlash, fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash maqsadida aniq fanlar bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish.

4.1) ishlab chiqarishda tajriba orttirish – pedagoglarning amaliy bilimlari, ko'nikma va malakalarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi hamda har xil ixtisoslikdagi professional va oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari malakasini oshirishning eng samarali shakli hisoblanadi;

4.2) ilmiy-tadqiqot muassasasida (Fanlar akademiyasining ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlari, laboratoriyalar va hokazolarda) tajriba orttirish – pedagoglarni fanning zamonaviy yutuqlari, tegishli mutaxassisliklar bo'yicha uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, ilmiy eksperimentlarni oldinga qo'yishning samarali metodlari bilan tanishtirish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish maqsadini ko'zlaydi;

4.3) xorijda tajriba orttirish – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatimiz ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga ko'maklashish uchun ajratilgan grantlarga muvofiq, shuningdek, ta'limni boshqarish organlari bilan ta'lim muassasalarining o'zlari o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi

b) bilvosita malaka orttirish (ta'lim dasturlarisiz o'qitish):

5) mustaqil o'qib bilim orttirish – ta'lim darajasi va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq o'qitiladigan fan bo'yicha yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarning pedagog kadrlar tomonidan mustaqil o'zlashtirilishidir;

6) ijodiy ta'til – yangi o'quv adabiyotlari (darslik yoki o'quv qo'llanma) yaratish zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish, pedagoglarning kasbiy faoliyati, yo'nalishi bilan bog'liq bo'lgan yirik ilmiy ishni (monografiya, dissertatsiya va hokazolarni) tugallash uchun ta'lim muassasasining ilmiy (pedagogik) kengashi qarori bilan pedagog kadrlarga beriladigan ta'til;

7) ochiq o'quv mashg'ulotlari – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'qitishning interaktiv metodlari qo'llanilgan holda akademik guruhlarda jadval bo'yicha o'tkaziladigan oldindan e'lon qilingan muammo yoki innovatsiya mavzusi bo'yicha mashg'ulotdir;

8) ilmiy va ilmiy-metodik seminarlar, konferensiyalar, avgust o'qishlari va hokazolarda qatnashish – pedagog kadrlarning pedagogika fani va amaliyotining, o'qitish metodologiyasi va texnologiyasining ta'lim muassasalarida muhim

muammolarni hal etishga va o‘quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatini ta’minlashga yo‘naltirilgan dolzarb mavzulari bo‘yicha ilmiy yoki ilmiy-metodik ma’ruzalar (axborotlar) bilan chiqishidir

VII. Maktabdan tashqari ta’lim muassasalari quyidagi turlarda tashkil etilishi mumkin:

1) “Barkamol avlod” bolalar maktablari – “Barkamol avlod” respublika va hududiy bolalar markazlari negizida Respublika va hududiy “Barkamol avlod” bolalar maktablari tashkil etiladi va ularda 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab “STEAM – ta’lim” dasturi joriy etiladi;

2) “Bolalar sayyohlik bazalari”- “Barkamol avlod” bolalar maktabla-rining “Yosh sayyoh”, “Yosh ekskursovod”, “Yosh o‘lkashunos” to‘garak a‘zolari uchun o‘lkamiz tarixi, qadimiy va muqaddas qadamjolar, milliy urf-odatla-rimiz bilan yaqindan tanishtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va asrash, bolalar o‘rtasida ekologiya hamda sayohat qilish madaniyatini yuksaltirish maqsadida tashkil etiladi;

3) “Bolalar kutubxonalarini” - umumta’lim muassasalari kutubxonalariga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish, o‘quvchilarning milliy va jahon bolalar badiiy adabiyotlari durdona asarlariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash, ularni kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni (“Yosh kitobxon”, “Kitobxon maktab”, “Eng yaxshi kutubxonachi” va boshqalar) tashkil etishga ko‘maklashadi.

2.Ta’lim muassasasini boshqarish.

Uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib boriladi.

Barcha darajadagi ta’lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq belgilangan. Xususan:

I. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- 1) ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini belgilaydi;
- 2) ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi;
- 3) ta’limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- 4) ta’lim sohasidagi davlat organlari bilan nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiradi;
- 5) ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, pedagog va ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish, nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya berish, ta’lim hujjatlariga apostil qo‘yish tartibini belgilaydi;

6) ta'lim tashkilotlariga pedagog xodimlarni ishga qabul qilish va faoliyatini baholash tartibini belgilaydi;

7) xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar beradi;

8) qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy mamlakatlarda olingan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibini belgilaydi;

9) xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini ta'minlaydi, ta'lim tizimini xalqaro hamjamiyatga integratsiyasini belgilaydi;

10) davlat namunasidagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlaydi va ularni berish tartibini belgilaydi;

11) ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini belgilaydi;

12) davlat va davlat ulushi mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasasining rektori (xorijiy oliy ta'lim muassasasi filialining mahalliy rektori yoki direktori, ijrochi direktori)ni bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora rahbarining tavsiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi va ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklarini belgilaydi;

13) ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim tashkilotidan boshqasiga o'tkazish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibini belgilaydi;

14) ta'lim tashkilotlari reytingini aniqlash tartibini belgilaydi;

15) kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi;

16) mehnat bozori talablaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlashni prognozlashtirish ishlarini olib boradi;

17) ta'lim muassasalarining asosiy moddiy-texnik, infratuzilmaviy va parametrik talablarini belgilaydi;

18) darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratish va nashr etish tartibini, ta'lim muassasalariga yetkazib berish va foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilaydi;

19) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

II. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari:

1) ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

2) ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va metodik masalalarda ularga rahbarlik qiladi;

3) tegishliligi bo'yicha davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim standartlarining asosiy qoidalari, kasbiy ta'limning kasblar va mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim

standartlari hamda oliy ta'limning ta'lim sohalari bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlaydi;

4) mehnat bozorini zarur bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash uchun professional ta'limning kasblari va mutaxassisliklari hamda oliy ta'limning bilim va ta'lim sohalarini, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini belgilaydi;

5) davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga qo'yilgan talablarning ta'lim tashkilotlari tomonidan bajarilishini ta'minlaydi;

6) o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etadi;

7) ta'lim tashkilotlarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini muntazam takomillashtirib boradi;

8) o'quv adabiyotlarini tayyorlash va ularni nashr etishni tashkil qiladi;

9) ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash, yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi hamda eksternat asosida ta'lim oluvchilar toifasini belgilaydi;

10) bo'ysunuvidagi davlat va davlat ulushi mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasasining rektori (xorijiy oliy ta'lim muassasasi filialining mahalliy rektori yoki direktori, ijrochi direktori)ni davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

11) pedagog xodimlar va rahbarlarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etadi;

12) ta'lim tashkilotlarida moddiy-texnik resurslardan samarali foydalanish borasida talablarni ishlab chiqadi va yagona yondashuvni ta'minlaydi;

13) ta'lim sohasiga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida ishtirok etadi;

14) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

III. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari:

1) ta'lim tashkilotlari faoliyatining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydi;

2) respublika darajasidagi tashkilotlarga idoraviy mansub bo'lgan ta'lim muassasalaridan tashqari davlat ta'lim muassasalarini tashkil etadi, qayta tashkil etadi, tugatadi, ustavlarini ro'yxatga oladi;

3) o'z hududlaridagi davlat ta'lim muassasalarini vakolatlari doirasida moliyalashtirish miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydi;

4) ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish masalalari yuzasidan nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qiladi, ta'lim tashkilotlariga xalqaro hamkorlikni amalga oshirishga ko'maklashadi;

5) bolalar va yoshlarga munosib ta'lim va tarbiya berilishi, qobiliyatlari shakllantirilishi va namoyon bo'lishi uchun yashash joylarida zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha dasturlar ishlab chiqadi;

6) ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantiradi;

7) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3. Ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi.

Ta'lim muassasasining boshqaruv organlari. O'quvchi - talabalar va pedagogik (yordamchi) xodimlarni birlashtirgan davlat (nodavlat) ta'lim muassasasi jamoasi o'z vazifasini ota-onalar (ular o'rmini bosuvchi shaxslar), mahalla qo'mitalari, keng jamoatchilik bilan mustahkam hamkorlikda olib boradi. Ta'lim muassasasini boshqarish jamoaning o'zini-o'zi boshqarish va yakkaboshchilik tamoyili asosida Ta'lim muassasasi kengashi (pedagogik kengashi) tomonidan tasdiqlanadigan va mahalliy hokimiyat, boshqaruv organlarida ro'yxatdan o'tkaziladigan o'z Ustaviga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasining o'quv-tarbiya jarayoniga va kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlikni rektor / direktor amalga oshiradi. U tajribali, qobiliyatli mutaxassislar orasidan jamoa fikrini hisobga olgan holda tegishli ta'lim turini boshqarishning yuqori organlari tomonidan tayinlanadi.

Har bir ta'lim turiga mansub ta'lim muassasalari o'ziga xos maqsadi, vazifalari, ta'lim-tarbiya mazmuni (davlat ta'lim standartlari, davlat talablari, o'quv rejalari, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari), shakllari, metodlari, vositalari va boshqaruv shakllari bo'yicha bir-biridan farqlanadi, ayni paytda, umumiy maqsadlari va izchilligi bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan o'quv-tarbiya jarayonlarining tashkil etilishi va boshqarilishi ham o'ziga xos tarzda olib boriladi. Masalan, o'quv yili umumta'lim muassasalarida 2 sentyabrdan kelgusi yilning 25 mayiga qadar davom etsa va to'rtta chorakka bo'linsa, oliy ta'lim muassasalarida iyun oyi-ning oxiriga qadar davom etadi va ikki semestrga bo'linadi; mashg'ulotlar davomiyligi esa mos ravishda 45 va 80 daqiqadan iborat bo'ladi va h.k.

Quyida umumta'lim maktablarini boshqarish to'g'risida fikr yuritiladi.

Umumta'lim maktabiga bevosita rahbarlik tegishli xalq ta'limi boshqaruv organi tomonidan tayinlangan direktor tomonidan amalga oshiriladi. Direktor o'z o'rinbosarlari bilan birgalikda ta'lim muassasasining tashkiliy-huquqiy, o'quv-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining tashkil etilishiga bevosita mas'ul hisoblanadi va har chorakda kamida bir marta o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotni tegishli fuqarolar yig'iniga taqdim etib boradi.

Umumta'lim maktabini boshqarish demokratiya, oshkoralik hamda o'z-o'zini boshqarish tamoyillari asosila amalga oshiriladi. Maktab direktori o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'rinbosarlari va maktabning pedagogik, metodik hamda kuzatuv kengashlari bilan mustahkam hamkorlikda amalga oshiradi.

Maktab direktori:

1) o'quv-tarbiya jarayoniga va maktabning kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi, maktabda ta'lim-tarbiya berish (o'quv-tarbiya) ishini tashkillashtiradi, maktabning ma'muriy-xo'jalik (ishlab chiqarish), moliyaviy ishini ta'minlaydi, maktabda xavfsizlik texnikasi me'yorlari va qoidalariga rioya qilish tartibini yaratadi;

2) tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi (XTMFMTEB) mudirining taqdimotiga ko'ra tegishli xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimiga tayinlanadi va bo'shatiladi. Maktab direktori ish faoliyatida bevosita tuman (shahar) XTBMFMTEB mudiriga bo'ysunadi;

3) mehnat ta'tilida yoki vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz bo'lgan davrda uning vazifalari direktorning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosari zimmasiga yuklanishi mumkin. Bu kabi hollarda vazifalarni ijro etish direktor buyrug'i yoki ob'ektiv sabablarga ko'ra tegishli buyruq chiqarish uchun imkon bo'lmasa tuman (shahar) XTMFMTEB mudirining buyrug'i asosida amalga oshiriladi;

4) o'z ixtisosligi bo'yicha oliy ma'lumotga va pedagogik yoki rahbarlik lavozimlarida kamida 5 yil ish stajiga ega hamda tegishli attestatsiyadan o'tgan kamida 1-toifali o'qituvchi bo'lishi lozim;

5) maktab ichida yoki undan tashqarida o'rindoshlik asosida boshqa rahbarlik lavozimlarida (ilmiy va ilmiy-uslubiy rahbarlikdan tashqari) ishlashiga yo'l qo'yilmaydi.

Maktab direktorining mansab vazifalari o'rindoshlik asosida ijro etilishi mumkin emas. Maktab direktoriga uning o'rinbosarlari bevosita bo'ysunadi. Maktab direktori o'z vakolatlari doirasida maktabning har bir xodimi va o'quvchisiga ular uchun bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmani berishga haqli. Maktab direktori maktabdagi har qaysi boshqa xodim (uning o'rinbosari yoki boshqalar)ning farmoyishini bekor qilishga haqli.

Maktab direktori o'z vakolatlari doirasida quyidagi mansab vazifalarini bajaradi:

1) maktab Ustavi va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq maktab faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;

2) Pedagogik kengash bilan birgalikda maktabni rivojlantirish strategiyasi, maqsadlari va vazifalarini belgilaydi, uning ishini dasturiy rejalash to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

3) muassasaning rivojlanish dasturlarini, maktabdagi ta'limiy dasturlar, o'quv rejalari, kurslar, fanlar, o'quv-uslubiy hujjatlar, Ustav va ichki tartib qoidalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish ishlarini amalga oshiradi, maktabning boshqa ichki me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

4) maktabni yangi o'quv yiliga, kuz-qish mavsumiga tayyor bo'lishini tashkil etadi va ta'minlaydi, maktabda obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshiradi, qabul qilish dalolatnomalarini imzolaydi;

5) maktab faoliyati jarayonida yuzaga keladigan o'quv-uslubiy, ma'muriy, moliyaviy, xo'jalik va boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etadi;

6) maktabning pedagog va boshqa xodimlari ishini rejalashtiradi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

7) kadrlarni saralash, ishga qabul qilish va joy-joyiga qo'yish ishlarini amalga oshiradi, xodimlarning mansab vazifalarini belgilaydi, ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoit yaratadi;

8) o'quvchilar uchun mashg'ulotlar jadvalini, maktab xodimlarining ish jadvallari va pedagogik yuklamasini, tarifikatsiya ro'yxatlari va mehnat ta'tillari jadvallarini tasdiqlaydi;

9) xodimlarning ijodiy tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi, jamoada ijobiy ma'naviy sof muhitni shakllantiradi;

10) maktab o'quvchilari va xodimlarining salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash maqsadida maktabda umumiy ovqatlanish tashkilotlari va tibbiy muassasalar faoliyat ko'rsatishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi, ularning ishini nazorat qiladi;

11) jamoa shartnomasi bajarilishini ta'minlaydi, maktab pedagoglar jamoasi, kasaba uyushmasi tashkilotiga mo'tadil ishlash uchun kerakli sharoitlar yaratadi;

12) davlat, jamoat va boshqa organlarda, tashkilotlarda va muassasalarda maktab manfaatlarini himoya qiladi;

13) muhandislik-texnikaviy kommunikatsiya jihozlaridan xavfsiz foydalanishini ta'minlaydi, ularni mehnat muhofazasi bo'yicha amal qilayotgan standartlarga, qoidalarga va me'yorga muvofiq bo'lgan holatga keltirish

choralarini ko‘radi, ta’lim muassasasining binosi ko‘rikdan o‘tkazilishi va ta’mirilanishini o‘z vaqtida tashkil etadi;

14) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida va maktab ichki mehnat tartib qoidalarida belgilangan tartibda yangi xodimlar qabul qilinishini rasmiylashtiradi;

15) ishga yangi qabul qilingan shaxslar bilan o‘rnatilgan tartibda shart-nomalarni imzolaydi, mehnat muhofazasi, texnik xavfsizligi bo‘yicha dastlabki ko‘rsatma berish, ta’lim muassasasi xodimlari bilan ish joyida ko‘rsatma berish tadbirini o‘tkazadi, ko‘rsatma berish tadbiri o‘tkazilganini daftarda rasmiylashtiradi;

16) xodimlar va o‘quvchilar jarohatlanishi holatlarining oldini olish va ular o‘rtasida kasallanish darajasini kamaytirish bo‘yicha profilaktik ishlarni tashkil etadi va olib boradi;

17) tibbiy xodimlar bilan hamkorlikda tibbiy xizmat ko‘rsatilishini va sog‘lomlashtirish ishini yaxshilash choralarini ko‘radi;

18) kasaba uyushmasi, ota-onalar ko‘mitasi va kuzatuv kengashi bilan hamkorlikda ovqatlanish tashkil etilishini yaxshilash, maktab oshxonasida sifatli ovqat tayyorlanishi uchun sharoit yaratish choralarini ko‘radi;

19) barcha xodimlar va o‘quvchilarning o‘quv-mehnat yuklamasini ularning ruhiy-jismoniy imkoniyatlarini e‘tiborga olgan holda ta‘minlaydi, mehnat va dam olish tartibini oqilona tashkil etadi;

20) o‘quvchilar va xodimlar salomatligi uchun xavfli sharoitlar yuzaga kelganida ta’lim jarayoni o‘tkazilishini ta’qiqlaydi.

Maktab direktorining o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari:

1) maktab direktorining tavsiyasiga ko‘ra tuman (shahar) XTMFMTTEB mudiri tomonidan lavozimiga tayinlanadi va bo‘shatiladi;

2) maktab direktori bilan hamkorlikda maktabdagi o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etadi, maktab pedagoglari jamoasiga uslubiy jihatdan rahbarlik qiladi, o‘quv jarayonida xavfsizlik texnikasi me‘yorlari va qoidalariga rioya qilinishi tartibini ta‘minlaydi, o‘quv ishi bo‘yicha hisobotlarni yuritadi va umumiy majburiy ta’lim bo‘yicha ishni tashkillashtiradi;

3) bevosita maktab direktoriga bo‘ysunadi.

Maktab direktorining o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosariga bevosita: o‘qituvchilar, o‘quvchilar, laboratoriya xodimlari bo‘ysunadi.

Maktab direktorining o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari o‘z vakolatlari doirasida quyidagi mansab vazifalarini bajaradi:

1) pedagoglar jamoasining kundalik va istiqboldagi faoliyati rejalashtirilishini tashkil etadi;

2) o'qituvchilar va boshqa pedagog xodimlarning o'quv rejalarini va dasturlarini bajarish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi;

3) zaruriy o'quv-uslubiy hujjatlar ishlab chiqilishini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

4) ta'lim jarayonining sifatini va o'quvchilarning ta'limiy tayyorgarlik natijalari obyektiv ravishda baholanishini, to'garakalar va fakultativlar ishini muntazam nazorat qiladi;

5) maktab pedagog xodimlari tomonidan o'tkazilayotgan darslar va o'quv mashg'ulotlarining boshqa turlariga tashrif buyuradi, ularning shakli va mazmunini tahlil qiladi, tahlil natijalarini pedagoglarga ma'lum qiladi;

6) imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish ishlarini tashkil etadi;

7) ota-onalar uchun ma'rifiy ishlarini tashkil etadi, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari yuzasidan ota-onalarni (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) qabul qiladi;

8) pedagog xodimlarga yangi (innovatsion) dasturlar va pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va ishlab chiqishda yordam beradi;

9) o'quv mashg'ulotlari va ta'lim faoliyati boshqa turlarining jadvallarini tuzadi, vaqtinchalik yo'q bo'lgan o'qituvchilarning darslari sifatli va o'z vaqtida almashtirilishini ta'minlaydi, qoldirilgan va boshqa o'qituvchi o'rniga o'tilgan darslarni qayd qilish jurnalini yuritadi;

10) belgilangan hisobot hujjatlari o'z vaqtida tuzilishini ta'minlaydi, pedagoglar tomonidan sinf jurnallari va boshqa hujjatlar to'g'ri va o'z vaqtida yuritilishini nazorat qiladi;

11) pedagog kadrlarni saralash va joy-joyiga qo'yishda ishtirok etadi, ularning malakasini va kasbiy mahoratini oshirish ishlarini tashkil etadi;

12) uslubiy birlashmalar ishiga rahbarlik qiladi va o'z malakasini oshiradi;

13) maktab pedagog va boshqa xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda ishtirok etadi;

14) pedagoglar va o'quv-tarbiya xodimlar tarkibining ish vaqtini hisobga olish tabelini yuritadi, imzolaydi va maktab direktoriga topshiradi;

15) direktorning ma'muriy-xo'jalik ishlar bo'yicha o'rinbosari ishtirokida o'quv xonalari, ustaxonalar, sport zali hamda yordamchi xonalarni pasportlashtirish o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishini tashkil etadi;

16) mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalar hamda amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarda xavfsizlik texnikasi bo'yicha bo'limlar ishlab chiqilishini va vaqti-vaqti bilan kamida 5 yilda 1 marta qayta ko'rib chiqilishini tashkil etadi;

17) direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari bilan hamkorlikda yo'l harakati, suvda va ko'cha-ko'yda o'zini tutish, yong'in xavfsizligi qoidalarini o'rgatish uslubiyati va tartibini belgilaydi, o'quvchilar bilimlarini tekshiruvdan o'tkazishni amalga oshiradi;

18) kasaba qo'mitasi bilan hamkorlikda o'quv asboblari va jihozlari, kimyoviy reaktivlar, ko'rgazmali qurollar, maktab mebelidan foydalanish va saqlash xavfsizligining ma'muriy-jamoa nazoratini amalga oshiradi;

19) namunaviy ro'yxatlarda nazarda tutilmagan, shu jumladan tegishli ruxsatnoma-dalolatnomasiz ustaxonalarda, o'quv xonalari va boshqa xonalarda o'rnatilgan yasama kimyoviy reaktivlar, o'quv jihozlari va asboblarni olib qo'yish choralari o'z vaqtida ko'radi, ta'lim muassasasi xonalarida xodimlar va o'quvchilarning sog'lig'i uchun xavfli sharoitlar yuzaga kelganida ta'lim jarayonini to'xtatib turadi;

20) maktabda, turmushda, jamoat joylarida pedagogning jamiyatdagi o'rniga munosib bo'lgan ahloqiy me'yorlarga amal qiladi.

Maktab direktorining ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari:

1) direktor taqdimotiga ko'ra ko'ra tuman (shahar) XTMTFMTTEB mudiri tomonidan tayinlanadi va lavozimidan olinadi;

2) o'quvchilar bilan sinfdan tashqari va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishni tashkil qiladi, tarbiyaviy jarayon yuzasidan umumiy uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi, aniq bir tadbirlar o'tkazilganida o'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqari ishlashda xavfsizlik texnikasi me'yorlariga va qoidalariga rioya qilinishini ta'minlaydi, mahalla qo'mitasi va boshqa maktabdan tashqari tashkilotlar bilan hamkorlikda rahbarlik qiladi;

3) bevosita maktab direktoriga bo'ysunadi.

Maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosariga bevosita: sinf rahbarlari, o'quvchilar, sardorlar, qo'shimcha ta'lim pedagoglari bo'ysunadi.

Maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari o'z vakolatlari doirasida quyidagi mansab vazifalarini bajaradi:

1) o'quvchilar bilan sinfdan tashqari va maktabdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar bo'yicha joriy va istiqbol rejalar tuzilishini va uning o'tkazilishini tashkil etadi;

2) maktabdan tashqari tashkilotlar: mahalla qo'mitasi va shu kabi boshqa tashkilotlar bilan olib boriladigan ishlar rejasi tuzilishini tashkil etadi;

3) tarbiyachilar, sinf rahbarlari, katta sardorlar va bevosita o'ziga bo'ysunuvchi boshqa xodimlarning ishini muvofiqlashtiradi;

4) muntazam ravishda tarbiyaviy jarayon sifatini, to'garaklar ishini va maktabdan tashqari tadbirlar o'tkazilishini nazorat qiladi;

5) sinfdan tashqari va maktabdan tashqari tadbirlarga, to'garaklar mashg'ulotlariga kiradi, ularning shakli va mazmunini tahlil qiladi, tahlil natijalaridan pedagoglarni xabardor qiladi;

6) tarbiyaviy jarayonni tashkil etish masalalari bo'yicha ota-onalarni (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) qabul qiladi;

7) maktab direktorining o'quv-tarbiyaviy ish bo'yicha o'rinbosari bilan hamkorlikda tarbiyaviy va madaniy-bo'sh vaqt faoliyati bo'yicha mashg'ulotlar javdallarini tuzadi;

8) maktab bo'yicha belgilangan hisobot hujjatlari, shuningdek bevosita o'ziga bo'ysunadigan xodimlar tomonidan tegishli hujjatlar tuzilishini ta'minlaydi;

9) o'quvchilar jamoalariga madaniy-oqartuv va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazishda yordam beradi, to'garaklarda va h.k.larda o'quvchilar kontingentini saqlash choralarini ko'radi;

10) maktab pedagoglari va boshqa xodimlarini attestatsiyadan o'tkazishga tayyorlash va attestatsiya jarayonda ishtirok etadi;

11) sinf rahbarlari va bevosita o'ziga bo'ysunadigan xodimlar tomonidan ularning zimmasiga yuklangan tarbiyaviy ishni tashkil etish bo'yicha vazifalar bajarilishini, o'quvchilarning ixtiyoriy jamoatchilik uchun foydali mehnatini, mehnatni muhofaza qilish me'yorlari va qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda ta'minlaydi;

12) sinf rahbarlari, guruhlar, to'garaklar va sport seksiyalari faoliyatni tashkil etadi, nazoratga oladi va sifatini ta'minlaydi.

Umumta'lim maktablarida xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va maktab direktorining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tayyorlash bo'yicha o'rinbosari lavozimlari ham mavjud bo'lib, ular ham belgilangan tartibda lavozim vazifalarini bajaradilar.

4.Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish.

Umumta'lim maktablari pedagogik faoliyatining asosini metodik ishlar tizimi tashkil qiladi. Qaysi maktabda metodik ishlar tizimli amalga oshirilsa, shu maktabda ta'lim-tarbiya samaradorligi, o'quvchilarning ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik darajasi yuqori bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida amalga oshiriladigan metodik ishlarni mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Jamoaviy metodik ishlar.
2. Yakka tartibdagi metodik ishlar.

Metodik kengash – umumta'lim muassasasining ta'lim, metodik va innovatsion faoliyatini ta'minlash yuzasidan metodik xizmatni amalga oshiradigan jamoaviy organi. Metodik kengash umumta'lim muassasasining pedagogik kengashiga bo'ysunadi va o'z faoliyatini pedagogik kengash qarorlarini bajarishga yo'naltiradi. Metodik kengash pedagogik jamoaning innovatsiya, tajriba-sinov, ta'lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirishda uslubiy birlashmalarning ishini muvofiqlashtiradi.

Metodik kengashning maqsadi umumta'lim muassasasi o'qituvchilarining malakasini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy mahoratini o'stirish hamda metodik ishlarga tez moslashuvchanligini ta'minlashdan iborat.

Metodik kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) umumta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan metodik faoliyatni muvofiqlashtirish, pedagog xodimlarning faoliyati samaradorligini oshirish;

2) umumta'lim muassasasining o'quv dasturi, o'quv rejasi va uni rivojlantirish dasturlarini birlamchi ekspertizadan o'tkazish hamda tasdiqlash uchun umumta'lim muassasasining pedagogik kengashiga tavsiya etish;

3) umumta'lim muassasasi o'qituvchilariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ta'lim metodlari, shakli va vositalarini izlab topishga ko'maklashish, dars jarayonida qo'llashga sharoit yaratish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish va ta'lim jarayonida yutuqlarga erishayotgan pedagogik xodimlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar berish;

4) o'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarining davlat ta'lim standartiga mosligini o'rganish, tahlil qilish, monitoring qilish va natijalariga ko'ra aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

5) o'quv yili yakunida o'quvchilarni keyingi sinfga ko'chirish yoki sinfda qoldirish masalasini ko'rib chiqish;

6) pedagog xodimlarning oxirgi uch yildagi ish natijalarini tahlil qilib borish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berish, pedagog xodimlar va uslubiy birlashma rahbarlariga metodik ishlarni samarali tashkil etish bo'yicha asosiy vazifalarni belgilab berish;

7) pedagog xodimning innovatsion faoliyatini tashkil qilish, ularning ijodiy izlanishlari uchun seminarlar, trening mashg'ulotlari, pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimotlar hamda ochiq darslar tashkil etish;

8) umumta'lim muassasasi pedagog xodimlarining malaka oshirishlarini tashkil etish;

9) pedagog xodimlarning malaka oshirish kursidan keyingi faoliyatlarini tahlil qilish, ularning malaka oshirish kursi davomida olgan bilimlari asosida o‘quv seminarlar tashkil etish, ularning ish rejasi asosida ijodiy hisobotlarini eshitish;

10) fanlar bo‘yicha sinfdan tashqari (fakultativ, to‘garak) ishlarni muvofiqlashtirish;

11) fan olimpiadalari va tanlovlarning maktab bosqichlarini o‘tkazish hamda ularning samarali tashkil etilishini nazorat qilish;

12) pedagogik jamoaning ta‘lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga va amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan tajriba-sinov, ilmiy-tadqiqot, innovatsion, ijodiy faoliyatiga oid tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ularni rag‘batlantirish choralarini ko‘rish;

13) pedagogik xodimlarni ilmiy, metodik, didaktik materiallar, o‘quv dasturlari bilan ta‘minlash;

14) ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida dars o‘tishning yangi metodlarini sinovdan o‘tkazish;

15) ta‘lim sohasida tajriba almashish maqsadida boshqa ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik qilish;

16) uslubiy birlashmalar hisobotini eshitish, muhokama qilish va ular faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish;

17) ta‘lim mazmunini rivojlantirishga oid masalalarni hal qilish, innovatsion dasturlar tuzish, diagnostik tahlil o‘tkazish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish uchun vaqtinchalik ijodiy guruhlar faoliyatini tashkil etish;

18) pedagog xodimlar tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv-metodik qo‘llanmalar va didaktik materiallarni muhokamadan o‘tkazish.

Metodik kengash tarkibi umumta‘lim muassasasi direktorining buy-rug‘i bilan shakllantiriladi. Metodik kengash a‘zolariga umumta‘lim muassasasi direktorining o‘rinbosarlari, uslubiy birlashmalar rahbarlari, oliy, birinchi va ikkinchi toifali o‘qituvchilar kiritiladi. Metodik kengash umumta‘lim muassasasi pedagog xodimlari soni va o‘quvchilar kontingentidan kelib chiqib, 5 - 15 kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Metodik kengash raisi umumta‘lim muassasasi direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari hisoblanadi. Metodik kengash kotibi o‘qituvchilar orasidan tayinlanadi.

Metodik kengashning faoliyati umumta‘lim muassasasi direktori tomonidan nazorat qilinadi.

Metodik kengash faoliyati yillik ish reja asosida tashkil etiladi. Ish reja metodik kengash yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi va umumta‘lim muassasasi pedagogik

kengashining qaroriga asosan umumta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Metodik kengash yig'ilishi har chorakda kamida ikki marta o'tkaziladi. Metodik kengash bayonnomasi kengash kotibi tomonidan yuritiladi. Bayonnoma metodik kengash raisi, kengash a'zolari va kotibi tomonidan imzolanadi.

Bayonnomalarning raqami, sanasi va yig'ilishda ko'rilgan masalalar to'g'risidagi ma'lumotlar metodik kengash bayonnomalarini qayd etish daftariga yozib boriladi. Bayonnomalarni qayd etish daftari raqamlanadi, ip o'tkazib tikiladi hamda umumta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib muhrlanadi. Metodik kengashda o'quv, ma'naviy-ma'rifiy, xo'jalik va boshqa yo'nalishlarga oid masalalar muhokama qilingan taqdirda, mazkur yo'nalish uchun mas'ul bo'lgan shaxs muhokama jarayoniga jalb etiladi.

Metodik kengash quyidagi huquqlarga ega:

1) umumta'lim muassasasining o'quv jarayonini takomillashtirishda ishtirok etish;

2) pedagog xodimlarning ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish va amaliyotga joriy etishga oid masalalarni ko'rib chiqish;

3) o'quv yili yakunida o'quvchilarni keyingi sinfga ko'chirish yoki sinfda qoldirish masalalari bo'yicha maktab pedagogika kengashiga tavsiyalar berish;

4) umumta'lim muassasasi rahbariyatiga o'quv, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-metodik va tajriba-sinov ishlarida faol ishtirok etgan pedagog xodimlarni moddiy rag'batlantirish to'g'risida taklif kiritish;

5) pedagog xodimning malaka toifasini oshirish bo'yicha taklif berish;

6) pedagog xodimlarga malaka oshirish shakllari bo'yicha tavsiyalar berish;

7) fan olimpiadalari, tanlovlar va turli musobaqalarda qatnashish uchun o'qituvchilar va o'quvchilar nomzodini tavsiya etish;

8) umumta'lim muassasasi faoliyatiga oid ijtimoiy so'rovnoma o'tkazish, uning natijalaridan kelib chiqib o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rish.

Metodik kengash quyidagilarga majbur:

1) har chorakda faoliyati yuzasidan umumta'lim muassasasi pedagogik kengashiga hisobot topshirish;

2) ta'lim-tarbiya sifatini yanada yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlash va pedagogik kengashga taqdim etish;

3) o'quv rejasini ishlashda ishtirok etish;

4) yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha pedagogik izlanishlar olib borish;

5) iqtidorli o'quvchilar bilan alohida reja asosida ishlashni tashkil etish;

6) pedagog xodimlarga umumiy o'rta ta'limga oid normativ-huquqiy va metodik hujjatlar yuzasidan tushuntirish va ko'rsatmalar berish.

Metodik kengashda uning faoliyatiga oid quyidagi hujjatlar bo'lishi lozim:

1) umumta'lim muassasasi direktorining metodik kengash to'g'risidagi nizom va uning tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i;

2) metodik kengashning tasdiqlangan ish rejasi;

3) umumta'lim muassasasining pedagog xodimlari va ularning metodik ishlari haqida ma'lumotlar yig'majildi;

4) pedagog xodimlar tomonidan tashkil etiladigan ochiq dars mashg'ulotlari va tarbiyaviy soatlar jadvallari;

5) fan olimpiadalari, tanlovlar va musobaqalarni o'tkazish reja-jadvali;

6) uslubiy birlashmalarning hisobotlari;

7) yig'ilish bayonnomalari;

8) metodik kengashda muhokama qilingan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar.

Metodik kengash hujjatlarining saqlanishiga metodik kengash raisi va kotibi javobgar hisoblanadi. Metodik kengash hujjatlari kengashda uch yil mobaynida saqlanadi hamda tegishli arxivga topshiriladi.

IV. Kuzatuv kengashi - tarkibiga maktab faoliyatiga jiddiy hissa qo'sha oladigan eng faol ota-onalar, bitiruvchilar, homiylar va boshqa shaxslar kiritiladigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan kengashdir. Kuzatuv kengashlarini tashkil etish davlat maktablari uchun – majburiy, nodavlat maktablari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega.

Kuzatuv kengashi ota-onalar umumiy yig'ilishi tomonidan 7 kishidan kam bo'lmagan tarkibda 3 yil muddatga saylanadi. Bunda kengash tarkibiga ota-onalar orasidan kamida 2 nafar, bitiruvchilar orasidan 2 nafar va nafaqadagi pedagoglar orasidan 1 nafar va homiylar orasidan 2 nafar a'zo kirishi kerak. Kengash a'zolari teng huquqli - 1 ovozga ega bo'lib, oshkora ochiq ovoz beradilar. Maktab direktori va uning o'rinbosarlari, mazkur mansabdor shaxslarning yaqin qarindoshlarini kuzatuv kengashiga saylash ta'qiqlanadi.

Kuzativ kengashining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1) xalq ta'limi vazirligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlardan ta'lim muassasasi rahbarini saylash, shuning-dek, belgilangan tartibda uni egallab turgan lavozimidan ozod etish haqida takliflar kiritish;

2) ta'lim muassasasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

3) ta'lim muassasasi rahbarining muassasa faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet, byudjetdan tashqari,

homiylilik va boshqa mablag'lardan foydalanish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini vaqti-vaqti bilan tinglash;

4) ta'lim muassasasi rahbarining taqdimnomasi bo'yicha yillik moliyaviy rejalarni, ko'rsatilayotgan pullik xizmatlar narxining miqdorlarini va muassasa mulkidan foydalanganlik uchun ijara haqi miqdorini, shu jumladan auksiondagi boshlang'ich narxni ko'rib chiqish va tasdiqlash;

5) o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish;

6) o'quvchilar va ular ota-onalarining murojaatlarini ko'rib chiqish, ta'lim muassasasining pedagog va rahbar xodimlari faoliyati to'g'risida ijtimoiy so'rovlarni o'tkazish;

7) ta'lim muassasasining faoliyatini tashkil etishga taalluqli boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etish.

Umumta'lim muassasasida qonun hujjatlariga muvofiq o'quvchilarning jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatadi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi-ning umumiy o'rta ta'lim maktabidagi boshlang'ich tashkiloti ta'lim muassasasi miqyosida o'quvchilar va yosh o'qituvchilarni o'z atrofida birlashtiradigan, yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun munosib shart-sharoit yaratib berilishiga ko'maklashadigan, ularning manfaatlari va haq-huquqlarini himoya qiladigan eng quyi tuzilma hisoblanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ta'lim muassasasi menejmenti deganda nimani tushinasiz?
2. Ta'lim muassasasini boshqarishning o'ziga xos jihatlarini izohlab bering?
3. Ta'lim muassasasining ichki boshqaruviga nimalar kiradi?
4. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etishning qanday bosqichlari mavjud?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 14-son., 213-modda, 22- son, 406-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2020-y., 23-sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2018-yil 14- avgustdagi PQ-3907 Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha, umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o’tkazish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 392-sonli Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”gi PF-60-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-sonli “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo’llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli “2022 — 2026 yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyuldagi PQ-289-sonli “Pedagogik ta’lim sifatini oshirishva pedagog kadrlar tayorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to’g’risida”gi prezident Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyuldagi PQ-290-sonli “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori.
11. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz (1-jild). – T.: O’zbekiston. NMIU, 2017. 592-b. (412- b).
12. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga

- mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
13. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b. 294
14. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b.
15. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174-b.
16. Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxonova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M. B. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent-2019.
17. Abduqodirov A. “Case-study” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. Monografiya. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2019.
18. B.S.Abdullayeva, A.U.Umarov, B.N.Saidova. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.:Nodirabegum nashriyoti, 2021 y
19. Маматкулова Р. Воспитание морально-этических качеств студентов университетов на основе национальнодуховного наследия народа: Автореф. дис.канд. пед. наук. –Т., 1995. – 22 с.
20. Mardonov Sh.Q. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Fan, 2006. – 232 b.
21. Mardonov Sh. Pedagogik ta'lim tizimida ta'limiy qadriyatlardan foydalanish. // Xalq ta'limi. – T., 2005. - №6.
22. Mardonov Sh., Egamberdiyeva N. Sharq allomalari merosi – pedagog mutaxassislar tayyorlash asosi. // Xalq ta'limi. – T., 2004. - №2.
23. Mahkamov U.I. Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishining pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 1998. – 286 b.
23. Mahkamova M.Yu. Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish: Pedagogika fanlari nomzodi. ...diss.Avtoref. – T., 2002.
24. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. –T.: O'qituvchi, 1999.
25. Musurmonova O., Baubekova G. O'zbek xalq pedagogikasi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriëti, 2000. – 64 b. 295
26. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 1993.
27. Muxsiev A. Oilada milliy tarbiyani tashkil etishning metodik asoslari. – T.: Fan, 2009.

28. Mirzayeva F. Bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirish. -T.: Monografiya, 2021 y
29. Mirzayeva F. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). – T.: “Innovatsion rivojlanish nashiriyot matbaa uyi” 2023, – 307 b.
30. Ochilov M. , Ochilova N. “O‘qituvchi odobi”. – T.: “O‘qituvchi”, 1997, – 6-bet.
31. Ochilov.M. Muallim – qalb me'mori. – T.: O‘qituvchi, 2001. – 429 b.
32. Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 132 b.
33. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009. – 240 b. 33. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – T.: “Dono hamro” ilmiy markazi, 2002.
- 34.Авазов Ш., Жобборова Г., Авазова С. Педагогика. Олий таълим муассасалари бакалавриатининг нопедагогик таълим йўналишлари талабалари учун ўқув қўлланма. Тошкент, ТТЕСИ, 2015.- 150 б.
- 35.Бабанского.Ю.К. Педагогика / Под ред. . 2-е изд. М., 1988. С. 339.
- 36.Лернер И. Я. Философия дидактики и дидактика как философия. М.: Изд-во РОУ, 1995. С.
- 37.Осмоловская И. М. Дидактика: учебное пособие. М.: ФГБНУ «Институт стратегии развития образования РАО», 2021.— 232 с.
38. Подласый И.П. Педагогика. – М.: Высшее образование, 2006.
39. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. В 2-х кн. –М.: ВЛАДОС, 2005. Кн.1.
40. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. В 2-х кн. –М.: ВЛАДОС, 2005. Кн.2.
41. Подласый И.П. Продуктивная педагогика. – М.:Народное образование, 2003.
42. Педагогика. (Под ред. П.И. Пидкасистого).- М.: Педагогическое общество России, 2003.
43. Слостёнин.В.А., Исаев.И.Ф., Шиянов.Е.Н.. Педагогика Москва Издательский центр «Академия» 2006. 58-100стр.
44. Степанов Е.Н., Лузина Л.М. Педагогу о современных подходах и концепциях воспитания. – М.: Сфера, 2003.
45. Столяренко А.М. Общая педагогика. – М.: ЮНИТИДАНА, 2006.
46. Столяренко Л.Д. Педагогика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003.
- Скаткина.М.Н. Дидактика средней школы / Под ред. Изд. 2-е. М., 1982. С. 129
- Юзликаева Э.Р, Мадьярова С.А, Янбарисова Э.Э, Морхова И.В Теория и практика общей педагогики: Ташкент, ТГПУ-2012.
47. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. Ikkinchi jild. E – M. – T.: “O‘zbekiston milliy энциклопедияси” Davlat ilmiy nashriёti, 2006. 296

48. Xodjayev B.X.«Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti» (Darslik). T.:SANO-STANDART, 2017.
49. Sh.S.Shodmonova, G.N.Ibragimova, F.O.Mirzayeva.Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: SANO-STANDART, 2022 y.
50. Falsafa: qomusiy lug‘at (Tuzuvchi va mas‘ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 496 b.
51. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. nazariya va amaliyot. – T., Moliya nashriyoti, 2003.
52. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., O‘zMU qoshidagi OPI, 2003.
53. Shabbir Ahmad. Cultural contacts between India and central Asia: A study of Central Asian impact on Indian life based on Persian sources From Babur to Akbar (AD 1526–1605). // Thesis Submitted to the Jawaharlal Nehru University in the Fulfilment of the Requirements for the Award of the Degree of doctor of philosophy. – Jawaharlal Nehru University, 2010.
54. Сафаралиев Б.Б. Народное образование как показатель социокультурной ситуации в истории среднеазиатского общества. Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2011/2 (26).
55. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М.: «Наука», 1970. – 288 б.
56. Собирова К.Д. Изучение истории древнейших времен Памира в трудах академика Б.И.Искандарова Вестник ТНУ, 2019, №1 115.– 180 б.
57. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.- T.: Fan, 2005.- 206 b.
58. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: “Fan”, 2009. – 168 b.
59. Ходжаева Н. Статус женщины Средней Азии в период функционирования шелкового пути //Мат.науч.-теор.конф. // Сборник докладов, Ташкент, 2006. – 171 б. 297
60. Falsafa: qomusiy lug‘at (Tuzuvchi va mas‘ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 496 b. (450-b). 56. O‘qituvchi ish faoliyatini baholash va uni rag‘batlantirish mezonlari (Metodik tavsiyanoma). – T.: 1993. – 34 b.
61. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 1-j. – 736 b. (530-b.).
62. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild, T.: 2002. 704 bet (681-b.)
63. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild, T.: 2004. 704 bet. B. 270.
64. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.–380 b.

65. G'aybullayev N.R., va boshqalar. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: O'zMU, 2005. – 176 b.
66. G'oziyev E. Psixologiya. – T.: O'qituvchi, 1994. – 224 b.
67. Hasanboyev J., To'raqulov X., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 678 b. (289-b)

MUNDARIJA:

| | |
|---|------------|
| KIRISH..... | 4 |
| I BO'LIM. PEDAGOGIKA NAZARIYASI | 5 |
| I BOB. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI..... | |
| 1.1 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI..... | 5 |
| 1.2 PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI..... | 15 |
| 1.3 SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI..... | 41 |
| 1.4 YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON..... | 53 |
| II BOB. DIDAKTIKA – TA'LIM NAZARIYASI..... | 65 |
| 2.1 DIDAKTIKA – TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA..... | 65 |
| 2.2 TA'LIM MAZMUNI..... | 74 |
| 2.3 TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI..... | 96 |
| 2.4 TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI..... | 106 |
| 2.5 O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH..... | 116 |
| III BOB. TARBIYA NAZARIYASI..... | 125 |
| 3.1 TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI..... | 125 |
| 3.2 TARBIYANING UMUMIY METODLARI..... | 135 |
| IV BOB. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI..... | 142 |
| 4.1 TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI..... | 142 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... | 162 |